

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 811.512.133’367.623:008+821.512.133.09

ERGASHEVA UMIDA XOLIKULOVNA

BADIIY ASARLARDA HOLAT IFODALOVCHI SIFATLARNING
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI (O.YOQUBOV ASARLARI
MISOLIDA)

10.00.01 – O‘zbek tili

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini
olish uchun taqdim etilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
Murodova Nigora Quliyevna
Filologiya fanlari doktori, professor

Jizzax - 2025

MUNDARIJA

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)	3
I BOB. TILSHUNOSLIKDA SIFAT SO‘Z TURKUMINING NAZARIY ASOSLARI	11
1.1-§. O‘zbek tilshunosligida sifat so‘z turkumining shakllanishi va taraqqiyoti.	11
1.2-§. Sifat ma’no turlarining talqini va tavsifi.	26
1.3-§. Holat bildiruvchi sifatlarning lingvomadaniy tavsifi.	40
I bob bo‘yicha qisqacha xulosalar	54
II BOB. TABIIY HOLATNI IFODALOVCHI SIFATLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI	56
2.1-§. Tashqi ko‘rinish, qiyofa bilan bog‘liq sifatlarning lingvomadaniy xususiyatlari.	56
2.2-§. Jismoniy nuqson bilan bog‘liq sifatlarning lingvomadaniy xususiyatlari	69
2.3-§. Yosh bilan bog‘liq sifatlarning lingvomadaniy xususiyatlari.	83
II bob bo‘yicha qisqacha xulosalar.	95
III BOB. RUHIY HOLATNI IFODALOVCHI SIFATLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI	97
3.1-§. Quvnoqlik holatini ifodalovchi sifatlarning lingvomadaniy xususiyatlari.	97
3.2-§. G‘amginlik holatini ifodalovchi sifatlarning lingvomadaniy xususiyatlari.	108
III bob bo‘yicha qisqacha xulosalar.	123
XULOSA.	125
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.	127

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida lingvomadaniy birliklar, ularning lakuna, realiya, konsept, konseptosfera, arxitep, steriotip shaklida namoyon bo'lishiga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lami ortib bormoqda. Olamning lisoniy manzarasini aks ettirishda etnografik tamoyillar, ijtimoiy-siyosiy aloqalar, xalqlar o'rtasidagi munosabatlar, axloqiy me'yor tamoyillarini tahlil qilish har bir xalqning mental ifodasini aniqlash imkonini beradi. Mazkur vaziyatda holat sifatlarini lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilish leksemalarning madaniy shartlangan ma'nolarini tasvirlash jarayonini vujudga keltiradi. Belgi bildiruvchi leksemalarni o'rganish, badiiy matnda ifodalangan holat sifatlarini lingvokulturema, lakuna, realiya, konsept, konseptosfera, arxitep, steriotip sifatida tahlil etish bugungi tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir.

Dunyo tilshunosligida poetik matnni lingvomadaniy jihatdan tadqiq etishga doir tadqiqotlar anchani tashkil etadi. Holat sifatlarining semantik, stilistik, morfologik, sintaktik xususiyatlari; olamning konseptual hamda lisoniy manzarasining poetik matnda qayta yaratilishi; inson-til-madaniyat tamoyili asosida shaxs, narsa-predmet, voqelikning belgilarini yuzaga chiqishi; jamoaning umumiy til tajribasini aks ettirishi; konseptning milliy mentalitetga aloqador ma'no qatlamlari va qirralarining kashf etilishi; obyektiv borliqni ifoda etuvchi holat sifatlarining xalq urf-odat, qadriyatlarini o'zida aks ettirishining o'xshash hamda farqli tomonlari, milliy-madaniy konnotatsiyalarning keng imkoniyat va tarmoqlarini o'rganish singari ustuvor masalalarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda ma'lum bir ijodkor asarlari tili va uslubini, ijodkorning idiostilini ko'rsatib bera oladigan izlanishlar maydonga keldi. Adiblar asarlarining pragmatik, kognitiv-semantik, lingvopoetik, lingvokulturologik aspektlarda o'rganildi. Bu o'z navbatida til va madaniyat muammolarini aniqlashga, o'zbek xalqining milliy-madaniy qadriyatlarini anglashga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. "Ayni shu nuqtayi nazardan qaraganda, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'pqirrali bu mavzuni bugungi

kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega”¹. Shu bois o‘zbek ijodkorlari orasida o‘zining so‘zi va adabiy muhitiga ega bo‘lgan ijodkor Odil Yoqubov asarlarida qo‘llanilgan holat sifatlarini monografik jihatdan maxsus o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabr PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktyabr PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 4-oktyabr PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. <https://xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>. 07/08/2018.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligining diqqat markazida bo'lgan masalalardan biri til va madaniyat munosabati, til tizimidagi milliy o'ziga xos elementlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlardir. Xorijlik olimlar A.Vejbitskaya, Y.V.Babayeva, L.E.Vilms, N.V.Barishev, V.Maslova, Z.U.Abdualiyeva, N.F.Alefrenko, Z.K.Sabitova, I.A.Murzinova, O.Bicherlarning ilmiy ishlarida lingvokulturologiyaning shakllanish bosqichlari, lisoniy-madaniy tadqiqot usuli, konsept tushunchasi, dunyoning lisoniy manzarasi kabi masalalar yoritilgan¹. Shuningdek, sifat so'z turkumi, uning semantik tasnifi, grammatik kategoriyalari tilshunos G.Muhammadimin sifatlarini asliy hamda nisbiy sifatlar tarzida talqin qilib, ularning grammatik formalarini tahlil qilgan hamda sifatlarini 7 ta semantik guruhini misollar asosida dalillagan².

¹Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание / Пер. с англ., отв. ред. М.А. Кронгауз, вступ. ст. Е.В.Падучевой. – М.: Русские словари, 1996. – С. 35.; Бабаева Е.В.Культурно-языковые характеристики отношения к собственности(на материале немецкого и русского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. – 207 с.; Вильмс Л.Е. Лингвокультурологическая специфика понятия “любовь” (на материале немецкого и русского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. – 212 с.; Барышев Н.В. Национальная специфика лексико-семантических полей «Средства передвижения» в русском и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 1999. – 156 с.; Маслова В. Лингвокультурология: Учеб. Пособие. – М.: Академия, 2001. –165 с.; Чжэн Инкуй Русские зоонимы в комплексном лингвистическом рассмотрении: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2001. – 198 с.Грабарова Э.В. Концепт savoir-vivre во французской лингвокультуре и его русские соответствия: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2004. – 179 с.; Айдогмуш Э. Турк жана кыргыз тилиндеги зоонимдер: Дисс. ... канд. филол. наук. – Бишкек, 2004. – 198 с.; Артемова О.Е. Лингвокультурная специфика текстов прецедентного жанра “лимерик” (на материале английского языка): Дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2004. – 235 с.; Багдасарова Н.А. Соотношение вербализованных эмоций в русском и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2004. – 182 с.; Балашова Е.Ю. Концепты любовь и ненависть в русском и американском языковых сознаниях: Дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2004. – 262 с.; Киндря Н.А. Английские и русские фразеологизмы с компонентом-зоонимом в свете истории культуры: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2005. – 203 с.; Березович Е.Л. Язык и традиционная культура. – М.: Андрюк, 2007. – 599 с.; Гафарова Қ.Т. Сопоставительный анализ фразеологических единиц с зоонимами и фитонимами в таджикском, немецком и русском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2007. – 208 с.; Горбенко М.В.Стереотипы восприятия зоонимов в межкультурных коммуникациях: Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2009. – 196 с.; Гукетлова Ф.Н. Зооморфный код культуры в языковой картине мира(на материале французского, кабардино-черкесского и русского языков): Дисс. ... док. филол. наук. – Москва, 2009. – 267с.; Батсүрэн Рэнчин Отображение универсальных и этноспецифических черт языковой картины мира в фразеологических фондах английского, русского и монгольского языков(на материале фразеологизмов-соматизмов и зоонимов): Дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2010. – 231 с.;Абдуалиева З.У. Гипоним-эквонимические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков: Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2010. – 156 с.; Alefirenko N.F. Linguocultural nature of mentality // Язык. Словесность. Культура. 1/2011.; Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: Учебное пособие. 3-е изд. М.: Флинта: Наука, 2013. – 288 с.; Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта, 2013. – 524 с.; Мурзинова И.А. Эмблематичность образных характеристик лингвокультурного типажа «британская королева» в языковом сознании носителей британской лингвокультуры // Вестник ТГПУ(TSPU Bulletin). 2013. -№10. – С.138.; Бичер О. Русские пословицы и поговорки с компонентом-зоонимом (на фоне турецкого языка): Дисс. ... канд.филол.наук. – Смоленск, 2015. – 145 с.

² Мухаммадимин Г. Особенности качественно-характеризующих значений прилагательных в современном русском языке. – Ташкент, 1998. – С. 40.

Rus tilshunosligida sifat leksemalaridan maza-ta'm sifatlarining o'z va ko'chma ma'nolari matnlar asosida yoritib berilgan¹. Keyingi tadqiqotlarda esa rang bildiruvchi sifatlar ham tadqiq etilib, bir necha tillar misolida chog'ishtirilgan².

Turkologiyada sifat leksemalar yuzasidan amalga oshirilgan ishlar salmog'i ko'pchilikni tashkil etadi. Xarakter-xususiyat hamda rang bildiruvchi sifatlar A.N.Kononov, E.Koychubayev, F.G.Isxakov, F.Abdullayev, V.Kostenko, A.Dobrinin kabi tilshunoslar tomonidan o'rganilib, "ulug'", "buyuk", "kuchli" kabi sifatlarining konnotativ ma'nolari izohlangan³. N.F.Katanov tomonidan qardosh tillar misolida sifat so'z turkumining ot so'z turkumidan farqli jihatlari yoritilgan⁴. P.M.Melioranskiy, M.A.Kazembek sifat so'z turkumining morfologik va sintaktik kategoriyalari ajratib ko'rsatadi⁵.

O'zbek tilshunosligida M.Sodiqova, Z.Mamarajabova, A.Hoshimov, Z.Pardayev, T.Qurbonniyozovlarning tadqiqotida holat sifatlarining semantik, stilistik xususiyatlari tadqiq etilgan⁶.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Navoiy davlat universitetining "O'zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari" mavzusidagi tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Odil Yoqubov asarlaridagi holat ifodalovchi sifatlarining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash orqali ijodkor idiostilini yoritib berish hamda madaniy universalialar, lakuna, realiya, konsept, arxitep, steriotip kabi birliklarning olamning lisoniy manzarasidagi talqinini ochib berishdan iborat.

¹ Лечицкая Ж.В. Прилагательные вкуса в современном русском языке. – Москва, 1985. – С. 132.; Чалей О.В. Концептуализация вкусовых ощущений в естественном языке. – Москва, 2017. – С. 78.

² Ивахницкая А.Э. Основные прилагательные цвета в истории развития русского и английского языков: Дисс. ...канд. филол. наук. – Саратов, 2002. – С. 52.

³ Кононов А.Н. О семантике слов кара и ак в тюркской географической терминологии / Изв. АН Тадж.ССР. Отделение общественных наук. Вып. V. – Душанбе, 1954. – С. 83–85.

⁴ Катаров Н.Ф. Опыт исследования урянхайского языка. – Казань, 1903. – С. 130–131.

⁵ Мелиоранский М.А. Краткая грамматика казахско-киргизского языка. Ч. I. – СПб, 1894. – С. 37–38.; Казембек М.А. Грамматика турецко-татарского языка. – Казань, 1839. Гл. V. – С. 61. Бу ҳақида қаранг: Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 3.; Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент, 1975. – Б. 4.

⁶ Қурбонниёзов Т. Ҳозирги ўзбек ва қорақалпоқ тилларидаги ҳолат билдирувчи сифатларда қўпмаънолилиқ. – Тошкент, 1996. – Б. 156.

Tadqiqotning vazifalari:

Odil Yoqubov asarlarida ishlatilgan holat sifatlarining lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish;

O.Yoqubov asarlaridagi holat sifatlarida aks etgan madaniy universalialar, belgi bildiruvchi lakuna va realiya birliklarni aniqlash;

holat sifatlarini konsept, arxitep, steriotip kabi birliklar nuqtayi nazaridan tahlil qilish;

O.Yoqubov asarlarida qo'llanilgan holat sifatlaridagi olam manzarasining milliy mentalitet bilan bog'liq ifodasini ajratish.

Tadqiqotning obykti sifatida Odil Yoqubovning “Ko'hna dunyo”, “Ulug'bek xazinasini”, “Muqaddas”, “Billur qandillar”, “Ota izidan”, “So'z” singari asarlaridan sifat so'z turkumi ishtirok etgan matnlar saralab olingan hamda ushbu matnlardan foydalanilgan.

Tadqiqot predmetini holat bildiruvchi sifatning lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Mavzuni yoritishda kontekstual, tavsiflash, tasniflash, diskursiv, differensial-semantik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Odil Yoqubov asarlarida qo'llanilgan *keksa, qari, oqsoch, ko'kchin* holat sifatlarining lingvokulturema sifatidagi konnotativ funksiyalari, lingvomadaniy konsept sifatida inson tafakkuri, madaniyatini aks ettirishi dalillangan;

sifat semantikasida “holat” semali lingvistik birliklardagi universal madaniy semalar aniqlangan hamda Odil Yoqubov asarlaridagi lakuna va realiyalar asosida ochib berilgan, badiiy matnda “*donishmand*”, “*dono*”, “*aqlli*”, “*oqil*” kabi lingvomadaniy birliklarni qo'llashning milliy-madaniy omillari tavsiflangan;

Odil Yoqubov asarlaridagi *go'zal, zebo, ko'rkam, xunuk, badbashara* singari sifat leksemalarning semantik strukturasi va ularning funksional-uslubiy xususiyatlari, konsept, arxitep, steriotip kabi birliklar tarzda namoyon bo'lishi isbotlangan;

tabiiy va ruhiy holat ifodalovchi sifatlar badiiy nutqda tasvirlanayotgan kishi obrazining xilma-xil kayfiyati (shodligi, quvonchi, qaygʻusi, dard-alami)ni, ichki kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini aks ettirish va shu orqali kitobxonda ham turli xil hissiyotlarni hosil qilishda muhim uslubiy vositalardan biri ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sifat leksemalarning oʻrganilishidagi yetakchi tamoyillar, leksik-semantik, frazeologik, morfologik birliklarning lingvomadaniy tahlili bilan bogʻliq ilmiy qarashlar birlamchi manbalarga asoslanib yoritilgan;

tadqiqot natijalari asosida aniqlangan belgi bildiruvchi leksemalar va iboralarning tavsifi umumiy morfologik aspektda oʻrganuvchilar uchun muhim manba boʻla olishi asoslangan;

O.Yoqubov asarlarida qoʻllanilgan holat sifatlarining lingvomadaniy jihatlari aniqlanib, olingan xulosalar oʻzbek tili morfologiyasini yanada chuqurroq oʻrganishga imkon berishi ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilgan;

Tadqiqot natijalari sohaga doir muhim ilmiy-nazariy maʼlumot berishi bilan birga til va madaniyat muammolarini tadqiq etuvchi lingvomadaniyatshunoslik, etnografiya, antropotsentrik tilshunoslik kabi sohalar boʻyicha darslik va qoʻllanmalar yozishda foydalanish mumkinligi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy maʼlumotlarning ishonchli nazariy manbalardan olinganligi, amalga oshirilgan tahlillar kontekstual, tasniflash, tavsiflash, diskursiv, differensial-semantik metodlari asosida isbotlanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi. Olingan natijalar morfologiyaning eng yangi ilmiy konsepsiyalari asosida oʻrganilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, ish oldiga qoʻyilgan muammoning aniq va yetarlicha asoslanganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan eʼtirof etilgani, mavzu jahon tilshunosligining yangi yoʻnalishlari va tahliliy usullari asosida tadqiq qilingani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O.Yoqubov asarlarida qoʻllanilgan holat sifatlarining

lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingani hamda belgini ifodalashdagi umumiy va spetsifik xususiyatlar misollar asosida yoritilganida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Oliy ta'lim tizimidagi "Antroposentrik tilshunoslik", "Amaliy tilshunoslik", "Sotsiolingvistika va diskurs", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Amaliy o'zbek tili" fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda manba bo'lib xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa tadqiqot natijalaridan o'zbek va boshqa qardosh tillari, tillararo aloqalarning rivojlanishida holat sifatlarining tutgan o'rnini o'rganishga oid nazariy va amaliy, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va lug'atlar yaratishda material sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badiiy asarlarda holat ifodalovchi sifatning lingvomadaniy xususiyatlarini O.Yoqubov asarlari misolida tahlil qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Odil Yoqubov asarlarida qo'llanilgan *keksa, qari, oqsoch, ko'kchin* holat sifatlarining lingvokulturema sifatidagi konnotativ funksiyalari, lingvomadaniy konsept sifatida inson tafakkuri, madaniyatini aks ettirishi dalillanishi kabi fikrlar asosidagi masalalari 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-OO5-raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zFA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 3-iyundagi 222/1-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini amaliy qo'llash loyiha doirasida badiiy asarlarda ayrim sifat leksemalarning semantik strukturasi va ularning funksional-uslubiy xususiyatlari, holat ifodalovchi sifatning lingvomadaniy jihatlari keng tahlillar asosida ochib berilgan.

sifat semantikasida "holat" semali lingvistik birliklardagi universal madaniy semalar aniqlangan hamda Odil Yoqubov asarlaridagi lingvokulturemalar asosida ochib berilgan, badiiy matnda "*donishmand*", "*dono*", "*aqlli*", "*oqil*" kabi lingvomadaniy birliklarni qo'llashning milliy-madaniy omillari tavsiflanganligi kabi masalalari 2017-2020-yillarda bajarilgan F3-2016-09081165532-raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va

adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institute Qoraqalpog‘iston filialining 2024-yil 31-maydagi 224-son ma’lumotnomasi). Natijada “holat” semali lingvistik birliklar ilk marta lingvomadaniy talqin qilish kabi masalalarni yoritishda dissertatsiyada ishlab chiqilgan usullardan foydalanilgan.

tabiiy va ruhiy holat ifodalovchi sifatlar badiiy nutqda tasvirlanayotgan kishi obrazining xilma-xil kayfiyati (shodligi, quvonchi, qayg‘usi, dard-alami)ni, ichki kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini aks ettirish va shu orqali kitobxonda ham turli xil emotsiyalarni hosil qilishda muhim uslubiy vositalardan biri ekanligi aniqlash kabi yangiliklaridan Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining “Adabiyot va hayot”, “Jarayon” singari turkum ko‘rsatuvlarining tegishli sonlarida, “Assalom, yangi kun” tonggi dasturida, Navoiy viloyat radiosi orqali efirga uzatilgan “Nazm va navo”, “O‘zbek adabiyoti” eshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 4-iyundagi 01-11/79-son ma’lumotnomasi). Natijada dastur hamda eshittirishlarning ilmiy-ijodiyligi oshirilgan va dolzarbligi ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot ishi Navoiy davlat universitetining O‘zbek tilshunosligi kafedrasida muhokama qilinib, tugallangan ish sifatida himoyaga tavsiya etilgan. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishda tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi Respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 125 sahifani tashkil etadi.

I BOB. TILSHUNOSLIKDA SIFAT SO‘Z TURKUMINING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. O‘zbek tilshunosligida sifat so‘z turkumining shakllanishi va taraqqiyoti

Tildagi so‘zlarning ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish kabi guruhlarga bo‘linishi ularning so‘zlik holati, grammatik xususiyatlari (morfologik belgilari va sintaktik vazifasi) asosida maydonga keladi, ya’ni har bir so‘zda leksik-grammatik tomonlarning birligi mavjud bo‘ladi. Mana shunday muammolarni o‘rganish tilning grammatik qurilishida yuz bergan o‘zgarishlarni izchil aniqlash imkonini beradi.

Belgi bildiruvchi so‘zlar deyilganda, sifat so‘z turkumini nazarda tutamiz. Bu holatni qozoq, qirg‘iz, turk, tatar tillari bo‘yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirgan olim N.F.Katanov ham belgi tor ma’noda sifat so‘z turkumiga mansub so‘zlarni ifodalashini ta’kidlab, ot va sifat so‘z turkumini alohida belgilarini ajratib ko‘rsatmaydi¹.

“Yozuv yo‘llari”, Shorasul Zunnunning “O‘zbekcha qoidalar”, “O‘zbekcha til saboqligi”, Munavvar Qori, Qayum Ramazon, Y.D.Polivanovning “Краткая грамматика узбекского языка” (“O‘zbek tilining qisqacha grammatikasi”)² kabi asarlarda sifat leksemalar xususida ham fikrlar bayon qilingan.

A.Fitrat tilshunos olim sifatida o‘zbek tili grammatikasini ishlab chiqdi. Bilamizki, grammatika 2 ta sathdan iborat: morfologiya hamda sintaksis. Olim morfologiya qismini “Sarf” deb atab, shu nomdagi kitob yaratadi. Asarda so‘z shakli, so‘zlarning turkumlarga ajratilishi xususida fikr borar ekan, sifat so‘z turkumi xususida ham batafsil to‘xtalib o‘tadi. Jumladan, sifatlarning yasalishini 2 turga, ya’ni tub va yasama guruhlarga ajratadi. Yasama sifatlarni hosil qiluvchi affikslarni sanab, matnlar orqali dalillaydi³.

Shuningdek, olim “Sarf” asarida quyidagilarni ta’kidlaydi: “So‘z bir ma’noni bildirgan, o‘ziga maxsus ohangi va bosimi bo‘lg‘an tovushlar to‘dasidir. So‘z: **ot**,

¹ Катанов Н.Ф. Опыт исследования урянхайского языка. – Казань, 1903. – С. 130–131.

² Поливанов Е.Д. Краткая грамматика узбекского языка. – Ташкент, 1926. – 132 с.

³ Курбонова М. Фитрат – тилшунос. – Тошкент: Университет, 1996. – Б. 32.

sufat, fe'l, olmosh, ko'makchi so'zlari kabi qisimlarga ajraladir. *Qizil olma, qora taxta, uzun yog'och, yiroq kent* deganda olma, taxta, yog'och, kent so'zlarining biror ot ekanini bilamiz. Shu otlaming "nuchuklik"larini onglatmoq uchun *qizil, qora, uzun, yiroq* so'zlari unlarg'a qo'shilg'andir. Bir otning "nuchuklik"ini onglatmoq uchun uning bosh tomonig'a keltirilgan so'ziga "sufat" va shu otning o'ziga "sufath" deyiladir"¹.

Fitratning boy ilmiy qarashlari bir qancha olimlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan. Xususan, O.Madrahimov o'zbek tilshunosligidagi yasama sifatlarni birma-bir tahlil qilib bergan².

K.Sharipova ham o'zining bir maqolasida shunga yaqin "-lik affiksi bir qancha fonetik variantlarga ega va differensiatsiyalashgan holda deyarli hamma turkiy tillarda keng qo'llaniladi. Hozirgi o'zbek tilida -lik affiksi otning bir qancha ma'nolarini va shu bilan bir qatorda sifatning ham ayrim ma'nolarini ifodalashda ishlatiladi",³ – degan fikrni bayon etadi.

Bundan ko'rinadiki, eski o'zbek tilidagi sifat yasovchi -lik affiksi keyinchalik o'zining egalik anglatuvchi sifat yasovchi -li variantining shakllanishiga asos bo'lgani holda yo'q bo'lib ham ketmagan, balki egalikdan boshqa ma'nodagi sifatlar yasovchilik vazifasini davom ettiravergan va hozir ham davom ettirmoqda, – degan xulosaga kelish mumkin.

"Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari va Y.D.Polivanovning lingvistik merosi" mavzusida o'tkazilgan ilmiy anjumanda T.Xo'jayev "Hozirgi turkiy tillarda sifat kategoriyasiga oid ayrim munozarali masalalarga doir" nomli ma'ruza bilan ishtirok etgan edi. Bu ma'ruzada sifatlarning ravishdan farqli xususiyatlari, asliy va nisbiy sifatlar o'rtasidagi farqli belgilar haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. Masalan, olimning fikricha, asliy sifatlar qatoriga faqat tub

¹ Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar: Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar /Abdurauf Fitrat; Mas'ul muharrir B. Qosimov; Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H.Boltaboyev. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2009. – B. 145.

²Мадрахимов О. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига доир // ЎзРФА Ахбороти, ижтимоий фанлар серияси. – Тошкент, 1957, № 1. – Б. 41–47.

³ Шарипова К. -лик аффиксининг сифат ясовчи вазифасида қўлланилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972, №5. – Б.69–71.

sifatlarni emas, balki *foydali, samarali* singari yasama sifatlarni ham kiritish lozim, chunki ular belgini darajalab ko'rsatish xususiyatiga ega¹.

M.Asqarova, G'.Abdurahmonovlarning "O'zbek tili grammatikasining praktikumi" asarida sifatlar juda qisqa talqin qilingan bo'lsa-da, asarda sifat turkumiga oid so'zlar dastlab asliy va nisbiy sifatlar, deb ikki guruhga ajratilgan; sifatlarda oddiy darajadan ikki xil daraja: qiyosiy daraja (*yaxshi – yaxshiroq*), orttirma daraja (*yaxshi – eng yaxshi, juda yaxshi, g'oyat yaxshi, hammadan yaxshi*) hosil bo'lishi ko'rsatilgan. Sifatlar tuzilishiga ko'ra sodda sifatlar (*go'zal, baxtiyor, chiroyli*), qo'shma sifatlar (*sohibjamol, ochko'z*), murakkab sifatlar (*jigarrang, bodomqovoq*), juft sifatlar (*past-baland, och-yalang'och*)ga ajratilgan².

Shuningdek, "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida sifatning juft shakli (*yaxshi-yomon, katta-kichik*) va takroriy shakli (*yosh-yosh*) mavjudligi yoritib berilgan. Ushbu darslikda, umuman, o'zbek tilidagi so'z yasalishi hodisasi alohida bobda tahlil qilingan. Shu bilan bog'liq holda sifatlarning affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan yasalishi alohida-alohida keng yoritilgan. Darslikning bu qismida, ayniqsa, qo'shma sifatlarni so'z birikmalaridan farqlash lozimligi aniq dalillar asosida ochib berilgan: *mosh rang duxoba // mosh rang duxoba do'ppi // mosh rang duxoba do'ppili bola* kabi. Bu darslikda sifatlar ma'nosiga ko'ra quyidagi sakkiz turga ajratib tahlil qilingan³:

1.1.1-jadval.

№	Sifatlarning ma'nosiga ko'ra turlari	Sifatlar
1.	Xususiyat bildiruvchi sifatlar	kamtarin mug'ombir sodda quvnoq mehrbon

¹ Ходжаев Т. К некоторым спорным вопросам категории имен прилагательных в современных тюркских языках // Материалы конференции «Актуальные вопросы современного языкознания и лингвистическое наследие Е.Д.Поливанова», том 1, – Самарканд, 1964. – С. 216–218.

² Аскарова М, Абдурахмонов Х. Ўзбек тили грамматикасининг практикуми. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 248 б.

³ Ҳожиёв А. Қўрсатилган асар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 251–258.

2.	Holat bildiruvchi sifatlar	badavlat xursand mayus keksa durkun sovuq iliq tinch
3.	Shakl-ko‘rinish bildiruvchi sifatlar	gavdali novcha uzunchoq yassi
4.	Rang bildiruvchi sifatlar	ko‘k yashil kulrang havorang binafsha sabzirang
5.	Ma’za-ta’m ifodalovchi sifatlar	taxir sho‘r tuzsiz pach (shevada) ma’zali
6.	Hajm-o‘lchov ifodalovchi sifatlar	baland past katta kichik uzoq yaqin

		zilzambil qushday
7.	Hid ifodalovchi sifatlar	shirin yoqimli sassiq
8.	Predmetning o‘rin yoki vaqtga ko‘ra belgisini bildiruvchi sifatlar	yozgi kuzgi qishki ichki sirtqi

O‘zbek tili lug‘at tarkibining leksik-semantik guruh (LSG)larini sinchiklab o‘rganish o‘zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi¹. Masalaga ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, S.G‘iyosovning subyektiv baho ifodalovchi sifatlarni sakkiz ichki LSGga ajratib tahlil qilishi, bu LSGlarning bir-biridan semik tarkibi jihatdan farqli tomonlarini ko‘rsatishi diqqatga sazovordir. Masalan, S.G‘iyosovning fikriga ko‘ra, subyektning aqliy faoliyatiga ko‘ra belgini ifodalovchi LSGga *aqlli*, *dono*, *oqil* kabi sifatlar kiradi. Ular subyektning aqliy faoliyati bahosini turli jihatdan xarakterlaydi².

R.R.Sayfullayeva boshqa so‘z turkumi ham belgi ifodalay olishi, biroq sifat barqaror va turg‘un belgi ifodalashi bilan ulardan ajralib turishini ta’kidlaydi. Olima sifat so‘z turkumining LMGlari haqida to‘xtalib o‘tganda, uni 9 ta LMGsini ajratib ko‘rsatadi³.

Tilshunos R.N.Yusubova o‘z tadqiqotida rang bildiruvchi leksemalar sinonimiyasining lisoniy ortiqchalik fonidagi lingvopoetik imkoniyatlarini Alisher

¹ Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари материали асосида). – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 168.

² Ғиёсов С. Ўзбек тилида субъектив баҳо сифатларининг семик таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. № 2. – Б. 28–32.

³ Sayfullayeva R.R, Mengliyev B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M., Abuzalova M.Q., Yo‘ldosheva D.N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: ZEBO PRINT, 2021. – B. 226.

Navoiy asarlari misolida yoritib, *qizil*, *qora*, *sariq* sifatlari orqali dalillab ko'rsatadi¹.

A.Aymurzayeva tadqiqotida qoraqalpoq tilida sifat va sifatdoshlarning otlashuvi (substantivatsiyasi) hodisasini maxsus o'rganib, uni so'z yasalishining turlaridan biri, transpozitsiyaning ko'rinishi deb talqin qiladi. Muallifning fikricha, a) insonning fizik va ruhiy nuqsonini ifodalovchi (*oqsoq*, *so'qir*, *garang*, *qiyshiq*, *gung* kabi), b) insonning ichki va tashqi holatini bildiruvchi (*semiz*, *oriq* kabi), insonning jamiyatdagi o'rnini bildiruvchi (*boy*, *kambag'al*, *mo'min*, *yalang'och*) sifatlar ko'proq substantivatsiyaga uchraydi, bu barcha tillar uchun umumiy, universal holat sanaladi².

“Qadimgi turk yozma yodgorliklarida va eski o'zbek tilida sifat yasovchi affiks vazifasida uchraydigan *-li* bilan keyingi davr uchun xarakterli bo'lgan *-lik* boshqa-boshqa affikslar emas, balki bu ikki fonetik kompleksga ega bo'lgan bitta affiksidir. Chunki ular negizga kiritadigan leksik ma'no jihatidan ham, grammatik ma'nosi jihatidan ham bir-biridan biror darajada farq qilmaydi. Ularning bir-biridan farqi fonetik tarkibidadir...”³.

S.I.Matchanova nomzodlik dissertatsiyasida rus va o'zbek tillaridagi *белый*// *oq*, *чорный* // *qora*, *красный* // *qizil*, *синий* // *ko'k*, *жёлтый* // *sariq* kabi rang-tus bildiruvchi sifatlardan o'zbekcha ekvivalentlari ruschaga nisbatan ko'chma ma'nolari ko'pligi bilan ajralib turadi, birgina *ko'k* leksemasi rus tilidagi *синий*, *голубой*, *зелёный*, *серый* kabi rang xususiyatlarini ifodalash imkoniyatiga ega. Yoki rus tilidagi *серебристо-белый* rang bildiruvchi so'zi o'zbek tiliga turli lug'at va darsliklarda *kumushsimon oq*, *kumushday oq*, *kumushrang oq*, *kumushrang*, *kumushdek oq*, *kumushdek oq rang*, *yaltiroq*, *och kul rang*, *kumush kabi oq*, *oq tusli*, *oq*, *qizg'ish kulrang*, *och sariq*, *sarg'ish tusli*, *po'lat kabi yaltiroq*, *kulrang*

¹ Yusubova R.N. Tejamlilik va ortiqchalikning lingvopoetik xususiyatlari // Filol. fan. d-ri. – Samarqand, 2021. – B. 202–213.

² Аймурзаева А.А. Субстантивация имен прилагательных и причастий в современном каракалпакском языке // Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – С. 20.

³ Xo'jayev T., Mullajonova H. Ko'rsatilgan maqola. – Samarqand: SamDU, 1976. – B. 89–99.

po‘latsimon, kumushsimon ko‘kish oq rang, oqish kul rang, havorang, sarg‘ish pushti rangli kabi yigirmaga yaqin birikmalar yordamida tarjima qilingan¹.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, til taraqqiyot mahsulining mevalaridan yanada boyib, sayqallanib boraveradi. Shoirilar unda yangi- yangi topilmalar, betakror tashbehlar bilan, tilshunoslar esa tilning tarixiy ildizlari, kechasi, buguni va ertasining tadrijiy bosqichi uchun betinim izlanadilar. Tilning ichki va tashqi imkoniyatlarini o‘rganib, uning bevosita va bilvosita boyishi va rivojlanishi, avlodlarga sof holda yetkazish maqsadida ilmiy-amaliy tajribalar o‘tkazadilar. Binobarin, mamlakat yuksalib, taraqqiyot sari odimlayvergani sayin, uning bevosita tili ham kundan-kun, tobora yuksaklikka intilaveradi.

Ma’lumki, o‘zbek tilida sifatlar salmoqli o‘ringa ega. Sifatlardagi *-li,-siz; ba-, be-* antonimik juftliklar o‘zakdan anglashilgan predmet, hodisaning mavjudligini yoki aksi asosida anglashilgan belgi ma’nosini ifoda etadi. Hosil bo‘lgan belgi ifodalovchi so‘z predmetga nisbatan ijobiylik yoki salbiylik baho munosabatini ifoda etadi: *odobli bola, odobsiz bola*. Bu kabi hollarda mavjudlik – mavjud emaslik tushunchasi predmetga nisbatan ijobiylik yoki salbiylik ma’nosini yuklaydi.

Masalan: *Odobli bola elga manzur*.

Odobni beodobdan o‘rgan. (Maqol)

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida sifat so‘z turkumining lingvokulturologik xususiyatlari hali o‘rganilmagan tadqiqot obyekti sanaladi. Sifatlarning nutqiy vaziyat, til egalarining milliy urf-odatlar bilan bog‘liq lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish esa muhim ahamiyatga ega.

Ammo barcha turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida ham sifatlarning morfologik xususiyatlari, gap qurilishida tutgan o‘rni, sintaktik imkoniyatlari, uslubiy qo‘llanishi, sinonimik, antonimik munosabatga kirishuvi kabi jihatlari atroflicha o‘rganilgan. O‘zbek tilshunosligida sifatlarning tadqiqiga oid bu ishlarda quyidagi nazariy masalalar yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarilgan:

¹ Матчанова С.И. Русско-узбекские параллели цветообозначений // Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987. – С. 21 с.

1. Sifatlarning morfologik belgi-xususiyatlari¹.
2. Sifat kategoriyalari².
3. Sifatlarning ma'no turlari³.
4. Sifat shakllari⁴.
5. Sifatlarning valentliklari⁵.
6. Sifatlarning konnotativ xususiyatlari⁶.
6. Sifatlarning uslubiy xususiyatlari⁷.
7. Sifatlarning tarixiy shakllari⁸.
8. Sifatlarning yasalishi⁹.

Sifatlarning morfologik belgi-xususiyatlari tilshunos olimlar A.G'ulomov, M.Sodiqovalar tomonidan maxsus o'rganilgan. Sifat so'z turkumining tadqiqiga bag'ishlangan ishlar ichida M.Sodiqovanning "O'zbek tilida sifat" nomli tadqiqoti diqqatga sazovor. Olimaning bu kitobida o'zbek tilidagi sifatlarning morfologik belgi-xususiyatlari, semantikasi chuqur tahlil etilgan.

O'zbek tilshunosligida sifatlarning uslubiy xususiyatlari masalasi ham atroflicha o'rganildi.

Ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilshunosligida sifat so'z turkumi har jihatdan jiddiy o'rganilgan. Biroq sifatlar shu kunga qadar pragmatik aspektda tekshirish obyekti

¹ Ўзбек тили грамматикаси. 1- қисм. — Тошкент: Фан, 1975. — Б. 365-527; Сифат. / Ш.Шоабдурахмонов, М.Асқарова, А.Ҳожиев, И.Расулов, Х. Дониёров. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1- қисм. — Тошкент: Ўқитувчи, 1980. — Б. 325-401; Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва бош.Ҳозирги ўзбек адабий тили. —Тошкент: Фан ва технология, 2009. -246.

² Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. - Тошкент: Университет, 2006. — Б. 159-172 б; Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. — Тошкент. — 2007. — Б. 191-206.

³ Содикова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. — Тошкент: Фан, 1974.-127 б.; Ҳамдамова И. Ўзбек тилида сифатларнинг ма'но турлари ва уларнинг ўзбек тили изоҳли луғатида берилиши. Филол. фан. номз. дисс... автореф. -Тошкент, 1964. 20-б.; Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (Морфология). - Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. 63-67-б.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. -Тошкент: Университет, 2006. — Б. 172-188 б.; Ғиёсов С. Аслий сифатларнинг икки семантик группаси ҳақида //Ўзбек тили ва адабиёти,1984,1-сон. 58-б.

⁵ Қўчқортқоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. — Тошкент: Фан, 1977. — 166 б.

⁶ Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив ма'нолари: Филол. фан. номз. дисс... автореф. — Тошкент, 2004. — Б. 22.; XV-XIX асрлар ўзбек тили морфологияси / Шукуров Ш., Каримов К., Маҳмудов Қ., Рустамов Т. — Тошкент: Фан, 1990. — 252 б.; Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан очерк. — Тошкент, 1959. — Б. 44.; Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. — Тошкент: Фан,1965. — Б. 52.

⁹ Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка: автореф. дисс. ... д-ра. Филол. наук. — Ташкент, 1955. — 45 с.; Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. — Тошкент: Ўқитувчи, 1989. — 109 б.; Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. — Тошкент, 2007. — Б. 188-191.

bo‘lgan emas. Sifatlarning pragmatik imkoniyati muayyan matn, nutqiy vaziyat, til egalarining tashqi olam haqidagi umumiy bilimlari va til ko‘nikmalari kabi omillar bilan bog‘liq holda tekshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tilshunos B.Yoriyev rang-tus ifodalovchi sifatlarning semantik-stilistik xususiyatlarini aniqlab, M.Shayxzoda asarlari misolida okkozional sifatlarning badiiy imkoniyatlarini ochib bera olgan¹.

Olim M.Mamatov sifatlarning ham otning belgisini, ham fe‘lning belgisini ifodalab kelishini isbotlab, aniq dalillar keltiradi. Masalan, *yaxshi*, *horg‘in*, *a‘lo*, *chiroyli* sifatlari bilan kesim bevosita aloqaga kirisha olishini ko‘rsatib bera olgan².

A.Hoshimov sifat leksemalarning semantik ko‘lamini ko‘rsatar ekan, holatga ishora qiluvchi sifatlarning assotsiativ maydonini aniqlagan³.

O‘zbek tilshunosligida holat leksemalarning stilistik imkoniyatlari Z.Pardayev tomonidan batafsil tadqiq etilgan⁴.

O‘zbek tilida sifatlarning muayyan kontekst, nutqiy vaziyat, til egalarining tashqi olam haqidagi umumiy bilimlari va til ko‘nikmalari kabi omillar bilan bog‘liq holda pragmatik vazifa bajarishi garchi shu nom ostida o‘rganilmagan bo‘lsa-da, bu haqda ham qisman ma’lumot berilgan. Xususan, “O‘zbek tilining mazmuniiy sintaksisi” kitobi mualliflari “*Men qiziq kitoblarni o‘qiyman*” gapida qo‘llangan *qiziq* sifati misolida ayrim sifatlarning presuppozitsiyaga ishora qilishi (Boshqa kitoblarni o‘qimayman), ya’ni pragmatik vazifa bajarishi masalasiga e’tibor qaratishgan⁵.

¹Ёриев Б. Сифатларнинг стилистик хусусиятлари (М.Шайхзода шеърини мисолида) // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами). – Самарқанд: СамДУ, 1980. – Б. 56–59.

² Маматов М.Ш. Сифат ва отларнинг айрим стилистик хусусиятлари ҳақида // Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар (илмий мақолалар тўплами). – Самарқанд, 1983. – Б. 59–61.

³ Ҳошимов А. Лексемаларни майдонларга бўлиш тамойили. – Тошкент, 1998. – Б. 62.

⁴ Пардаев Н. Рухий ҳолат ифодаловчи сифатлар семантикасига доир. – Тошкент, 2002. – Б. 65.

⁵ Қаранг: Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. — Тошкент: Фан, 1992. - Б. 115.

M.Xoliyorovning fikricha, “hozirgi o‘zbek tilida *-lik* affiksi otlarga qo‘shilsa sifat, sifatlarga qo‘shilsa ot yasaydi: *yozlik (kiyim), ko‘rpalik (chit), shaharlik (yigit), toshkentlik (mehmonlar); yaxshilik, kattalik, yomonlik singarilardir*”¹.

M.Xoliyorov o‘zining yuqoridagi fikrini “Yasama sifatlarning otlashishi” nomli maqolasida yangi dalillar bilan to‘ldirdi va ilmiy jihatdan chuqurroq asoslashga intildi. Olimning talqinicha, “shaxs oti yasovchi” deb kelingan *-chi, -kash, -kor, -dot* tipidagi affikslar o‘zbek tilida sifat turkumiga oid so‘z yasaydi. Shu sababli bunday affikslar yordamida yasalgan *ishchi, paxtakor, aravakash* kabi otlashgan so‘zlarni yasama otlar demasdan, otlashgan yasama sifatlar deb atagan ma’qul”².

N.M.Mahmudov, D.Xudoyberganova o‘z izlanishlarida “rang bildiruvchi sifat leksemalar ko‘pincha ikkinchi bir turkum leksemasida aynan shu ma’noni anglatuvchi sema mavjud bo‘lgan so‘zlar bilan atributiv munosabatga kirishadi – klassemani tarkib toptiradi”³, – deya ta’kidlashadi.

Sifatlarning morfologik belgi-xususiyatlari tilshunos olimlar A.G‘ulomov, M.Sodiqovalar tomonidan maxsus o‘rganilgan. Sifat so‘z turkumining tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar ichida M.Sodiqovanning “O‘zbek tilida sifat” nomli tadqiqoti diqqatga sazovor. Olimaning bu kitobida o‘zbek tilidagi sifatlarning morfologik belgi-xususiyatlari, semantikasi chuqur tahlil etilgan.

O‘zbek tilshunosligida sifatlarning uslubiy xususiyatlari masalasi ham atroflicha o‘rganildi.

O‘zbek tilida sifatlarning muayyan kontekst, nutqiy vaziyat, til egalarining tashqi olam haqidagi umumiy bilimlari va til ko‘nikmalari kabi omillar bilan bog‘liq holda pragmatik vazifa bajarishi garchi shu nom ostida o‘rganilmagan bo‘lsa-da, bu haqida ma’lumotlar berilgan. Xususan, “O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi” kitobi mualliflari “*Men qiziq kitoblarni o‘qiyman*” gapida qo‘llangan *qiziq* sifati misolida ayrim sifatlarning presuppozitsiyaga ishora qilishi (Boshqa

¹ Холиёров М. Ясама сифатларнинг отлашиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973, № 2. – Б. 81–82.

² Xoliyorov M. Ko‘rsatilgan maqola. – B. 41-42.

³ Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия простом предложении в узбекском языке: Автореф. дис... д-ра филол. наук. – Т., 1984. – С. 33.; Худайберганова Д. Семантический и стилический анализ конструкций уподобления в узбекском языке: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Т., 1989. – С. 8.

kitoblarni o'qimayman), ya'ni pragmatik vazifa bajarishi masalasiga e'tibor qaratishgan¹.

Sifat so'z turkumlari ichida muayyan predmetning (predmet bu o'rinda keng ma'noda) belgi-xususiyatini ifodalay olish xususiyati jihatidan alohida mavqega ega. Shu sababli o'zbek tilida sifat ishtirokidagi gaplarni sifatlarning grammatik tabiati, semantikasi, pragmatik imkoniyati bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiq. Mana shu maqsadda ushbu tadqiqot ishimizda sifatlarning presuppozitsion, baho berish, inson ruhiy holatini ifodalay olish kabi pragmatik jihatlariga aniqlik kiritish lozim topildi. O'zbek tilidagi sifatlarning boshqa xususiyatlari, jumladan, deytik, konseptiv, kognitiv xususiyatlari alohida pragmatik tadqiqotlarning tekshirish obyekti bo'la olishi nazarda tutilib, ular ushbu ish doirasida o'rganilmadi.

Ma'lumki, o'zbek tili semasiologiyasining asosiy nazariy muammolaridan biri leksik materialni tahlil qilish birligi va bu birliklarning asosiy lug'aviy birlik (so'z)ga munosabati masalasini aniqlashdir. Shuningdek, o'zbek tili lug'at tarkibining leksik-semantik guruh (LSG)larini sinchiklab o'rganish o'zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi². Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraganda, S.G'iyosovning subyektiv baho ifodalovchi (SBI) sifatlarni sakkiz ichki LSGga ajratib tahlil qilishi, bu LSGlarning bir-biridan semik tarkibi jihatdan farqli tomonlarini ko'rsatishi diqqatga sazovor. Masalan, S.G'iyosovning fikriga ko'ra, subyektning aqliy faoliyatiga ko'ra belgini ifodalovchi LSGga *aqlli*, *dono*, *oqil* kabi sifatlar kiradi. Ular subyektning aqliy faoliyati bahosini turli jihatdan xarakterlaydi³.

Y.Tojiyev o'zbek tilshunosligida affiksali sinonimiya muammolarini tadqiq etishga salmoqli hissa qo'shdi. Jumladan, uning qator ilmiy maqolalari, monografiyasi sifat yasovchi affikslarning ma'nodoshligi masalasini o'rganishga

¹ Qarang: Нурмонов А., Махмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. — Тошкент: Фан, 1992. - Б. 115.

² Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари материали асосида). - Тошкент: Фан, 1977. - 168 б.

³ Гиёсов С. Ўзбек тилида субъектив баҳо сифатларининг семик таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986, №2. - 28-32-б.

bag'ishlangan. O'zining bu sohadagi izlanishlarini olim keyinchalik doktorlik dissertatsiyasida umumlashtirdi. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida ot turkumiga oid so'zlardan sifat yasab, o'zakdan anglashilgan obyektga umuman ega ekanlikni bildiruvchi **-li//dor, -li//ser-, -dor//ser-, -li//ba-, -li//kor> -li//mand, -li//don, -li//nok, -li//chan, -li//tosh, ba-//dor, ba-//chan** kabi so'z yasovchi affikslar sinonimik juftliklarni hosil kiladi. Shuningdek, ot turkumiga oid so'zlardan sifat yasab, o'zakdan anglashilgan obyektga ega emaslikni bildirgan **-siz//be-, -siz//no-, be-//no-, -siz//nim-**kabi so'z yasovchi affikslar ham tilimizda sinonimik juftliklarga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi.

G.A.Qurboniyazov o'z nomzodlik ishida ikki til materiallaridan foydalangan. U o'zbek va qoraqalpoq adabiy tillaridagi *qattiq, qattıy* leksemalarining qiyosiy tahlilini amalga oshirishga harakat qilgan. Tadqiqot natijasida o'zbek tilidagi *qattiq* leksemasining 15 ta, qoraqalpoq tilidagi *qattıy* leksemasining 12 ta sememasi borligi, *qattiq* 13, *kattiq* 14, *qattiq* 15 sememalari o'zbek tiliga rus tilidan kalkalash yo'li bilan o'zlashganligi aniqlangan. Rus tilidagi «твердая вода» birikmasi «qattiq suv», «ТВЁРДЫЕ СОГЛАСНЫЕ» birikmasi «qattiq undoshlar», «твердая валюта» birikmasi esa «qattiq valyuta» deb olingan. Qoraqalpoq tilida bu ma'nolar boshqa sememalar bilan beriladi. «Qattiq suv» birikmasi «kermek suo'», «qattiq undosh» birikmasi «juo'an dao'ıssız», «qattiq valyuta» birikmasi «turaqlıy valyuta» deb aytiladi¹.

Kim Byong Il o'z nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi har xil affiksli o'zakdosh sifatlarning ayrim semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlarini aniqlashga intilgan. Olim *aybli // aybdor, yelkali// yelkador, mantiqli //mantiqiy, ta'sirli // ta'sirchan, baxayr - xayrli, bo'ydor // bo'yli, baquvvat // quvvatli, jarangdor // jarangli* singari bir o'zakli sinonim sifatlarning ma'nosi va qo'llanish xususiyatlariga doyr nozik kuzatishlarni amalga oshirgan².

¹ Курбониязов Г.А. Ҳозирги ўзбек ва қорақалпоқ адабий тилларидаги *қаттиқ* ва *қатты* лексемаларининг қиёсий таҳлили, НДА. -Тошкент: 1998. - 24 б.

² Ким Бёнг Иль. Семантико-грамматические и стилистические особенности однокоренных параллельных прилагательных с различной аффиксальной частью в современном узбекском языке, Автореф. дис... канд. филол. наук. -Ташкент: 2000. -28 с.

F.Najmiddinov nomzodlik dissertatsiyasida belgi bildiruvchi adyektiv leksemalarning semalarini aniqlab, ularning to'liq tasnifini keltirib o'tadi. Ishda adyektiv leksemalar shartli ravishda empirik sifatlar va rasional sifatlarga ajratilgan. Empirik sifatlar ishda quyidagi mikroma'no guruhlariga bo'lingan: a) ko'rish orqali ifodalangan sifatlar: *qora, yashil, binafsha, shaftoli rang* kabi; b) eshitish orqali ifodalangan sifatlar: *baland, past, yo'gon*; d) hid ma'nolarini ifodalovchi sifatlar: *badbo'y, qo'lansa, sassiq, xushbo'y*; e) badan va tern a'zolari orqali sezish ma'nolarini ifodalovchi adyektiv leksemalar: *nam, ho'l, issiq, qaynoq*; f) odam muskul a'zolari orqali seziladigan ma'nolarni ifodalovchi sifatlar: *yengil, ozir, qattiq*; g) bir necha sezgi organlari orqali ifodalangan sifatlar: *go'r, xom, pishiq* kabi. Ishda ratsional sifatlar ham o'z navbatida to'rt guruhga ajratib tahlil qilingan: a) inson sifat va xususiyatlarini ifodalovchi adyektiv leksemalar: *tejamkor, tantanali, iqtidorli, keksa*; b) hayvon sifat va xususiyatlarini ifodalovchi adyektiv leksemalar: *yirtqich, zotdor, zotli*; b) narsa va predmet sifatlarini ifodalovchi adyektiv leksemalar: *zaharli, mustahkam*; d) odam va hayvon sifatlarini ifodalovchi adyektiv leksemalar: *chiroyli, bejirim* kabi¹. Ishda adyektiv leksemalarda tasniflangan tushunchaviy leksik-grammatik va subyektiv-modal yo'nalishlarga birlashgan 17 turdagi semalarning bir-birlariga munosabati semalararo munosabatni tashkil etishi aniqlangan, bu semalararo munosabatlar oppozitiv, konversiv, sintagmatik, diffuziyali, implikasion kabi turlarda mavjud bo'lishi ko'rsatib berilgan

Sifatlar obyektiv borliqdagi narsa-predmet, harakat-holat kabilarning muayyan belgi-xususiyatini ifodalaydi, shu bilan birga ayrim holatlarda presuppozitsiya hisobiga yashirin axborot ifodachisiga aylanadi. Sifatlarning o'zi bog'langan uzv bilan birgalikda presuppozitsiyani ifodalashga xoslanishi quyidagi holatda yuz beradi: nutqda tejash tamoyili asosida sintaktik strukturada moddiy shakllanmagan yoki tarkibiy qismi tushirib qoldirilgan gap uzvining mazmunini tiklash, unga ishora qilish vazifasi sifatli qurilma zimmasiga yuklatiladi. Buning

¹ Нажмиддинов Ф. Сифатларнинг асосий маъно гуруҳларини ўрганишда ўқувчиларнинг ижодий ишлари // Тил ва адабиёт таълими, 2000, № 5. - 15-17-б.

natijasida sifatli qurilma gapda bevosita aks etmagan axborotning yashirin ifodasi – presuppozitsiyaga ishora qilish imkoniga ega bo‘ladi va presuppozitsiya signaliga aylanadi.

Sifatlarning gapda nutq vaziyati bilan bog‘liq tarzda presuppozitsiyani ifodalashi quyidagi lisoniy omillar asosida amalga oshadi:

a) sifatlarning lug‘aviy ma’no komponentlari asosida gapda qo‘shimcha axborotni ifodalashi asosida;

b) sifatlarning inson anatomik holatini ifodalashi orqali muayyan holatini ifodalovchi qo‘shimcha axborotni ifodalashi asosida;

b) sifat predmetning tashqi belgilari, qiyofasini ifodalash orqali uning muayyan holatiga ishora qiluvchi qo‘shimcha axborotni shakllantirishi asosida;

v) sifatlarning predmetning tabiiy asosiga ishora qila olishi asosida;

g) sifatlarning antonimik munosabati asosida presuppozitsiya signaliga aylanishi;

d) yasama sifatlardagi yasovchi qo‘shimchalarning grammatik ma’nosi asosida;

b) bir holatdan boshqa holatga o‘tish belgisini aks ettiruvchi sifatlarning pragmatik vazifasi.

Dissertatsiyada qayd etilgan har bir holat xususida mulohaza yuritamiz.

Ko‘p hollarda gapda sifatlarning lug‘aviy ma’nosi orqali gapda muayyan presuppozitsiyaga yo‘l ochiladi. Masalan, *rahmatli* so‘zi «*Xudoning rahmatiga loyiq kishi*»¹ lug‘aviy ma’nosini ifodalaydi. Bu so‘z vafot etgan kishilarga nisbatan qo‘llaniladi. Nutqda *rahmatli* so‘zining lug‘aviy ma’nosi asosida yashirin propozitsiya ifodalanadi. Masalan, «*Rahmatli dadam gap yer edilar* » (A.Qahhor .«Dahshat») gapida belgi subyektini tavsiflab kelgan *rahmatli* so‘zi o‘zi bog‘lanib kelgan *otam* so‘zi bilan shaxsning bu dunyodan o‘tganligi to‘g‘risidagi «*Otam vafot etgan*» presuppozitsiyasiga yo‘l ochadi.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 60000 сўз бирикмаси / Ақобиров Б.Ф., Алиқулов Т.А., Иброҳимов Б.И., Зуфаров Б.З., ва бошқалар. - Москва: Рус тили, - 1981. Т.1. / А. - Р. - Б. 618.

Ba'zan urf-odatni anglatuvchi sifatlar ham presuppozitsiyaga ishorani yuzaga keltiradi. Jumladan, *chilla* so'zi *bola tug'ilgan yoki nikoh to'yidan keyingi qirq kunlik davrni*¹ anglatadi. Bu so'z shu davrni o'tovchi ona, go'dak va kelinga nisbatan *chillali* shaklida qo'llanadi. Masalan: *Ertasiga chillali kelin Burgutning uchastkasiga ...keldi.* (S.Ahmad. «Cho'l burguti»)

Keltirilgan ushbu misoldagi *chillali* so'zi presuppozitsiyaga ishora qiladi. Shu sababli ayni gapda «*Kelin bo'lganiga qirq kun bo'lmadi*» propozitsiyasi yashirin ifodalanadi.

Mana bu misolda esa *chilla* so'zining hayvonlarga nisbatan ham qo'llanishi va bu so'z orqali hayvonning boshqa xususiyatlarini ham tinglovchiga yetkazish istagi yotganini payqash qiyin emas. Masalan: "*Chillashir buzoqlarni haydab o'tdi*" . *chillashir* so'zi orqali esa buzoqning hali yangi tug'ilganini, kichik va nimjon ekanligini, shuningdek, boquvchining, ya'ni qo'ychivonning hali katta qo'y podalarini boqishga tajribasi yo'qligini bildiradi.

Shuningdek, holatni ifodalab keluvchi sifatlar ham, uz navbatida, shu sifatga oid yashirin bir nechta xulosalarni bildiradi. Masalan: *Bu suz unga qanday ta'sir qilganini faqat boshqorong'u xotinlar biladi.* (A.Qahhor. "Tanlangan asarlar") «Boshqorong'u»lik homilador ayollarda uchraydigan holatlardan biri bo'lib, bunda ayolning homiladorligidan tashqari, biror narsaga nisbatan moddiy ehtiyoji ortganligini nazarda tutadi.

Hayotning borligin va azalligin,

Go'dak xayolimga chizib o'tardi.(S.Zunnunova. "Tomchilar")

Go'dak so'zi orqali shoira ikki xil presuppozitsiyani :

- 1) Go'dakdek sof tasavvurimda demoqchi bo'lsa;
- 2) Go'daklik chog'imda ham degan ma'noni uqish mumkin.

Birinchi xulosaga izoh sifatida aytish mumkinki, go'daklik paytda insonning tuyg'ulari sof, beg'ubor bo'ladi. Bu vaqtda kishining hayot va borliq haqidagi tushunchalari ham shu qadar musaffo, tiniqligi bilan qadrli. Shoira she'rdagi badiiy hamda ijobiy bo'yoqdorlikni oshirish maqsadida ayni shu sifatdan foydalanadi.

¹ Ko'rsatilgan lug'at. T. 2. - B. 368.

Chakkasiga qizil gul taqib


Dilbar keldi, go‘zal may keldi.(S.Zunnunova.”Lola”)

Ushbu misrada qo‘llangan sifatlar may oyining borliqqa ta‘sirini, go‘zalligini ma‘shuqa obraziga, lo‘bar qizga qiyoslay bilish bilan presuppozitsiyani hosil qiladi. She‘rdagi ohangdorlik va jozibani oshirish maqsadida fasl ichidagi oyga insonga xos nozik tuyg‘ularni, tashqi ko‘rkamlikni uyg‘unlashtiradi. Aslida chakkasigagul taqish faqat insonga xos fazilat. Bu bilan bahor faslidagi may oyini yigit ko‘ngliga olov yoqqan qizni visol ilinjida kutgandek odamlar oshiqib kutadi, degan axborotni ifodalamoqchi bo‘ladi.

Umuman olganda, o‘zbek tilshunosligida sifat so‘z turkumi har jihatdan jiddiy o‘rganilgan. Biroq sifatlar shu kunga qadar lingvokulturologik aspektda tekshirish obyekti bo‘lgan emas. Sifatlarning lingvokulturologik imkoniyati muayyan matn, nutqiy vaziyat, til egalarining tashqi olam haqidagi umumiy bilimlari va til ko‘nikmalari kabi omillar bilan bog‘liq holda tekshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

1.2-§. Sifat ma‘no turlarining talqini va tavsifi

Predmetning ma‘lum bir belgisini bildirish xususiyatlariga ko‘ra sifatlar bir necha turga bo‘linadi:



1.2.1-rasm. Sifat ma'no turlarining guruhlanishi.

Sifatlar semantik ko'lamida konnotatsiyaning voqelanishi quyidagicha tahlil qilingan:

1. Rang-tus semali sifatlarda konnotatsiya.
2. Shakl-hajm semali sifatlarda konnotatsiya.
3. Maza-ta'm semali sifatlarda konnotatsiya.
4. Xil-xususiyat semali sifatlarda konnotatsiya.
5. Payt semali sifatlarda konnotatsiya¹.

So'z sememalari o'z semalar tarkibiga ega bo'ladi. Mana shu tarkibiga ko'ra so'zlar ma'lum valentliklarni beradi. So'zlar valentliklar asosida birikmaga kirishadi, ya'ni birikma so'z valentligini yuzaga keltirgan biror semani namoyon etishda rol o'ynaydi. So'z bir necha birikmalar qurshovida o'z ma'nosini namoyon etadi. Bu sifatlarga ham taalluqlidir. Quyida sifatlar sememasini reallashtiruvchi birikmalar, qurilmalar yuzasidan fikr yuritish mo'ljallangan. Buning uchun sifatlarning ma'lum arxisema bilan umumlashgan maydonlarini ajratib olish va ularni integral semalar asosida umumlashuvchi kichik maydonlarga ajratish, har bir

¹ Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив birlikларнинг коннотатив аспекти. – Тошкент, 1999. – Б. 96.

sifat sememasining differensial semasini aniqlagan holda, sifat sememalarining har bir semasini aniqlovchi misollar berish yo‘li haqida fikr yuritamiz.

Xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar, odatda insonga nisbatan qo‘llanilsa-da, ba’zan jonsiz predmet, voqelikka nisbatan ham ishlatiladi.

1.2.1-jadval.

Insonga xos xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar		
Ijobiy xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar	Salbiy sifat xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar	Neytral xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar
muloyim, mehribon, yuvosh, xushfe‘l, xushchaqchaq, xushmuomala, odobli, vijdonli, rostgo‘y, insofli, nozikta‘b, oqko‘ngil, g‘ayratli, chapdast, chaqqon, uddaburon, mohir, abjir, qo‘rqmas, qat‘iy, jasur, mard, botir, sheryurak, dovyurak, mag‘rur, ziyrak, mo‘min, sipo, o‘ktam, sodiq, pok, asl, ozoda, sof, yaxshi, saxiy, dadil	zolim, nokas, toshbag‘ir, shafqatsiz, quv, ayyor, muttaham, g‘ayir, tannoz, takabbur, o‘jar, xudbin	dovdir, loqayd, sho‘x, mahmadona, sinchkov, mag‘rur, indamas, o‘jar, shaddod, to‘pori

Muloyim [a. ملائم - mos, muvofiq, qulay; odobli, xushxulq] 1 Qo‘lga yumshoq urinadigan, mayin. *Muloyim teri. — Xoljuvon oyim... badanginalari muloyim. “Hasanxon”.*

2 ko‘chma. Insonga yoqimli ta’sir etadigan, yumshoq tabiatli, muloyim shaxs va narsalarga nisbatan ishlatilgan. J.Abdullaxonov, Oriyat. *Muhiddin Yulduzxonning muloyim tovushida o‘z qalbidagi singari ma’noni sezdi.* R.Fayziy, Cho‘lga bahor keldi.

3 ko‘chma. Ushbu sifat holat belgisini ifodalab, konsept sifatida xatti-harakatlari juda ham yoqimli, insonga huzur baxsh etadigan shasni ifodalashda ham qo‘llanilgan. M.Xayrullayev, Tilla marjon. *Narigi qo‘nishdagi bosh cho‘pon*

dadasini tanir ekan, parvona bo'ldi bechora. Xotini ham bir muloyimki.
S.Anorboyev, Oqsoy.

Odil Yoqubov asarlarida ham ushbu muloyim stereotipi ijobiy ma'noda ishlatilgan: – *Shu payt domlani*ning “*Salom, Muqaddasxon!*”, – degan **muloyim** ovozini, so'ngra qizning sekingina: “*Salom!*”, – deb javob berganini eshitib, *burilib qaradim.* (“*Muqaddas*”, 3-b.)

– *U ko'k qashqa bedovining boshini qo'yib, qizni quvib yetgisi, uning ochiq yuziga, serkiprik bo'ta ko'zlariga tikilib, yonma-yon ketgisi keladi.* (“*Ko'hna dunyo*”, 228-b.)

Xudbin belgi ifodalovchi leksema salbiy konseptni bildirib, faqat o'zini o'ylaydigan, kibrli, manman shaxslarga nisbatan ishlatilgan. – *Yo, tavba! Nahot, boya tong chog'i qilgan pok niyati, ko'nglidagi xudbin istaklarni jilovlab, sho'rlik qizni kelin qilish orzulari ko'kka borib yetmadi?* (“*Ko'hna dunyo*”, 462-b.).

Sho'x [f. شوخ - go'zal yor, ma'shuqa, o'ynoqi qiz]. Hamma vaqtini o'yin bilan o'tkazadigan, hazil-mutoyibani xush ko'radigan, quvnoq, xushchaqchaq; o'ynoqlab tez harakat qiladigan; o'ynoqi shaxslarga nisbatan neytral holatda ishlatilgan: *Faqat o'qtin-o'qtin urush sovuq nafasini purkagan kunlarda sho'x kulgular faryod bilan almashib, dashtni zir titratadi.* “*Er boshiga ish tushsa*”, 45-bet) // – *Ularning yum-yumaloq, kulcha yuzlari ochiq, quralay ko'zlari sho'x chaqnab turar, yurganda sochlaridagi kumush ziynatlari ajib ovoz chiqarib jaranglar, bunga muloyim kulgulari qo'shilib, Abu Shilqimning yuragiga jaz-jaz tegardi.* (“*Ko'hna dunyo*”, 96-b.).

1.2.2-jadval.

Predmet (narsa, hayvon, jonivor) holati, hodisa va shu kabilarning xarakter-xususiyatini ifodalash uchun qo'llanuvchi sifatlar	
hayvon, jonivorlarning xarakter-xususiyatini ifodalash uchun qo'llanuvchi sifatlar	narsa-predmetlarning xarakter-xususiyatini ifodalash uchun qo'llanuvchi sifatlar
xonaki, asov, sun'iy, tabiiy, qimmat, arzon	dolzarb, muhim, dabdabali, tashvishli, sun'iy, tabiiy, qimmat, arzon

Muhim – kerakli, ahamiyatli; jiddiy. Alohida ahamiyatga ega bo'lgan, ahamiyat jihatdan birinchi darajali. – *Biroq Piri Bukriy degan bu keksa ayg'oqchi doim **muhim** xabarlar keltirar, Malik ul-sharob atalmish anov shakkok shoir mayxonasida bo'ladigan nojo'ya yumushlar, saltanatga qarshi qaratilgan ig'vo gaplarni oqizmay-tomizmay yetkazib turishda bebaho edi!* (“Ko'hna dunyo”, 84-b.)

1.2.3-jadval.

Kishi va predmet xarakter-xususiyatini birdek ifodalash uchun qo'llanuvchi sifatlar	
kishining xarakter-xususiyatini ifodalash uchun qo'llanuvchi sifatlar	narsa-predmetning xarakter-xususiyatini ifodalash uchun qo'llanuvchi sifatlar
ajoyib, yaxshi, yomon, zo'r, chidamli	ajoyib, yaxshi, yomon, zo'r, chidamli

Yaxshi – ijobiy sifatga ega bo'lgan, biror talabga to'la javob beradigan, kishiga yoqadigan, ma'qul bo'ladigan shaxs yoki narsa-predmetga nisbatan qo'llaniladi. – *Allohga shukur! – deb kulimsiradi u. – Rang-ro'yingiz **yaxshi**, amiri buzrukvor!* (“Ko'hna dunyo”, 338-b.) // *Nechun? – dedi Abu Tohir, kinoyali*

kulimsirab. – Harqalay, **yaxshi** niyat uchun emasdur, amirim! (“Ko‘hna dunyo”, 341-b.).

1.2.4-jadval.

№	Xususiyat bildiruvchi sifatlarning tuzilishi jihatidan turlari	Xususiyat bildiruvchi sifatlari	Matnlardan misollar
1.	Xarakter-xususiyatni bildiruvchi sodda sifatlari	dadil, garang, go‘l, daydi, dangasa, jo‘n, zab, zakiy, zukko, ziyrak, lalmi, mahmadona, mechkay, merov, mudhish, muttaham, muqaddas, nodir, nodon, noyob, no‘noq, odil, odmi, oddiy, ojiz, olifta, puch, samimiy, tajang, tanbal, tansiq, tanqis, tentak, teran, tuyg‘un, tetik, yovvoyi, maxfiy, to‘pori, ulgurg‘i, xokisor, shallaqi, topag‘on,	– Beruniy shogirdining hayrat bilan porlagan ko‘zlariga tikilib, miyig‘ida bir kulib qo‘ydi: “Yo‘q, ilmda zukko bu yigit bu dunyo yumushlari bobida hanuz go‘dak, ona suti og‘zidan ketmagan ma’sum go‘dak!” (“Ko‘hna dunyo”, 45-b.) // – Abu Ali garang. U ham ko‘sa yasovulga o‘xshab dag‘-dag‘ titraydi, biroq tiliga hech bir kalima kelmaydi. (“Ko‘hna dunyo”, 230-b.) – “Qoramtir ayol yuziga upa surtsa... qora qozonga un chaplanganday bo‘lar ekan. Aqlli xotin, nechuk bunga farosati yetmaydi?” (“Ko‘hna

		chopag'on, qopag'on; aqli, kuchli, yeyishli, ichishli, aloqador, aybdor, manfaatdor, bedin, beg'ubor, noumid, noinsof, noo'rin; nomard, noma'lum, nomunosib, kurashchan, yashovchan, unutuvchan, erinchoq, kuyinchak, tortinchoq, qizg'anchiq, toparmon, bilarmon, yeyarmon, shartaki, jirtaki, yig'loqi, arzirli, achinarli, zerikarli, maqtarli, ajablanarli, yetarli, tushunarli, chiyildoq, bijildoq, dirildoq, akildoq,	<i>dunyo''</i> , 275-b.).
--	--	--	---------------------------

		ilmiy, shaxsiy, imloviy; taxminiy, aqliy, ommaviy, qozoqi, qishloqi, xalqparvar, insonparvar, vatanparvar, badaxloq, badhazm, olamshumul, jahonshumul, gapdon, bilimdon, dilkash, hazilkash	
2.	Xarakter- xususiyatni bildiruvchi qo‘shma sifatlar	dilorom, dilozor, kafangado, otashnafas, xomkalla, sho‘rpeshona, kaltafahm, shirinsuxan, sho‘rtumshuq, balandparvoz, otabezori, hozirjavob, kamgap, kamsuxan, kamsuqum, kamxarj, cho‘rtkesar,	– <i>Shundan keyin olomonga qarab, “toshbo‘ron qilinglar bu iymonsizni!” deb amr qildilar. Ammo rahmdil avom, garchi Abul Hasanakni yomon ko‘rsa ham, unga tosh otishni istamadi. (“Ko‘hna dunyo”, 475-b.) // – Saroy oldidagi maydonda sultoni salotinning shaxsiy g‘ulomlari bo‘lmish yetti yuz suvori saf tortdi. (“Ko‘hna dunyo”, 391-b.)</i>

		yebto‘ymas, o‘zboshimcha, tilyog‘lama, gadoytopmas, tinchliksevar, o‘zbilarmon, ikkiyuzlamachi, ochofat, parishonxotir, zabardast, nontepki, nonko‘r, rahmdil, sheryurak, qattiqqo‘l, ichakuzdi, ilikuzildi, ishyoqmas, ertapishar	
3.	Xarakter- xususiyatni bildiruvchi juft sifatlar	aql-hushli, pishiqpuxta, telba- teskari, mo‘min- qobil, ezma- churuk, tepsa- tebranmas, dali- g‘uli, bo‘sh-bayov, toparman- tutarman, yengil- yelpi	– Allomalarga telba- teskari masalalar berib, ulardan dono javoblar kutguvchi bu telba hokim!.. (“Ko‘hna dunyo”, 219-b.) // – Savdogar shunday berahm- beshafqat ekanki, otasining oti yo‘l azobiga dosh berolmay piqilib qolganida, o‘lgan otining egar-jabduqlarini ham qulining yelkasiga yuklagan...

			(“Ko‘hna dunyo”, 133-b.)
--	--	--	--------------------------

Dunyo milliy manzarasining shakllanishida odamlarning yashash joyi, ijtimoiy joylashuvi, tarixiy voqealari va din bevosita o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Olamning milliy manzarasi rivojida millatning tarixiy rivojlanishi muhim omildir. Ana shunday rivojlanish jarayonida milliy o‘ziga xos axloqiy qarashlar va me‘yorlar o‘zgaradi. Chunki har bir davrda alohida urf-odatlar, ijtimoiy an‘analar va qadriyatlar shakllanadi, ular shunga ko‘ra, xalqning lingvistik ongida o‘z aksini topadi. Inson ongida konseptosfera tushunchasi so‘zning semantik mazmunidan ko‘ra kengroq tushuncha bo‘lib, o‘zida millatning madaniyati, san‘ati, adabiyoti va tarixiy o‘tmishini mujassamlashtirgan tushunchalar yig‘indisidir.

Holatni ifodalovchi sifatlar shaxsga ham, jonsiz narsa-predmetga nisbatan ham, vaziyatga nisbatan ham belgini bildiradi.

1.2.5-jadval

№	Holat bildiruvchi sifatlar	Matnlardan misollar
1.	abgor, alag‘da, baxtiyor, bo‘liq, vayron, voqif, gavjum, giryon, dabdala, yopiq, issiq, iliq, kir, ko‘hna, luchchak, mal‘un, marhum, mast, mashhur, mosuvo, muallaq, mulzam, muntazir, mushtoq, muhtoj, obod, ozod, osoyishta, osuda, pajmurda, palag‘da, paxmoq, pachoq, pinhon, pokiza, semiz, sovuq, sokin, so‘lg‘in, tayyor, shay, toza, tarang, tashna, to‘q, farovon, xom, xarob, xasta, xafa, xijil, xomush, xor, xursand, shalabbo, eski, qaram, qizg‘in, ho‘l	– <i>Malik ul-sharob, boshida kulohsimon eski qalpoq, egnida eski bo‘lsa ham gard yuqmagan toza bo‘z yaktak, shoirona to‘zg‘igan soqol-mo‘ylovlarini tutamlab, mayxona ahlining betartib bahs-munozaralariga jimgina quloq solib o‘tirarkan, ko‘z oldida lop etib ustod Abulqosim Firdavsiy keldi.</i> (“Ko‘hna dunyo”, 8-b.)

Shakl-ko‘rinish sifatlari shaxs yoki voqelikning ko‘rinishini ifodalab keladi.

1.2.6-jadval.

№	Shakl-ko‘rinishni bildiruvchi sifatlar tuzilishi jihatidan turlari	Shakl-ko‘rinishni bildiruvchi sifatlar	Matnlardan misollar
1.	Shakl-ko‘rinishni bildiruvchi sodda sifatlar	novcha, yassi, uzunchoq, cho‘zinchoq, qiyshiq, do‘ng, tekis, do‘ndiq, qabariq, botiq, jingalak, jikkak, lo‘nda, lo‘ppi, miqti, silliq, g‘adir-budir, egri, dumaloq, yapaloq, aylana yassi, dumaloq, do‘ng, tekis, dumboq, do‘ndiq, baland, past, jingalak, jikkak, lo‘nda, lo‘ppi, miqti, egri, adil (qomat)	– Azaldan novcha, bo‘ydor odam, u xuddi ichini qurt yeb, qurib qolgan ulkan terakni eslatardi. (“Ko‘hna dunyo”, 40-b.) – Malik ul-sharob, tekis yo‘lakda qoqinib-surinib borarkan, uni kutayotgan qiynoqlar to‘g‘risida emas, hamon Bobo Xurmoning so‘zlari to‘g‘risida o‘ylardi. (“Ko‘hna dunyo”, 291-b.)
2.	Shakl-ko‘rinishni bildiruvchi qo‘shma sifatlar	jimjimador, ignali, yig‘iq, jilvali, gajimli	– So‘zimni qulog‘ingga quyib ol, betavfiq! – dedi past, tahdidli tovushda. (“Ko‘hna dunyo”, 290-b.)

3.	Shakl-ko‘rinishni bildiruvchi juft-takror sifatlar	<i>past-baland binolar, kalta-kulta paxtalar, yirtiq-yamoq to‘n, katta-kichik tugunlar, yum-yumaloq tosh, yakkam-dukkam soqolli</i>	– <i>Azaldan juda bo‘ydor, qora, qotmadan kelgan sulton, go‘yo burungidan ham cho‘zilgan, go‘yo yana sal cho‘zilsa, tojdor boshi shiftga tegardi, keng-keng yuzi xuddi sariq charmdan yasalgan niqobga o‘xshar, faqat ko‘zlari... (“Ko‘hna dunyo”, 70-b.)</i> – Uning tor-keng peshonasi tirishib, yuzida ko‘pdan beri yuragini kemirayotgan chuqur bir iztirob aks etdi. (“Ko‘hna dunyo”, 341-b.)
----	--	---	--

Rang-tus bildiruvchi sifatlar rang yoki tusni ifodalab keladi.

1.2.7-jadval.

№	Rang-tus bildiruvchi sifatlarining intensiv formalari	Rang-tus bildiruvchi sifatlar	Matnlardan misollar
1.	rang-tusning normal holatidan ortiqligi	qip-qizil tarvuz, sap-sariq ipak	– <i>Chol Qosimovning nomini tilga olishi bilan Mahkam akaning qip-qizil semiz yuzidagi</i>

			<i>tabassum so‘ndi, o‘zi ham qandaydir bezovtalanib qoldi (“Ota izidan”, 86-b.)</i>
2.	rangning ochiqlik, tiniqlik holatlari	ko‘m-ko‘k osmon, qip-qizil baxmal, sap-sariq bo‘yoq	– Niholning ko‘m-ko‘k yaproqlari orasida uch-to‘rt qizil gul cho‘g‘dek yonardi (“Ota izidan”, 32-b.)
3.	hissiy-ta‘siriy ma‘no	qop-qora osmon, ikki ko‘zi qip-qizil	– Oldinda yam-yashil bir yaylov ko‘zga tashlandi. (“Ota izidan”, 39-b.)

Maza-ta‘m sifatlari asosan yegulikka nisbatan ishlatilib, uning ijobiy yoki salbiy ma‘nosini ifodalaydi.

1.2.8-jadval.

№	Maza-ta‘mni bildiruvchi sifatlar tuzilishi jihatidan turlari	Maza-ta‘mni bildiruvchi sifatlar	Matnlardan misollar
1.	Maza-ta‘mni bildiruvchi sodda sifatlar	shirin, achchiq, nordon, chuchuk, chuchmal, sho‘r, taxir, kakra, laziz, talx, talxa, achimsiq, tuzsiz, mazali, bemaza, bamaza,	– Ular uyni shirin va o‘tkir hidlarga to‘ldirib ikki laganda osh ko‘tarib kirganlarida uyqudan turgan Saodat Lyudmila Grigorevna bilan Yunus Rajabovichning o‘rtasida o‘tirar, ular nima to‘g‘risidadir jiddiy gaplashmoqda edilar. (“Ota izidan”, 130-b.)

2.	Maza-ta'mni bildiruvchi qo'shma sifatlar	xushta'm, xushxo'r	– Olam esa chindan ham go'zal, ovloq tog'largacha cho'zilgan qir va adirlar yamyashil, gurkirab o'sgan yovshan, shuvoq, kiyik o'ti va yovvoyi bedalar orasida mitti-mitti chitirgullar, nafarmon rang no'xataklar, binafsha va chuchmomalar yal-yal yonar, o'tlar orasida ko'zga ko'rinmas qushlar sayrar, havoni yalpiz, kakra, shuvoq va yana allaqanday giyohlarning xushta'm , xushbo'y hidi tutgan edi. (“Ko'hna dunyo”, 125-b.)
3.	Maza-ta'mni bildiruvchi juft-takror sifatlar	shirin-shakar, zahar-zaqum, achchiq-chuchuk, asal-qand, shirin-shirin, achchiq-achchiq	– Lekin yalpiz solingan tandir somsa asaldan ham shirin-shirin , suzma og'izda erib ketar, hatto, arpa nonni ham yegan sayin yegisi kelardi kishi. (“Ko'hna dunyo”, 140-b.)

Hajm-o'lchov, o'rin va paytni bildiruvchi sifatlar predmetning o'lchovi, umuman, ko'lamini bildiradi.

1.2.8-jadval.

№	Hajm-o'lchovni bildiruvchi	Hajm-o'lchovni bildiruvchi	Matnlardan misollar
---	----------------------------	----------------------------	---------------------

	sifatlar tuzilishi jihatidan turlari	sifatlar	
1.	Hajm-o'lchovni bildiruvchi sodda sifatlar	keng, tor, uzun, baland, chuqur, chog' (choqqina uy), yirik, jajji, hayhotday, ixcham, mayda, mitti, azim, muazzam, mo'jaz, katta, kichik, og'ir, vazmin, yengil, so'ngsiz, bepayon, tubsiz (ummon), teng, ulkan, ulug' sayoz	– <i>Tosh yo'l baland qirga chiqib, yana pastga, vodiyya qarab tusha boshladi. (“Ota izidan”, 39-b.)</i>

Xulosa qilib aytganda, sifatning har bir semantik guruhlanishini Odil Yoqubov asarlari tahlil qilar ekanmiz, sifatlarga xos bo'lgan kategoriyalarning barchasi ijodkor asarlarida qo'llanilishiga guvoh bo'ldik. Adib sifatning 9ta ma'noviy turini keltirar ekan, bu belgi bildiruvchi lingvokulteremalar orqali o'zbek xalqiga xos milliy-madaniy realiyalarni ko'rsatib bera olgan. Har bir holat bildiruvchi sifatlarni konsept, arxitep, steriotep sifatida talqin qiladi. Ushbu lingvokulturologik birliklar orqali asar qahramonlari ruhiyatida kechadigan istak-xohish, achinish, yalinish, g'azab, nafrat, shodlik, kechirimlilik kabi jis-tuyg'ularni aks ettiradi.

1.3-§. Holat bildiruvchi sifatlarning lingvomadaniy tavsifi

Hozirgi vaqtda tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri har qanday til birligining semantikasini to'liqroq ifodalashdir. “Tilshunoslikdagi taraqqiyot ideal

holda, agar til birliklari o'rtasidagi semantik munosabatlarning butun tarmog'i ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, tilning amaldagi tizimini nisbatan to'liq tavsiflashga olib kelishi mumkin", – deb yozadi G.V.Kolshanskiy¹.

Olamning lisoniy manzarasi dunyodagi turli tillar va ularning madaniyatlararo o'rni, til va muloqot usullari, til o'rganish va tillar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aks ettiradigan tushunchadir. Lisoniy manzara, shuningdek, tilning tarqalishi, uning rivojlanishi, dialektlar, lahjalar va til o'zgarishlari kabi jihatlarni ham o'zida namoyon etadi. Bu jarayonlar orqali tillar orasidagi aloqalar, o'zaro ta'sirlar va lingvistik xilma-xillik yuzaga keladi. Masalan, globallashuv jarayonida ba'zi tillar keng tarqaladi, boshqalari esa iste'moldan chiqib ketish xavfiga duch keladi. OLM badiiy adabiyot, san'at va ta'lim jarayonida tilning o'rnini belgilash orqali ham namoyon bo'ladi. Har bir til o'zida butun bir madaniyat va an'analarni aks ettiradi, shuning uchun ularning lisoniy manzarasi rang-barang va murakkabdir.

Qayt qilish lozimki, OLM muammosi lingvistika va milliy tilshunoslik fanlari oldiga birdek vazifalarni qo'yadi: umuman, olamning tilda aks etishi muammosi hamda milliy tilda olamning lisoniy in'ikosi chambarchas bog'liq tushunchalardir, har bir inson dunyoni, avvalo, o'z ona tili vositasida qabul qiladi, har bir tilde o'z lisoniy manzarasini shakllantiruvchi vositalarning o'ziga xos, takrorlanmas jihatlari borki, ular olamning umuminsoniy lisoniy manzarasini vujudga keltirishda tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi.

Konseptual lingvistikada keng tarqalgan OLM tushunchasi dunyo tilshunosligida muhokamalarga sabab bo'lib kelmoqda. Uning turli xil talqinlarini to'rtta yondashuvga asosan birlashtirish mumkin:

1. Kognitiv;
2. Psixolingvistik;
3. Lingvokulturologik;
4. An'anaviy.

O'z navbatida, ular uchta umumiy xususiyat asosida namoyon bo'ladi:

1. OLM va konseptosferaning to'g'ridan to'g'ri bog'liqligi;

¹ Колшанский Г.В. Контекстная семантика. – Москва, 1980. – С. 23.

2. OLMning umumiy xususiyatlari;
3. Til va OLM o'rtasidagi qat'iy determenizm.

Yondashuvlar xilma-xilligi va umumiy xususiyatlar mavjudligi olam lisoniy manzarasining yagona nazariyasini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

OLM inson markazli paradigm asosida qurilgan bo'lib, tilni inson omili bilan birga o'rganadi, tilni ong va madaniyat bilan yaqindan bog'liq holda ko'rib chiqadi. Ushbu tushunchaning qo'llanilish ko'lami uning mazmunini aniqlashtirish zaruriyatini inkor etuvchi illyuzion xarakterdagi ishonchni yaratadi, shuningdek, olimlar o'rtasida o'zaro tushunish illyuziyasini ham paydo qiladi. Turli mualliflar ushbu tushunchaga har xil mazmun kiritadilar, tadqiqotchilar esa "til tasavvuri" tushunchasining turli talqinlarini umumlashtirish va iloji boricha tasniflash masalasini ilgari suradilar.

"Language worldview" // "Til manzarasi" tushunchasi va OLMning tarkibiy qismi yuqorida keltirib o'tganimizdek, Uorf va Edvard Sepir gipotezasi bilan bog'liq, ammo hozirgi kunda ushbu tushunchaning hamma talqinlari tilning dunyoni bo'lish usuliga qo'yadigan ramka yoki to'r sifatida an'anaviy tushunchaga mos kelmaydi.

Olam manzarasi "kishining ongiga bog'lanmagan real yoki ehtimoliy voqelikka nisbatan subyektning fikri va bilimlar majmuyi", "borliq haqida jamoa (hamda guruh, individ) ongida shakllangan, bilimlarning tartibli ko'rinishi" sifatida ta'riflanadi. M.M.Mayakovskiy olam manzarasi tushunchasini quyidagicha tavsiflaydi: "olam xususiyatlarini uning sohiblari qanday anglasa, shu shaklda reprezentlovchi va rivojlanish bosqichidagi u yoki bu etnos vakili sifatida inson psixik hayotining barcha onlarini bir butun qilib birlashtiruvchi olamning global obrazi"dir. Bundan lingvomadaniy jamoa vakillarining bilimi, lisoniy kompetensiyasi va madaniy taraqqiyotiga mos ravishda olam manzarasi universallik va milliylik tamoyillariga ko'ra farqlanishi ma'lum bo'ladi. Olam etnolisoniy manzarasida gender, individuallik, ijtimoiy guruh, genetik yosh kabi kategoriyalarga tayangan holda olam manzarasi farqlanadi.

OLM masalasini rus tilshunosligida birinchi bo‘lib faol ravishda o‘rgangan olimlardan biri B.A.Serebrennikov bo‘lib, u insonning tilga ta‘sirini o‘rganish masalalarini yirik planda tadqiq qilgan. Vaqt o‘tishi bilan bunday global muammolar aniqroq masalalar kompleksiga aylandi, bu esa ushbu tushunchaning talqini va qo‘llanilish ko‘lamini yanada aniqlashtirishga sabab bo‘ldi.

Lingvokulturologiyaning dolzarb muammolaridan biri bu tilda o‘rnatilgan yaxlit konseptual dunyo rasmini inson ongida aks ettirish muammosi bo‘lib qolmoqda. Bu masala N.F.Alefirenko, Y.U.Apresyan, N.D.Arutyunova, O.V.Afanasyeva, N.A.Besedina, N.N.Boldirev, V.V.Vinogradov, I.M.Kobozeva, M.A.Krongauz, E.S.Kubryakova, J.Lakoff, R.Langakera, A.V.Polonskiy, Z.D.Popova, O.N.Proxorova, I.A.Sternin, L.Telme kabi rus va xorijiy tadqiqotchilarning asarlarida batafsil yoritib berilgan. Tushunchalarni o‘rganishda lingvokulturologik tadqiqotlar olimlar orasida juda mashhur bo‘lishiga qaramay, aniq metodologiya va turli fanlarda qo‘llaniladigan yetarli usullarning yo‘qligi sababli ularni to‘liq qoniqarli tarzda aniqlab bo‘lmaydi. Yondashuvning o‘zi va tadqiqot maqsadi bugungi kunda haqiqatan ham talabga ega va xalq madaniyatining barcha asosiy tushunchalari allaqachon tavsiflanganligini ko‘rsatadi. Ammo, afsuski, bu muammoni o‘zi hal qilmaydi, chunki sifat so‘z turkumining lingvokulturologik jihatlarini yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar soni hali kutilgan yuqori natijaga ega emas. Sifatlar zamonaviy rus Milliy korpusining ma‘lum bir leksik birliklarida ushbu sinfning ichki va tashqi xususiyatlari, aloqalari mavjudligi sababli ajratilgan. Ushbu sifatlarni ko‘rib chiqish har bir tildagi dunyo manzarasi nazariyasidan, zamonaviy tilshunoslik uchun eng muhim bo‘lgan kognitiv hodisalar va tushunchalar tipologiyasidan tashqarida bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbek tilshunosligida olamning lisoniy manzarasi muammosi xususida professor A.A.Abduazizov “OLM va uning parametrlarini o‘rganuvchi kognitiv tilshunoslik “o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan kognitiv fonologiya, kognitiv grammatika, kognitiv semantika” yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi” va OLM

paradigmasidagi konsept va soʻzning barcha hollarda semantik jihatdan voqelanishida aynan bu yoʻnalsihlarning oʻrni beqiyosdir”, – deya qayd etadi.

Oʻzbek tiliga xos OLM va konseptlarning tarjima asarlarida aks ettirilishi hamda olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi muammolari tadqiq etilgan asarlar ham koʻpchilikni tashkil etadi. Ushbu tadqiqotlarda ayni tarjima jarayonida milliy ong, mafkura va tilga xos konseptlarning oʻziga xos jihatlari namoyon boʻlishi va ularning boshqa tildagi ekvivalentlari bilan chogʻishtirish jarayonida konseptning milliy mentalitetga aloqador maʼno qatlamlari va qirralari kashf etilishi maʼlum. R.X.Shirnova toʻgʻri taʼkidlaganidek, tilshunoslik uchun olam haqidagi bilimning tilde aks etishi va ushbu bilimning shakllanishida tilning hissasi muhim hisoblansa, badiiy tarjimada olam milliy manzarasining tarjima tilida qayta yaratishda tarjimonning lisoniy va nolisoniy bilimi hamda mahorati muhim sanaladi.

Sh.T.Maxmaraimova tadqiqotida metaforani oʻrganishga lingvokognitiv-lingvomadaniy jihatdan kompleks yondashish natijasida olamning milliy lingvokognitiv tasvirida axloqiy-baholovchi psixik-mental birlik sifatiga ega boʻlgan teomorfik metaforalarning oʻz munosib oʻrni borligi nazariy jihatdan dalillangan va ularga lingvokulturemalar deb munosabat bildirilgan.

Keyingi yillarda olamning lisoniy manzarasi va oʻzbek tiliga xos konsept va konseptosferalar xususida olib borilgan tadqiqotlar orasida professor N.Mahmudovning “Tilning soʻz xazinasini va olamning lisoniy manzarasi” maqolasi alohida oʻrin tutadi. Ushbu maqolada antropotsentrik tilshunoslikdagi olam lisoniy manzarasining bevosita va bilvosita turlari, olamning kognitiv manzarasining shakllanishida tilning oʻrni, olamning lisoniy manzarasi milliy ongda yuzaga kelishi kabi muammolar tahlil etilgan. Shu bilan birga bu maqolada oʻzbek tilshunosligida keying yillarda olamning kognitiv va lisoniy manzarasi masalalari boʻyicha amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinadi va umumlashtiriladi.

Olim, avvalo, tilshunosligimizda va mamlakatimizdagi xorijiy tillar mutaxassislar orasida keying yillarda “kognitiv va konseptual “shov-shuv” yetakchilik qilayotganini” va buning natijasida tilshunoslar orasida OLM va

konseptosfera bo'yicha tadqiqotlarning avj olganini qayd etib o'tadi. Bu o'rinli tanqid bo'lib, haqiqatdan ham o'zbek tiliga xos umumiy OLM tamoyillari va parametrlari ishlab chiqilmagani holda tadqiqotchilarning turli mayda-chuyda masalalar bilan o'ralashib qolgani, ikkinchi darajali masalalar bilan shug'ullanilayotgani ma'lum.

Lingvomadaniy konsept boshqa tafakkurning tushunchalaridan (masalan, ssenariy, script, freym, obraz, stereotip) farq qiladi, chunki u qadriyat elementiga urg'u beradi. Konseptning markazida har doim urf-odat, an'analar turadi, chunki konsept madaniyatini o'rganishga xizmat qiladi va madaniyatning asosi aynan qadriyat prinsipi hisoblanadi.

Konsept ma'lum bir kuchli (ya'ni, qadriyat jihatidan ta'kidlangan) ong nuqtasi atrofida guruhlanadi, unda assotsiativ vektorlar tarqaladi. Tildan foydalanuvchilar uning eng dolzarb bo'lgan assotsiatsiyalar konseptning yadro qismini tashkil etadi, muhim bo'lganlari esa periferiya hisoblanadi. Konseptda aniq chegaralar yo'q, yadrodan uzoqlashgan sayin assotsiatsiyalar asta-sekin zaiflashadi. Konseptning markaziy nuqtasini faollashtiradigan til yoki nutq birligi konseptning nomi sifatida xizmat qiladi.

O'zaro bog'langan konseptlar tizimi konseptosferani hosil qiladi. Biz madaniyatning global konseptosferasini va uni tashkil etuvchi qismlarini ajratamiz, ularni lokal konseptosferalar deb atash mumkin.

Konseptosfera yoki olamning lisoniy manzarasi, til egalarining atrof-muhit haqidagi tasavvurlari va bilimlarining mental yig'indisi sifatida aniqlanishi mumkin. Konseptosfera virtual va potensialdir. U inson miyasi faoliyatining yagona, obyektiv jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarga ega. Konseptosfera tilda amalga oshadi va uning semantik makonini to'ldiradi. Bunday konseptosferaning aksini tilning dunyoqarashi deb atash mumkin.

Konseptosfera milliy jihatdan xoslangan bo'lib, bu aniq bir jamiyatning madaniy an'analari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Konseptosferaning idioetnik xususiyatlari emotsional-psixologik darajada namoyon bo'ladi va "milliy xarakter"ni – kommunikativ xulq-atvorning normalarini tashkil etadi. Shuningdek,

konseptosferaning milliy o'ziga xosligi lingvosotsiumning baholar to'plami va ularni amalga oshirish tamoyillarida aks etadi, ya'ni konseptosfera milliy mentallik bilan o'zaro ta'sir qiladi. Semantik darajada, konseptosferaning milliy xususiyatlari tilning leksik tizimida bir qator xususiyatlarning mavjudligi bilan aks etadi: idiomalar, lakunalar va boshqalar.

Konseptosferaning idioetnik o'ziga xosligi uning strukturasi va konseptlarning o'zaro tashkil etilishi va xususiyatlarida ham aks etadi.

Konseptosferani o'rganishda ma'lum bir jamiyatning tilini tahlil qilish alohida ahamiyatga ega, chunki madaniy merosning avloddan avlodga o'tishi, avvalo, til orqali amalga oshiriladi.

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog'liq yana bir masala sentensiyadir. Sentensiya axloqiy-ta'limiy xarakterdagi til birligi bo'lib, o'zida intertekstuallikni namoyon etadi¹.

Z.I.Saliyeva ingliz va o'zbek tillaridagi sentensiyalarning lingvokulturologik jihatlarini chog'ishtirma aspektda tadqiq qilgan hamda ijodkor asarlari misolida didaktema sifatida o'zgargan shaklda ifodalanishini intertekstuallikning bir ko'rinishi sifatida baholaydi².


Bugungi kunda "Til insonga olamni tanitadi", degan tushuncha o'rnida, "Til inson dunyoni qanday idrok etishini ko'rsatadi", deyish to'g'riroq deb qaralmoqda. Til – madaniyat ko'zgusi, real hayotni, insoniyatni, uning hayotini o'rab turgan jami mavjudlikni aks ettiribgina qolmasdan, til orqali millat o'zligini anglaydi, bu anglash mentaliteti, milliy xarakteri, turmush tarzi, an'analari, urf-odati, axloqiy normalari, qadr-qimmatini bilan uzviylikda kechadi. Bir vaqtning o'zida til oynasi orqali insonning hayot tarzi, fe'l-atvori, boshqalar bilan munosabati, muomala madaniyati, xulqi aks etadi. Ushbu omillar ko'p o'rinlarda milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangan holat sifatlarida voqelanadi, milliy-madaniy birlik til oynasida har bir insonning fikrlash tarzi, xayoloti, xatti-harakatlari bilan birlashib ketgan bo'ladi.

¹ Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика предложения в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2010. – 25 с.

² Saliyeva Z.I. Ko'rsatilgan tadqiqot. – Toshkent, 2010. – 25 b.

Mentalitet ma'nosiga ega bo'lgan sifatlar (mentalitet sifatleri) zamonaviy ingliz va rus tillari leksik birliklarining ma'lum bir sinfiga xos tashqi va ichki xususiyatlar va aloqalar mavjudligi, til tizimidagi o'ziga xos o'zni tufayli ajralib turishi haqidagi tadqiqotlar mavjud. Ushbu sifatleri ko'rib chiqish dunyoning lisoniy manzarasidan, leksik-semantik guruhlardan, leksik-semantik variantlardan, ichki shakldan, kognitiv hodisalar tipologiyasidan tashqarida mumkin emasligini isbotlaydi. Bu esa zamonaviy tilshunoslik uchun eng muhim semantik toifadir¹.

Holat sifatleri odatda, jonli hamda jonsiz mavjudotlarga nisbatan ishlatilgan. O.Yoqubov asarlarida kuzatilgan holat sifatlerini 9 semantik guruhga bo'lib, tasnif qildik.



1.3.1-rasm. Holatni ifodalovchi sifatlerin semantik guruhlanishi

Tabiiy holatni ifodalovchi sifatlarga o'zida mavjud bo'lgan, biror bir shaxs, narsa-predmet yoki holat ta'sir etmagan sifatlar kiradi. Masalan, dadil, chaqqon, mo'min, mo'minqobil.

Dadil konsept sifatida quyidagi konseptosferalarini o'zida birlashtiradi:

¹ Акопян К.В. Прилагательные со значением ментальности в системе английского и русского языков. – Москва, 2005. – С. 20.

a) dangal ish tutadigan qo‘rqib, hadiksirab o‘tirmaydigan; dovyurak: *Dadil bola. Dadil xotin. — Rahimberdi o‘ziga ishongan, dadil yigit edi, ishlab charchamasdi. X.To‘xtaboyev, Felyetondan so‘ng. Qadami, tovushi dadil. Har qanday mushkuldan tap tortmay, tikka qarshi boradigan dovyurak odam ko‘rinadi. A.Muxtor, Asarlar.*

b) Shijoat bilan to‘lib toshgan; jasurona, mardonavor, shaxdam. *Dadil qadamlar. — Xalq dadil boradi. Ayniqsa, xotinlar – onalar jasur. Oybek, Tanlangan asarlar. Tursunboy tog‘ qishlog‘i tomon jiddiy, dadil odim tashlab boryapti. “O‘zbekiston qo‘riqlari”. Sherimbek dadil borib, Bobur mingan bo‘z otning oltin bezakli yuganidan oldi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. Mehnat qilgan odam doim boshqalarning yuziga dadil qaraydi. T.Ashurov, Oq ot.*

*Yigirma yillik qo‘lbola sharob o‘z ishini qildi. Zum o‘tmay hozirgina g‘aroyib tuyulgan g‘aroyib fikr juda tabiiy, xatarli reja esa juda **dadil** va **mardonavor** rejaga aylandi. (“Ko‘hna dunyo”, 88-bet)*


d) Qo‘rqmay, ishonch bilan, bemalol, tortinmay. *Dadil javob. Dadil tanqid. — Uzoqdan bo‘lsa-da, Yo‘lchiga dadil qaraydi, ba‘zan yashirin iljayadi. Oybek, Tanlangan asarlar. Dadil tashlayotgan qadamlariga qaraganda, unda ikkilanishdan asar ham yo‘q. Gazetadan. – Nima yordam kerak, tortinmay, dadil murojaat qilavering, – dedi Boymirzayev. “O‘zbekiston qo‘riqlari”. Ma‘ruf Nazarov kinomatografiya, dramaturgiya sohalarida ham dadil qalam tebratyapti. X.Yodgorov, Hayot to‘lqinlari.*

*Beruniyni boshlab ketayotgan mushrif xuddi iskovuch itdek, hamma narsani oldindan sezardi, yiroqda odam qorasi ko‘ringan zahoti uning kimligini bilib goh navkarlarni pistirmaga boshlar, goh, aksincha, o‘z yo‘lida **dadil** davom etar, choparlar bilan salomlashib hol-ahvol so‘rashib o‘tardi. (“Ko‘hna dunyo”, 298-bet)*

e) Jismoniy, ma‘naviy jihatdan baquvvat; tetik, bardam. *Elmurod odamlar to‘lqinida Fotima bilan yonma-yon yurarkan, o‘zini har vaqtdagidan dadil va yengil sezdi. P.Tursun, O‘qituvchi. Shundan keyin Normat o‘zini yanada dadil sezdi. I.Rahim, Chin muhabbat.*

f) Moddiy jihatdan o‘zini tutib olgan; boy-badavlat. *Fermer xo‘jaligimiz bu yil ancha dadil bo‘lib oldi.* Gazetadan. **Hamyoni dadil** s.t. Serpul, puldor.

g) *ko‘chma* Eng muhim, dolzarb, zaruriy. ...eng dadil g‘oyalarni o‘rtaga tashlab, uni ro‘yobga chiqargan irrigatorlarning mardligi haqida hikoya qiladi. “O‘zbekiston qo‘riqlari”.



1.3.2-rasm. “Dadil” holat sifatining konseptosferalari


Chaqqon 1 sft. Epchillik bilan harakat qiladigan; chapdast. *Burgut – ancha yirik, chaqqon va kuchli qush.* “Fan va turmush”. *Qo‘shnisining chaqqon qizini ko‘z ostiga olib qo‘ygan edi.* “Yoshlik”.

Kalondimog‘ eshik og‘alari, chaqqon, serharakat yosh mahramlar, bakovullar, rang-barang kapalaklarday lip-lip uchib yurguvchi haram bekalarining yuzlariga tabassum, lablariga kulgu yugurgan, hammaning og‘zida oftobi olamga shifo keltirgan “hakimi hoziq Ibn Sino hazratlari”ning muborak nomi, allomayi zamon”ning mo‘jizakor doru darmonlari, ajalni daf etguvchi sehrigar muolajalari!.. (“Ko‘hna dunyo”, 344-bet)

2 rvsh. Tez, epchillik bilan. *U chaqqon kiyina boshladi.* “Yoshlik”. *Qizil chuvaklari bilan yumshoq bosib, chaqqon yelib xizmat qilmasa, o‘zini qayoqqa qo‘yishni bilmay qoladi.* A.Muxtor, Davr mening taqdirimda.

Bozori chaqqon q. bozor 2. Oyoq-qo‘li (yoki qo‘l-oyog‘i) chaqqon. Juda chaqqon; epchil. *Oq xalatli yumaloq oshpazning oyoq-qo‘li chaqqon.* “Sharq yulduzi”. *Oq sochli gapga chechan desam, qo‘l-oyog‘i ham chaqqongina bir kishi ekan.* X.To‘xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati. **Tili chaqqon** Yuz-xotir qilmasdan shartta gapiradigan; shartaki. *Zumradning qo‘li ham, tili ham chaqqon edi.* S.Siyoyev, Otliq ayol¹.

Qo‘l-oyog‘i chaqqon bu ozg‘in, qoramtir bolakayni hamma yaxshi ko‘radi, chunki u arablar rastasida yurib arab tilini, hindlar rastasida hind tilini, hatto, bidir-bidir so‘zlarini hech kim uqolmaydigan chin savdogarlarning tilini ham tez bilib oladi va bepul, beg‘alva tilmochlik qiladi. (“Ko‘hna dunyo”, 148-bet)



1.3.3-rasm. “Chaqqon” konseptining konseptosferalari

Jismoniy holat belgisi insonga nisbatan qo‘llanilib, uning jismoniy jihatdan mukammalligini bildiradi.

Kuchli 1 Jismoniy qobiliyati, kuch-quvvati nisbatan ortiq; baquvvat. *Kuchli yigit. — Mutal kuchli edi, ammo Otabek undan ham kuchli edi.* A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. *Sen mana shu oltinni ol... bir kunlik nari qishloqdan ikki ot ol, kuchli,*

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli, 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 737-738.

chopqir zotlardan bo'lsin. Hamza, Maysaraning ishi. G'ilay odam shamni tokchaga qo'yib, kuchli qo'llari bilan Ahmad Chalabiyning yoqasidan tutdi. Mirmuhsin, Me'mor.

2 Sog'lom va yaxshi rivojlangan. Yuragi kuchli. — Uning [Gulnorning] xayolida yolg'iz Yo'lhigina uchadi, fikran u bilan so'zlashadi, go'yo yigit... kuchli, keng ko'kragiga uning boshini olib erkalaydi. Oybek, Tanlangan asarlar.

3 fiz., tex. Katta quvvatga ega bo'lgan; quvvatli. Kuchli dastgoh. Kuchli mashina. — Hammasi laboratoriyada kuchli magnit maydon xossalari o'rganish uchun yasalayotgan... g'altak yaqinida turganda ro'y berdi. O.Mo'minov. Guvullar kuchli motor, Aylanar mashinalar. U.Hamdam.

Kutilmaganda momaqaldiraqday qaldiragan bu ovoz Ko'shki davlat qasrining yuksak tillakori peshtoqlariga urilib, o'n barobar kuchli aks sado berdi: — Adl-u haqiqatdur!.. Savobi azim nedur? ("Ko'hna dunyo", 117-bet)

Nimjon [f. چالچون - chalajon, chalao'lik, yarim jon] 1 Kuch-quvvati kam; zaif, nozik. U [Anzirat xola] oltmishlarga borib qolgan, nimjon, yuzi juda burishgan bo'lsa ham, qizil, tovushi mayin va yoqimli bir kampir edi. A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.

2 Zaif, nozik, hali o'zini tutib olmagan, yaxshi rivojlanmagan.

— Yo'-yo'-yo'q! Hech bir yomon niyatim yo'q! — Ali G'arib shosha-pisha piyolalarga may quydi, quyarkan, **nimjongina** momiq qo'llari titrab ketdi-yu, tillarang sharobdan bir necha tomchisi oppoq dasturxonga tomib, pushtirang nuqtalar qo'ydi. ("Ko'hna dunyo", 166-bet)

Ma'lumki, til sathi birliklarining asl mohiyati nutqiy qo'llanishda namoyon bo'ladi. Nutqiy qo'llanishda til birliklarining, xususan, ma'noli birliklarning tashqi olam xususida axborot berish, nutq egasining voqelikka bo'lgan modal, hissiy munosabatini namoyish etish kabi turli vazifalari yuzaga chiqadi. Til birliklari kontekst, nutqiy vaziyat, til egalarining tashqi olam haqidagi umumiy bilimlari va til ko'nikmalari kabi omillar bilan bog'liq holda qo'llanganda ularning vazifaviy imkoniyatlari yanada kengayadi. Bunday vaqtda til birliklarining kontekst, vaziyat,

til egalarining tashqi olam haqidagi umumiy bilimlari va til ko'nikmalari kabilar bilan bog'liq pragmatik vazifasi namoyon bo'ladi.

Sifatlar obyektiv borliqdagi narsa-predmet, harakat-holat kabilarning muayyan belgi-xususiyatini ifodalaydi, shu bilan birga ayrim holatlarda presuppozitsiya hisobiga yashirin axborot ifodachisiga aylanadi. Sifatlarning o'zi bog'langan uzv bilan birgalikda presuppozitsiyani ifodalashga xoslanishi quyidagi holatda yuz beradi: nutqda tejash tamoyili asosida sintaktik strukturada moddiy shakllanmagan yoki tarkibiy qismi tushirib qoldirilgan gap uzvining mazmunini tiklash, unga ishora qilish vazifasi sifatli qurilma zimmasiga yuklatiladi. Buning natijasida sifatli qurilma gapda bevosita aks etmagan axborotning yashirin ifodasi – presuppozitsiyaga ishora qilish imkoniga ega bo'ladi va presuppozitsiya signaliga aylanadi.

Sifatlarning gapda nutq vaziyati bilan bog'liq tarzda presuppozitsiyani ifodalashi quyidagi lisoniy omillar asosida amalga oshadi:

a) sifatlarning lug'aviy ma'no komponentlari asosida gapda qo'shimcha axborotni ifodalashi asosida;

b) sifatlarning inson anatomik holatini ifodalashi orqali muayyan holatini ifodalovchi qo'shimcha axborotni ifodalashi asosida;

d) sifat predmetning tashqi belgilari, qiyofasini ifodalash orqali uning muayyan holatiga ishora qiluvchi qo'shimcha axborotni shakllantirishi asosida;

e) sifatlarning predmetning tabiiy asosiga ishora qila olishi asosida;

f) sifatlarning antonimik munosabati asosida presuppozitsiya signaliga aylanishi;

g) yasama sifatlardagi yasovchi qo'shimchalarning grammatik ma'nosi asosida;

h) bir holatdan boshqa holatga o'tish belgisini aks ettiruvchi sifatlarning pragmatik vazifasi.

Urf-odatni anglatuvchi sifatlar ham presuppozitsiyaga ishorani yuzaga keltiradi. Jumladan, *chilla* so'zi *bola tug'ilgan yoki nikoh to'yidan keyingi qirq kunlik davrni* anglatadi. Bu so'z shu davrni o'tovchi ona, go'dak va kelinga

nisbatan *chillali* shaklida qoʻllanadi. Masalan: *Ertasiga chillali kelin darvoza oldiga chiqdi...* (“*Muqaddas*”, 56-b.)

Keltirilgan ushbu misoldagi *chillali* soʻzi presuppozitsiyaga ishora qiladi. Shu sababli ayni gapda “*Kelin boʻlganiga qirq kun boʻlmadi*” propozitsiyasi yashirin ifodalanadi.

Mana bu misolda esa *chilla* soʻzining hayvonlarga nisbatan ham qoʻllanishi va bu soʻz orqali hayvonning boshqa xususiyatlarini ham tinglovchiga yetkazish istagi yotganini payqash qiyin emas. Masalan: “*Chillashir buzoqlarni haydab oʻtdi*”. *Chillashir* leksemasi orqali esa buzoqning hali yangi tugʻilganini, kichik va nimjon ekanligini, shuningdek, boquvchining, yaʼni qoʻychivonning hali katta qoʻy podalarini boqishga tajribasi yoʻqligini bildiradi.

Holatni ifodalab keluvchi sifatlar ham, oʻz navbatida, shu sifatga oid yashirin bir nechta xulosalarni bildiradi. Masalan: *Bu soʻz unga qanday taʼsir qilganini faqat boshqorongʻu xotinlar biladi.* (“*Muqaddas*”, 74-b.) “Boshqorongʻu”lik homilador ayollarda uchraydigan holatlardan biri boʻlib, bunda ayolning homiladorligidan tashqari, biror narsaga nisbatan moddiy ehtiyoji ortganligini nazarda tutadi.

Goʻdak xayoliga kelgan narsasini qilardi. (“*Koʻhna dunyo*”, 162-b.)

Goʻdak soʻzi orqali ikki xil presuppozitsiyaga ishora qilingan:

- a) *Goʻdak*dek sof tasavvurimda demoqchi boʻlsa;
- b) *Goʻdak*lik chogʻimda ham degan maʼnoni uqish mumkin.

Birinchi xulosaga izoh sifatida aytish mumkinki, *goʻdak*lik paytda insonning tuygʻulari sof, begʻubor boʻladi. Bu vaqtda kishining hayot va borliq haqidagi tushunchalari ham shu qadar musaffo, tiniqligi bilan qadrli. Matndagi badiiy hamda ijobiy boʻyoqdorlikni oshirish maqsadida ayni shu sifatdan foydalanilgan.

Aslida, oq rangning ramziy maʼnoda xususiyatlari nihoyatda rang-barang. Masalan u gapda qoʻllanishi bilan insonning ruhiyatidagi salbiy holatni, azadorlikni, kasallikni, shuningdek, rozilik, qoʻllab-quvvatlashni ham bildiradi. Mazkur misolda *oppoq* soʻzi orqali shoira “*Menga toʻsqinlik qilmading*”, qoʻllab-quvvatlading degan presuppozitsiyani ifolaydi.

Sifatlar predmetning tashqi belgilari, qiyofasini ifodalashi orqali uning muayyan holatiga ishora qiluvchi qo‘shimcha axborotni shakllantirishi mumkin.

Quyidagi misolda esa *ajinli* so‘zi asosida presuppozitsiyaga yo‘l ochiladi: *U akasining ... ajinli peshanasiga tikildi. (“Muqaddas”, 42-b.)*

Ushbu gapda qo‘llangan *ajinli* leksemasi uning akasi peshanasida ko‘zga tashlanuvchi tashqi belgi haqida ma’lumot berish bilan birga, “*Akasi keksayib qolgan*” presuppozitsiyasiga ham ishora qiladi.

Ma’lumki, *ajin* so‘zi “yoshi ulg‘ayganda yuz va peshanada hosil bo‘ladigan yo‘l-yo‘l chiziqlar, botiq izlar”ni anglatadi. Bu so‘z inson tashqi qiyofasidagi ana shu belgi orqali gapda shaxsning yoshi ulug‘ligi haqidagi axborotni aks ettiruvchi presuppozitsiyaga ishora qiladi.

Har qanday umumiylik xususiylikdan, alohidalikdan, ularning mantiqiy ichki bog‘lanishidan yuzaga keladi va situatsiyaga qarab xususiylik sifatida, unga xos belgi-xususiyatlar esa xususiylik sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nisbiy mustaqillikka, alohidalikka egadir. “Holat” arxisemali sifatlarning mustaqilligini, alohidaligini taminlovchi, til va nutq birligi bo‘lib izohlanishiga stimul beruvchi sema hisoblanadi.

Umuman olganda, holat sifatlari lingvokulturologik aspektda ikkita muhim xususiyatni namoyon etadi:

1) holat sifatlari badiiy matndagi misollarga asosan etnik-madaniy ongning diskursivligini ta’minlaydi;

2) holat sifatlarining lingvokulturologik xususiyatlari madaniyat tili va etnik-madaniy ong tuzilmalari o‘rtasida kognitiv-diskursiv korrelyatsiya mavjudligini ko‘rsatadi, bu esa til, bilish va madaniyatning o‘zaro semantik ta’sir imkoniyatlarini namoyon etadi.

Birinchi bob bo‘yicha qisqacha xulosalar

1. 1. Til millatning ma’naviy boyligi, qiyofasining bir bo‘lagi va birdamligi timsolidir. Til madaniyatning ahamiyatli bir bo‘lagi sifatida muloqot jarayonida milliy madaniyatni aks ettiradi. Til madaniyatning tarkibiy qismi, uning quroli

bo'lishi mumkin, til madaniyat ruhining ifodasi hamda madaniyat mavjudligining o'ziga xos usuli hamdir.

2. Har qanday shaxs muayyan madaniyatlar bilan bog'langan stereotiplar olamida yashaydi. Stereotip turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir. Stereotiplarni o'rganish, madaniyatlararo muloqotlarda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarni, to'qnashuvlarni oldini oladi.

3. Ramzlar obrazlilik, motivlashganligi, ko'p ma'noliligi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy muloqot tizimida muayyan obyektlar, masalan, predmet, harakat, hodisa, matn, tasvir, hayvon, o'simlik, rang, raqam va boshqalar ramz bo'lib xizmat qiladi.

4. Til birliklarini, xususan, sifat turkumidagi so'zlarni lingvomadaniy yo'nalishda tadqiq etish bu so'z turkumining tilshunoslikda shu kunga qadar e'tiborga olinmagan nutq vaziyati, kontekst, so'zlovchi va tinglovchilarning madaniyati, qadriyatlari haqidagi umumiy bilimlari, ularning til ko'nikmalari bilan bog'liq jihatlariga aniqlik kiritishi shubhasiz. Sifatlarni lingvomadaniy yo'nalishda tadqiq etish gapda sifat orqali yuzaga chiquvchi milliy mental ifodalarni o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

5. Sifat so'z turkumlari ichida muayyan predmetning (predmet bu o'rinda keng ma'noda) belgi-xususiyatini ifodalay olish xususiyati jihatidan alohida mavqega ega. Shu sababli o'zbek tilida sifat ishtirokidagi gaplarni sifatlarning grammatik tabiati, semantikasi, lingvomadaniy imkoniyati bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiq.

II BOB. TABIIY HOLATNI IFODALOVCHI SIFATLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

2.1.-§. Tashqi ko‘rinish, qiyofa bilan bog‘liq sifatlarning lingvomadaniy xususiyatlari

Ma’lumki, “tabiiy holat belgilari” ma’no jihatidan insonning ruhiy, hayotiy (fizik) va jismoniy holatini anglatuvchi sifatlarning qatori holat bildiruvchi sifatlarning sirasidan o‘rin oladi¹. Sifat leksemalardagi shaxsning tabiiy holati faqat ko‘rish organlari orqali bilinadi.

Sifatning ma’noviy guruhlarida holat bildiruvchi sifatlarning shaxsning didi, etika-estetikasini ifodalaydi. M.Sodiqova tadqiqotida holat sifatlari “Tabiiy holat ma’nolarini bildiruvchi sifatlarning” deb tilga olingan va u ikki guruhga ajratilgan:


- a) ijobiy belgilarni ifodalovchi sifatlarning;
- b) nuqsoniy belgilarni ifodalovchi sifatlarning².

Bu guruhlanish orasida ijobiy belgilarni bildiruvchi sifatlarning juda katta guruhni tashkil qiladi. Shu qatorida nuqsoniy belgilarni ifodalovchi sifatlarning kichik guruhni tashkil etadi. Ushbu bobda tabiiy holatni ifodalovchi sifatlarni alohida ajratib tadqiq etish va ularning ma’nolarini O.Yoqubov asarlaridagi illyustrativ misollar asosida reallashtirishni ma’qul deb hisobladik. Ijodkor asar qahramonlari, umuman, shaxsning tashqi ko‘rinishi, suratini ifodalashda “tabiiy holat belgilari” semasini o‘zida mujassam etgan leksemalar paradigmasidan lingvomadaniy aspektida mohirona foydalangan. O.Yoqubovning o‘ziga xos idiositili orqali ifodalangan ushbu leksemalarda o‘zbek xalqining dunyoqarashi, urf-odatlarini o‘z aksini topgan.

Tashqi ko‘rinish, qiyofa bilan bog‘liq sifatlarni semantik nuqtayi nazardan to‘rt guruhga bo‘lish mumkin:

¹ Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифатлар. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 49–55.; Нажмиддинов Ф. Адъектив лексемаларда семалар таснифи ва семалараро муносабатнинг турлари: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б. 8–9.; Тожи́матов Х. Сифат семемасининг реаллашувида контекст: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б. 14–19.

² Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 51.



2.1.1-rasm. Tashqi ko'rinish, qiyofa bilan bog'liq sifatlarning semantik tasnifi.

Bu semalarning har biri qiyofa bilan bog'liq sifatlarning biror guruhini umumlashtirish vazifasini o'z zimmasida saqlaydi.

“Ko'rinish, chiroy” bilan bog'liq bo'lgan go'zallikni ifodalovchi sifatlar: *zebo, farishta, xushsurat, jamila, nozanin, jilvagar, go'zal, sohibjamol, maftunkor, chiroyli, suluv, lobar, fusunkor, zariif, yoqimtoy, husnli, xushchiroy, ko'rkam, jozibador, xushro'y, malih, xushjamol, yoqimli, jozibali*. Ushbu sifatlarning differensial semasiga asosan quyidagi ma'nolarni ifodalashiga ko'ra ham bir necha guruhlarga ajratish mumkin:



2.1.2-rasm. “Ko'rinish, chiroy” bilan bog'liq bo'lgan go'zallikni ifodalovchi sifatlarning semantik tasnifi.

1) “ortiq” ma’nosini bildirgan sifatlar: *go’zal, suluv, zebo, ko’rkam, malih, zarif, farishta* // – *Yana bilib qo’y, **go’zal** qizlar musobaqasida ham birinchi o’rinni egallaganman!* (“*Qaydasan, Moriko*”, 7-bet)

2) “egalik” ma’nosini ifodalovchi sifatlar: *jamila, jozibali, sohibjamol, yoqimli, chiroyli, husndor, yoqimtoy, ko’hlik, jozibador, husnli* // – *Mahkam aka taajjublanganidan yuzi allanechuk cho’zilib qolgan, Tohirning **chiroyli** qora ko’zlari shodlikdan porlab yonar, yolg’iz Burxon otagina qoshlarini bir-biriga tutashtirgan holda, mo’ylovini lablari bilan qimtib sukut qilar, go’yo xatning davomini kutar edi.* (“*Ota izidan*”, 77-bet)

3) “baxsh etuvchi” ifodasini beruvchi sifatlar: *xushsurat, xushjamol, xushchiroy* // – *Ibn Shahvoniy **xushsurat** shogirdining yelkasiga qo’lini qo’yib, aravadan tushdi, viqor bilan yerni bir-bir bosib, qizil ipak chodir tomon ravona bo’ldi.* (“*Ko’hna dunyo*”, 243-bet)

4) “nafosat bilan” ifodasini beruvchi sifatlar: *nozanin, lohar* // – *Qani o’shal ofatijon **nozanin** qizlar? – deb so’radi, so’radi-yu, nigohi bosh vazirga tushib, qiyg’os ko’zlari to’satdan cheksiz bir quvonch bilan charaqlab ketdi.* (“*Ko’hna dunyo*”, 361-bet)

5) “ta’sir” ifodasini beruvchi sifatlar: *fusunkor, maftunkor, jilvagar* // – *Bu uqubatlar evaziga uzoq yo’lda shunday **fusunkor** joylar uchradiki, bu ko’m-ko’k qirlar, chaman gullagan bog’-u rog’lar, hadsiz-hududsiz yaylovlarni ko’rib, bu foniylar dunyoning ko’rk-u jamoliga lol qoldik.* (“*Ko’hna dunyo*”, 363-bet)

Tashqi ko’rinish, qiyofa bilan bog’liq O.Yoqubov asarlarida keltirilgan yuqoridagi matnlar orqali *go’zal, chiroyli, xushsurat, nozanin, fusunkor* stereotiplari namoyon bo’ladi.

“Ko’rinish, chiroy” integral semasi bilan tutashgan ayrim sifat lingvokulteremalar belgi darajasining ortiqchiligi bilan ajralib turadi. Shunga ko’ra ularning differensial semasi “ortiq” deb belgilanadi. – *Ul najot **farishta** Ibn Sino yo’lga chiqmish!* (“*Ko’hna dunyo*”, 77-bet) Bu misolda yozuvchi ham qisqalikka, ixchamlikka, ham jozibadorlikka, ham ta’sirchanlikka erishgan. Aslida “Farishta” arabcha (arab tilida: ملاك) Islomiyatda – aqlli va ozod mavjudot. Allohning hamma

buyruqlarini so‘zsiz bajarishadi (aslida Allohni ularga ehtiyoji yo‘q, lekin ularni yaratib, o‘zlarini chegarasiz idroklari bo‘yicha qo‘llanadi). Farishtalar inson ko‘ziga ko‘rinmaydi, lekin o‘zi xohlaganda yoki Allohdan buyruq olganda ko‘rinishi mumkin. Ular nurdan yaratilgan¹. Odil Yoqubov *farishta* so‘zini qo‘llash bilan Ibn Sinoning butun holatini to‘la ta’riflab beradi. Demak, Ibn Sino bu go‘zal olamning eng aqllilaridan ham ancha yuqori darajadagi shaxs, hattoki, farishta singaridir. U – abadiy dunyo go‘zali, Olloh muruvvatiga loyiq go‘zal inson sifatida gavdalantiriladi². So‘zni bu darajada tanlab qo‘llash, unga jiddiy vazifa yuklash so‘z semantikasini chuqur bilishni talab etadi. Shuningdek, yozuvchi ijodida farishtaga o‘xshatish holatlari ko‘p uchraydi (*farishta misol, farishta kabi, farishtadek, farishta yanglig‘, farishtaday...* kabilar), biroq ulardagi ta’rif, o‘z-o‘zidan yetarli emasligi bilinadi. Ya’ni farishtaga o‘xshaydi-yu, uning o‘zi emas-da! – *Bir mirini qoldirmay ulashdim-u, mana endi, farishtaday ma’sum, go’dakday qipyalang’och, o‘z yurtimga otlandim!..* (“Ko‘hna dunyo”, 158-bet) jumlasida esa o‘xshatish shu darajada qiyomiga yetganki, narsa o‘xshatilayotgan narsaga teng, uning o‘zidir. Demak, bunda faqat o‘xshovchi ifodalangan, xolos. Bu san’at esa istioradir (O‘xshovchi o‘xshatilishini ham o‘z ichiga olgandir)³.

Tashqi qiyofani ifodalovchi sifatlar arxitep, konsept, stereotip bo‘la olishi jihatidan lingvokulturologik fon hosil qiladi. Shu jihatidan sifatlardan *go‘zal* so‘zi poetik tilga xosligi bilan ham ajralib turadi.

“Go‘zal” holat sifati muloqot xulqida juda faol qo‘llanilib, konsept sifatida quyidagi konseptosferalarni o‘zida birlashtiradi:

1. Juda chiroyli:
2. Husndor:
3. Xushro‘y:
4. Odamni maftun etadigan:
5. Serzavq:

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, IV жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 329.

² Тожиев Ё, Ҳасанова Н., Тожиматов Х., Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Тошкент, 1994. – Б. 83.

³ Рустамов А. А.Навойнинг бадий маҳорати. – Тошкент, 1979. – Б. 70.

6. Xotin-qizlar ismi:

Go‘zal sifatining ma’nosini ochishda “ko‘rinish, chiroy” “ortiqligi”, shuningdek, poetik tilga xosligi O.Yoqubov tomonidan e’tiborga olingan. Masalan, – *Xayr, azizim, maboda bir sabab bilan (turmushda nimalar bo‘lmaydi!) bu xat qo‘lingga tegadigan bo‘lsa, bilgin: hayotimning eng so‘nggi daqiqalarigacha xayolim senda edi, ko‘z oldimda sening mehribon va **go‘zal** chehrang turdi.* (“Ota izidan”, 83-bet). Bu gapda suyuklisi, turmush o‘rtog‘i chehrasining go‘zalligi tasvirlangan. Shuningdek, uning qiyoslanishi go‘zal so‘zidagi poetiklikni ham namoyon etgan.

Go‘zal konsepti semantik maydonida zarif, farishta, malih, zebo, suluv, ko‘rkam kabi konseptosferalarga nisbatan lingvokulturologik fonda yuqori o‘rinda turishi bilan ajralib turadi. Xususan, go‘zal konsepti ayolga nisbatan ishlatilganda, katta mavqega ega ayolni ifodalab keladi: – *U o‘z haramiga Chin va Misr, Hindiston va Rumdan husnda yagona hurliqolarni yig‘dirsa, raqsda tovusdek tovlanguvchi **go‘zal** raqqosalar, bulbul yanglig‘ xushovoz xonanda va sozandalar, nomi olamga ketgan malikul kalom va vohidi zamon allomalarni to‘plasa!..* (“Ko‘hna dunyo”, 57-bet). Ushbu matnda keltirilgan go‘zal konsepti raqqosalarning husnda tanho ekanligiga ishora qilmoqda.

Go‘zal konsepti faqat ayollarga nisbatan emas, hayvonlarga, hududlarga, mavhum tushunchalarga nisbatan ham qo‘llanadi. Bular ham go‘zal so‘zining “ko‘rinish, chiroy”, “didga mos”, “ortiqlik” lingvokulteremalarini reallashtirish uchun xizmat qilgan: – *Bu yerda, atrofi qorli cho‘qqilar bilan o‘ralgan daralarda qoplonlar, chiyabo‘rilar, yo‘lbarlar makon qurgan, yuqorida, tog‘- u toshlar ustida yovvoyi echkilar, mugizlari quloq-quloq arxarlar gala-gala bo‘lib izg‘ib yurar, tog‘ etagidagi qir va sayhonliklarda esa yosh kanizlarday hurkak, **go‘zal ohular** uchrardi.* (“Ko‘hna dunyo”, 122-bet) // – *Olam esa chindan ham **go‘zal**, ovloq tog‘largacha cho‘zilgan qir va adirlar yam-yashil, gurkirab o‘sgan yovshan, shuvoq, kiyik o‘ti va yovvoyi bedalar orasida mitti-mitti chitirgullar, nafarmon rang no‘xataklar, binafsha va chuchmomalar yal-yal yonar, o‘tlar orasida ko‘zga*

*ko‘rinmas qushlar sayrar, havoni yalpiz, kakra, shuvoq va yana allaqanday
giyohlarning sal taxir, xushbo‘y hidi tutgan edi* (“*Ko‘hna dunyo*”, 302-bet).

Narsa-predmetga nisbatan holatni ifodalovchi leksemalar shaxs tashqi ko‘rinishini ifodalashi shu narsa-buyumlarning belgisini aks ettirishi bilan izohlanadi.

Chiroyli, ajoyib, go‘zal kabi sinonimlarni yonma-yon, ya’ni uyushgan holda keltirish ta’kid, kuchaytirish ma’nolarini ham ifodalashi mumkin¹.

Suluv so‘zi ham *go‘zal* so‘zi bilan bir integral sema ostida ma’no kasb etadi. Lekin bu so‘z sememasidagi o‘ziga xos tomon shundaki, u ko‘proq reallashtirilishida *go‘zal* so‘zida e’tiborda tutilgan vositalar amalga oshiriladi: – *Haram bekasini chaqirtiring. Suluv kanizlardan keltirsinlar!* (“*Ko‘hna dunyo*”, 406-bet)

Zebo so‘zi ham o‘z sememasiga ko‘ra, asosan, ayollarga qaratilgan bo‘ladi. Biroq undagi ifoda sal kengroq, u o‘zbek ayollariga xos umumiy ko‘rinishni, kiyinish va qaddi-qomatni ham nazarda tutadi. Shuning uchun ham O.Yoqubov *zebo* so‘zining ma’nosini ochish maqsadida u kiritilgan gapga qaddi-qomat va libos ko‘rkamligini ko‘rsatuvchi ifoda vositasini ham keltiradi: – *Shoir Unsuriy vazir janoblarining chertsu qon sachragudek qip-qizil, chiroyli, zebo yuziga hadiksirab qaradi-da, haram kanizlarining qo‘llaridek nozik, oppoq qo‘llarini ko‘ksiga qo‘ydi...* (“*Ko‘hna dunyo*”, 126-bet). Matndagi *sachragudek* va *qip-qizil, yuz, zebo* so‘zlari ma’noni ochishga xizmat qilgan.

Sohibjamol hamda **suluv** konseptlari qizning tashqi qiyofasini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu konseptlarning sinonimi sifatida poetik matnda ko‘rkam leksemasidan foydalaniladi.

Ko‘rkam konsepti belgi ifoda etish doirasi kengligi bilan *go‘zal* so‘ziga nihoyatda yaqindir, biroq *ko‘rkam* so‘zida belgi ifodasi kuchsizroq hamda shaxsga qaratish keyingi o‘rinda ekanligi uning o‘ziga xos tomonidir. Muallif joyga nisbatan ham ko‘rkam sifatini qo‘llaydi: – *Nahot necha yuz ming so‘m sovurilgan bu ko‘rkam qasr, antiqa idishlar-u xorijiy mebellar bilan jihozlangan bu “lyuks”*

¹ Тожиев Ё., Ҳасанова Н., Тожиматов Х., Йўлдошева О. Кўрсатилган қўлланма. – Тошкент, 1994. – Б. 83.

xonalar faqat “Dashtstroy” rahbarlari-yu, ularning aziz mehmonlarigagina xizmat qilsa? (“Oq qushlar, oppoq qushlar”, 73-bet). Matnda salqin, husn, chiroy so‘zlari keltirilsa edi, ular ham *ko‘rkam* so‘zining ma’nosini ochishda muhim qimmatga ega bo‘lardi.

Suluv konsepti chiroyli, go‘zal, tashqi ko‘rinishi juda yoqimli shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Eski turkiy tilning ma’lum bir davrlarida ushbu leksema *suluk* tarzida ifodalanib, yigitlarga nisbatan ishlatilgan. Bugungi kunga kelib esa, faqat qizlarga nisbatan qo‘llanib, gender jihatdan xoslanishni bildiradi: – *Ulug‘bek ulardan ko‘zini uzolmay o‘z-o‘ziga pichirladi: **suluvlar** **suluvi** Mushtariy, go‘zallar go‘zali Zuxal dubbi akbar, Oltin qoziq... Hammasi joylaridan jilibdur.* (“Ulug‘bek xazinasi”, 138-bet)

Sohibjamol sifati uzoq vaqt davomida farqlanmay, qiz va yigitlarga nisbatan qo‘llanilib kelgan. A.Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida bu holatni Mavlono Moniyga nisbatan ishlatilganida ham ko‘rishimiz mumkin: – Mavlono Moniy... – *Mavlono Moniy... sohibjamol va zarif va ra’no yigitdur*¹. O.Yoqubov asarlarida ham ushbu leksema faol qo‘llangan: – *Ayol zotini ma’zur tutasiz, mavlono, sizga bir og‘iz so‘zim bor. O‘n gulidan bir guli ochilmagan ul **sohibjamol**... sizga faqat joriyalik qilgan edimi yoki...* (“Ko‘hna dunyo”, 275-bet)

Yoqimli so‘zi belgi ifoda doirasining kengligi bilan *go‘zal*, *ko‘rkam* so‘zlariga yaqin, belgi esa kuchsiz ifodalangan: – *Gavjum ko‘chalardagi odamlar ham har kungidan yaxshiroq kiyingan va nima uchundir odatdagidan muloyimroq va **yoqimliroq** ko‘rinardi.* (“Muqaddas”, 106-bet)

Yoqimtoy so‘zi yoqimli so‘zidan o‘zidagi erkalash ifodasi bilan ajralib turadi: – *Kichkinaligida Nigora marhum buvisining qo‘lida o‘sgan, buvisining, ya’ni og‘aynisi Rasullarning bog‘i esa Shovvozlarning bog‘iga tutash edi. Shu sabab Nigora Shoraximning qizlari bilan birga yotib, birga turib katta bo‘lgan. O‘ziyam jajjigina bir qizaloq edi. Bu yil yozda ko‘rsa... Nozikkina, **yoqimtoygina** bir juvon bo‘libdi.* (“Oq qushlar, oppoq qushlar”, 9-bet).

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 360.

Jozibador soʻzidagi belgi jozibali soʻzidagi belgiga nisbatan egalik, ortiq holda ifodalangan va poetik uslubga xoslanish mavjud ekanligi bilan ajralib turadi: – *Yerlar goʻzal, sirli, **jozibador** koʻrinardi.* (“*Tengdoshlar*”, 26-bet).

“Ijobiy qiyofa” semasini ifodalovchi *goʻzal, sirli, jozibador* kabi steriotiplar bir sinonimik qatorni yuzaga keltirgan. Poetik matnda qoʻllanilgan bu kabi sifatlar lingvokulturema sifatida madaniy-maʼnaviy yuk tashiydi.

Poetik matnda qoʻllanilgan bu kabi sifatlar lingvokulturema sifatida madaniy-maʼnaviy yuk tashiydi.

Husndor konsept sifatida chiroyli, koʻrkli konseptosferalarini oʻzida mujassamlaydi. Ushbu sifat semantik koʻlamiga koʻra *goʻzal* leksemasidan belgi intensivligi pastligi bilan farqlanadi, yaʼni husni bor, biroq *goʻzal* emasligini bildiradi. *Husndor* soʻzi kam qoʻllanishi bilan *husnli* soʻziga yaqin turadi. Ulardagi farq asosan belgi darajasining kamligidir. Baʼzi poetik matnlarda *husndor* konsept sifatida tashqi qiyofaning yuqori darajasini koʻrsatadi. *Husndor* holat sifati O.Yoqubov asarlarida kuzatilmadi.

Chiroyli soʻzining belgini ifoda etish doirasi keng boʻlib, u tabiatdagi barcha narsalarga qaratilgan. *Chiroyli* soʻzi oʻzining oʻzakdan anglashilgan tushuncha ifodasi va “ega” ifodasi bilan *goʻzal* soʻziga sinonim boʻlsa ham, undan belgi darajasining kuchsizligi, uslubiy jihatdan neytralligi jihatdan farq qiladi: – *Uning sharobdan boʻgʻiqqan **chiroyli** yuzida, haram goʻzallarining koʻzlariday katta-katta serkiprik koʻzlarida qandaydir kishini oʻziga rom etguvchi shiddat va qatʼiyat zuhur etdi.* (“*Koʻhna dunyo*”, 166-bet).

Koʻhlik lingvokulteremasi ichki imkoniyatlar asosida fors-tojik leksemasidan hosil qilinib, *goʻzal, chiroyli, yoqimli* semantic maydonini vujudga keltiradi: – *Bu narsa Shovvovning ham hamiyatiga tegib, oromini buzgan, buzmasdan iloji ham yoʻq, chunki Mehriniso hali yosh, **koʻhlik**, daraxtning uchi esa shamolsiz qimirlamaydi.* (“*Oq qushlar, oppoq qushlar*”, 5-bet).

Yoqimli, yoqimtoy, jozibali, jozibador, chiroyli konseptlari faqat yasovchi qoʻshimchalar bilangina emas, asoslarning semantikasiga koʻra ham farqli tomonlariga ega. Bu sifatlarning maʼnosini ochishda ikki narsaga eʼtibor berish


kerak: 1) o‘zak ma’nosining namoyon etilishiga va 2) undagi “egalik” ifodasiga. Ko‘proq keyingisi asosiy o‘rinni egallaydi. Bunda ko‘proq sifatning sifatlovchi vazifasida qo‘llanib kelishi zarur. Chunki sifatdan anglashilgan ma’nodagi “ega” semasi uning sifatlanmish bilan bog‘liqligida ko‘zga tashlanadi. Sifatdan anglashilgan “belgiga egalik” asosan sifatlanmishda ifodalangan nimagadir xos bo‘ladi. Uning qaysi darajada “egaligi” ham shu orqali reallashadi. *Chiroyli* so‘zi uslubiy jihatdan betaraf bo‘lib, jonli va jonsiz narsalarga nisbatan ham qo‘llanaveradi. Bu jihatdan *chiroyli* so‘zi *go‘zal* sifatining “ko‘rinish, chiroy” integral semasi bilan teng kelib sinonimik munosabatga kirishsa ham, differensial semasi va qo‘llanishiga ko‘ra farq qiladi. Yuqorida aytganimizdek, “ortiqlik” darajasiga ko‘ra farqqa ega. Bundan tashqari, *chiroyli* konsepti qo‘llanishiga ko‘ra umumiydir. Buni quyidagi misollardan ham bilsa bo‘ladi: – *Bizlarni unutib yubormasdan kelib turing, Gulchehraxon! – dedi u va go‘yo shunday **chiroyli** juvon bilan yaqin munosabatda ekanini bizga ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘lgandek, jo‘rttaga qo‘lini qo‘yib yubormasdan...* (“*Muqaddas*”, 112-bet). // *Atlas ko‘ylak kiygan **go‘zal** qizlar ko‘m-ko‘k bepoyon dalalarda paxta terib yurishibdi.* (“*Oq qushlar, oppoq qushlar*”, 44-bet). Bu ikki misoldan birinchisidagi *chiroyli* so‘zi keyingi gapdagi *go‘zal* so‘zi bilan bir ma’noda birlashadi. Har ikkalasi ham odamning tashqi ko‘rinishini, husndorligini ifodalab turibdi. Bu narsa *chiroyli* so‘zida -li affiksi ishtirokida hosil qilingan bo‘lsa, *go‘zal* so‘zining o‘z leksik ma’nosi shu xususiyatga ega. Shu bilan birga *go‘zal* so‘zida “ko‘rinish, chiroy” “ortiqligi” ham yaqqol seziladi. Yana shuni ham ta’kidlash joizki, *go‘zal* so‘zi erkaklardan ko‘ra ko‘proq ayol yoki qizlarga nisbatan qo‘llanilishi ham kuzatiladi. Bundan ko‘rinadiki, *go‘zal* so‘zi belgining “ortiqligi”ni ifodalaydi. Bu ko‘proq kitobiy tilga xos. *Chiroyli* so‘zi esa ko‘proq jonli so‘zlashuv tilida qo‘llaniladi.

O.Yoqubov asarlarida milliy-madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi holat sifatlarining frazema tarzida ifodalangan o‘rinlariga ham duch kelishimiz mumkin. Xususan, **istarasi issiq** frazemasi lingvokulterema sifatida istara, ya’ni sitora “yulduz” semasiga ishora qiladi. Ushbu birlik boshqa millat madaniyatida kuzatilmaganligi bois ham realiya birlik bo‘lib kela oladi. – *Suratda lo‘ppi*

yuzlarida kulgichlari o‘ynagan, **istarasi issiqqina** bir qiz qalin jingalak sochlari peshonasiga sochilgan, ustiga shinel, oyog‘iga xrom etik kiygan uzun bo‘yli, keng yag‘rinli bir yigitning ko‘kragiga boshini qo‘yib, jilmayib turardi. (“Ota izidan”, 56-bet).

Tashqi qiyofani ifodalashda poetik matnda obyekt nomlari bilan ishora qilish holati ham namoyon bo‘ladi: – *Sultonning azaldan qoqsuyak, bo‘ychan gavgdasi burungidan ham cho‘zilgan, sahroyilarga xos keng, **suyakdor** yuzi sariq charm qoplangan niqobga o‘xshar, taralmagan siyrak **mosh-guruch** soqol-mo‘ylovlari paxmaygan, faqat ko‘zlari, **siyrak** qoshlari tagiga yashiringan qiyg‘os ko‘zlarigina burungiday tiyrak va sinchkov edi.* (“Ko‘hna dunyo”, 238-bet).

2.1.1-jadval.



Ushbu sifatlarning ma’nolarini illyustrativ misollarda reallashtirish uchun ham avval ularning differensial semasini aniqlab chiqishga to‘g‘ri keladi. Ular integral semasi “tuzilish” va arxisemasi “didga mos”, “yoqadigan”, “yoquvchi” belgisini bildirishi bilan birga “kelishgan”, “bichim”, “ixchamlik”, “etdorlik”, “holat” belgisini bildiruvchi kichik integral semali guruhchalar mavjud. Shu tufayli mazkur arxisemali sifatlarning “tuzilish” integral semasi bilan ajratib olinganlari “kelishganlik”, “bichim”, “ixchamlik”, “etdorlik”, “holat” kabi kichik integral semalariga ko‘ra beshta kichik guruhlariga bo‘linadi. Kichik integral semasi

“kelishganlik” ifodasini beruvchi sifatlar: *qomatdor, barno, mavzun, barvasta, durkun, norg‘ul, kelishgan, mavzun, jussali, navqiron, jussador* va boshqalar.

Devqomat holat sifati insonga nisbatan ishlatilib, shaxsning bo‘yi, yelkasi, ko‘ksiga ishora qiladi: – *Rasadxona zimiston bo‘lsa ham, Ali Qushchining o‘tkir ko‘zlari darrov ko‘rdi: poygakda devqomat bir kimsa gavdasi bilan eshikni to‘sib, qaqqayib turardi.* (“*Ulug‘bek xazinasi*”, 86-bet).

Barno so‘zining ma‘nosi ham asosan, shaxslarning bo‘y-bastiga nisbatan ishlatilib, “kelishgan tuzilish”ni e‘tiborda tutadi. Undagi ma‘no ifodasi bir oz kengroq: “go‘zal” degan semaga ham ega. *Barno* sifati o‘z sinonimlaridan ifodadagi belgi darajasining ortiqligi bilan farqlanadi. Bu xususiyat so‘zning stilistik sinonimlari bilan yonma-yon qo‘llanganda yanada yaqqollashadi: – *Uzun bo‘yli bir yigit bilan Raisaning o‘qituvchisiga o‘xshab ketadigan barno bir qiz davraning o‘rtasida, oq kapalak singari pirpirab o‘ynamoqda edi.* (“*Tengdoshlar*”, 40-bet).

Durkun so‘zi qayd etilgan sinonimlaridan “gavda hajmi me‘yoridan ortiq” semasi bilan farq qiladi. *Jussali* so‘zi shaxsga qaratilgan bo‘lib, gavda tuzilishining salobatini ko‘zda tutadi. *Qomatdor, barno* so‘zlaridan so‘zlashuv nutqiga xosligi bilan ajraladi. *Jussador* sifati tarkibidagi yasovchi asos va -*dor* qo‘shimchasi orqali “jussasi hajmi yanada ortiq” ma‘nosini anglatishi bilan o‘ziga xos. U *jussali* so‘ziga nisbatan kam ishlatiladi. *Barvasta* so‘zidagi arxisemada aks etgan belgi integral semada “kelishgan tuzilish”ni ifoda etishga ko‘radir. Uning boshqa sinonimlaridan farqi shundaki, u “salobat” ma‘nosini ham nazarda tutadi: – *Sira yodidan chiqmaydi: Suluvjonning yuzi yosh bilan yuvilgan, lablari shirin-sho‘rtak, u butun durkun gavdasi bilan titrab, o‘ksib-o‘ksib yig‘lar va hadeb bir gapni takrorlar edi.* (“*Oq qushlar, oppoq qushlar*”, 221-bet)

Ko‘rinadiki, illyustrativ misolda “kelishganlik” kichik integral semasiga kiruvchi sifatlar sememasini ochish uchun jussa yirikligini berish vositasi topilishi kerak. Buning uchun bunday sifatlar kesim vazifasida kelishi, ega sifatlovchi vazifasida kelishi, sifatlanmish realizator bo‘lishi kerakligini nazarda tutish kerak


va yana mazkur sifat sememasi differensial semasiga xos belgini takrorlovchi soʻzlar ham matndan oʻz oʻrnini topishi maʼqul boʻladi.

Norgʻul soʻzining sememasi asosan erkak shaxsiga qaratilgan boʻlishi, “en”ni nazarda tutishi hamda qoʻllanishi bilan *barvasta* soʻzidan ajralib turadi. *Kelishgan* soʻzi esa “mutanosib tuzilish” maʼnosiga ega. Uning qoʻllanish doirasi *qomatdor*, *durkun*, *norgʻul*, *barvasta* sifatlaridan bir oz kengroq boʻlib, faqat gavda tuzilishiga qaratilishi bilan chegaralanmay, baʼzan gavdaning boshqa tomonlariga ham qaratilgan boʻladi. Shuning uchun bu soʻzlarning sememalari semasini ochishda *kelishgan* soʻzidagi barcha muchalarning mutanosibligi *norgʻul* soʻzidagi salobat, *mavzun* soʻzidagi barcha organlarning mutanosib oʻlchamiga eʼtibor berish kerak. Misollar: – *U mahalda Qalandar endi oʻn oltiga kirib, ayni kuchga toʻlgan, qoʻshni qizlarning diliga choʻgʻ solib yurgan xushqomat, norgʻul yigit edi.* (“*Ulugʻbek xazinasi*”, 180-bet).

Xushbichim, *xushqomat*, *xushqad* sifatleri bir sinonimik uyani tashkil qiladi. Garchi yuqorida qayd etilgan soʻzlar *xush* prefiksi orqali “baxsh etuvchi” differensial semali *xushsurat*, *xushjamol*, *xushroʻy* soʻzlariga yaqin tursa ham, ammo yasovchi asoslarning semantikasiga va “ochiqlilik holati”ni nazarda tutmasligiga koʻra ulardan farq qiladi. Ular *qomat*, *qad* va boshqa narsalarning bichimi orqali arxisemadagi belgini aks ettiradi. *Xushbichimning* qoʻllanish doirasi keng. Unda noziklik ifodasi ham nazarda tutilgan. *Xushqad*, *xushqomat* sifatleri yasovchi asoslarning *qad* soʻzida boʻy-bast anglashinib, *xush* prefiksi orqali adllik koʻzda tutilsa, *qomat* soʻzida gavdaning tashqi bichimi nazarga olinib, *xush* prefiksi bilan birga kishi tanasining tashqi bichimi, yaʼni boʻyi, yelkasi va boshqalar koʻzda tutilgan boʻladi. Bu sifatlar sememasi semasini reallashtirishda mana shu differensial sema boʻlishi kerak. Shuningdek, koʻrinishga nisbat beruvchi sema ham oʻz oʻrnini olishi zarur: – ***Novcha***, ***xushqomat***, ***xushsurat*** *Husayn Bahodir qoʻl qovushtirganicha poygakka tizza bukdi* (“*Ulugʻbek xazinasi*”, 290-bet). Avvalo, *xushbichim* semasining maʼnosini uning aniqlanmishi boʻlmish *qiyofa* soʻzi ochib bergan. Shuningdek, u bilan bir gapda birga uyushib qoʻllangan *sarvqomat*, *jiddiy* soʻzlari ham *xushbichim* soʻzi maʼnosi reallashuvida

ahamiyat kasb etgan. Keyingi misolda esa *xushqomat* soʻzining maʼnosi reallashtirilgan boʻlib, bunda u bilan uyushiq holda qoʻllangan *novcha*, *xushsurat* soʻzlari oʻz oʻrniga ega. Uning aniqlanmishi boʻlgan Husayn Bahodir *xushqomat* soʻzi differensial semasini yuzaga chiqargan. Tashqi qiyofani ifodalovchi sifatlarning differensial semalarini reallashtirish uchun asosan oʻxshatish etalonidan foydalaniladi.

2.1.2-jadval.



Ushbu arxisemali sifatlar oʻz navbatida 3 guruhga boʻlinadi:

“Harakat-holat” integral semali sifatlarning differensial semalari:		
“Dil” differensial semali sifatlari	“Beg‘uborlik” differensial semali sifatlari	“Ruhiy ta’sir” differensial semali sifatlari
<i>dilbar, dildor, diloro, dilrabo, dilpazir, dilorom, dilband</i>	<i>latofatli, malohatli, nazokatli, tarovatli</i>	<i>sifatlar jonon, ofatijon, tamtam</i>

– O‘rtoqlar, tunov kuni men buni bitta **jonon** bilan boshlashib yurganini ko‘ruvdim. (“Muqaddas”, 79-bet).


Holat sifatlarning shundaylari ham kuzatiladiki, bir vaqtning o‘zidan ham yuz, ham tana ko‘rinishini ifodalaydi. Polvon stereotipi o‘zbek xalqiga xos realiya bo‘lib, baquvvat, keng yelkali, alp qomatli belgilarini bildiradi: – *Bir kun yigitlar hazillashib: “Uch kilo guruchni oshini yeysizmi, **polvon?**” deb qolishdi.* (“Ulug‘bek xazinasi”, 389-bet).

Umuman olganda, tahlil etilgan yuqoridagi tabiiy holat bilan bog‘liq belgi bildiruvchi differensial semali sifatlari ma’nosini ochish uchun turli vositalardan foydalanilgan misollar keltirildi. Bu vosita faqat o‘sha sifatning differensial semasini namoyon etish uchun mos deb bo‘lmaydi. Keltirilgan vositalarning har biridan ma’nosi tahlil qilinayotgan har bir sifat differensial semasini ochishda lingvokulteremalardan foydalanish mumkin.

2.2-§. Jismoniy nuqson bilan bog‘liq sifatlarning lingvomadaniy xususiyatlari

Nuqsoniy belgilarni ifodalovchi holat sifatlari ozchilikni tashkil etsa-da, biroq insonning didiga yoqmaydigan, mentalitetga mos bo‘lmagan yoqimsiz semasi atrofida birlashadi. Bu sifatlarga nisbatan “xunuklik” bildiruvchi sifatlari deb ham qaraladi. Mana shu xunuklik bildiruvchi sifatlarning semasini O.Yoqubov asarlaridagi misollar vositasida reallashtirish maqsadida har birining semasi tarkibini o‘rganib chiqish va shu asosda illyustratsiyalash ma’qul deb hisoblandi.

Jismoniy nuqson bilan bog‘liq holat sifatlari “didiga mos emas, yoqimsiz” arxisemasi bilan umumlashuvchi sifatlar yana “ko‘rinish”, “organlar”, “tashqi holat” kabi semalari bilan umumlashuvchi uch guruhga bo‘linadi. Bu semalarning har biri jismoniy nuqson bilan bog‘liq holat sifatlarning biror guruhini umumlashtirish vazifasini o‘z zimmasida saqlaydi va shu guruhdagi sifatlar sememasi uchun integral sema vazifasini o‘taydi. Yana ham aniqroq qilib aytsak, “didiga mos emas, yoqimsiz” arxisemasi bilan umumlashgan xunuklik bildiruvchi sifatlar bir semantik maydonni tarkib toptirib, ular har bir integral semasi bo‘yicha kichik maydonchaga bo‘linib ketadi. Kichik maydonchalardagi xunuklik bildiruvchi sifatlar sememasi mazkur integral semasi bo‘yicha umumlashadi. Bu kichik guruhdagi sifatlarning har bir differensial semasi bilan o‘ziga xoslanadi. Ya’ni sifatlarning sememasidagi integral sema har biri o‘ziga xos belgisini ko‘rsatib beruvchi semasi hisoblanadi.



2.2.1-rasm. “Xunuk” konseptining lingvokulturologik talqini

Bu xunuklik bildiruvchi sifatlar uch integral sema bo'yicha semantik maydonchaga bo'linadi. Bu haqida yuqorida ham aytib o'tildi. Ko'rinish odam nuqtayi nazaridan olingan. Odamning ko'rinishi uning bosh qismidagi old tomoni tuzilishi bilan o'lchanadi. Demak, bunga yuz, ko'z, quloq, burun, peshona va uning yuqori qismlari, engak kiradi. Bu kabi sifat sememasi ikki differensial semaga ko'ra o'ziga xosdir. Birinchisi “yuz tuzilishi” differensial semasi bilan ajralgani holda bunga *xunuk*, *badbasha*, *yapasqi* sifatlari kiradi. Ular ham differensial semasining, garchi, denotativ tomoni bilan bir xil bo'lsa ham, pragmatik tomoni bilan farqlanadi.

Xunuk sifatining sememasi ogʻzaki nutqqa xosligi bilan, *badbashara* sifatining sememasi umumtilga xosligi va salbiylik ottenkasi kuchliligi bilan, *yapasqi* sifatining sememasi “tuzilish”ni eʼtiborda tutgani va enlilikni ifodalashi bilan oʻziga xosdir. Mana shularga koʻra bu sifatlar illyustrativ misollar bilan reallashtiriladi. Ular illyustrativ misollar asosida reallashtirilar ekan, mazkur differensial semalari xarakteri hisobga olinishi shart. Differensial semasi “yuz tuzilishi” ekan, yuz tuzilishidagi nomutanosiblik, nomeʼyorlik mavjud boʻladi. U shunisi bilan yoqimsiz tuyuladi: – *Xitoyi ipak matolarga oʻrangan, quloqlariga ogʻir hind-u ziraklari, qoʻllariga bagʻdodi oltin bilaguzuklar taqqan, burni puchuq, xunuk Oʻgʻabegim Mirzo Ulugʻbekni quvib daxmaning tepasiga chiqarmish, etagiga yopishib, zino qilishga daʼvat etarmish.* (“*Ulugʻbek xazinasini*”, 48-bet) Bu gapdagi *burni puchuq, zino qilishga daʼvat etarmish* birikmalari *xunuk* soʻzining maʼnosi reallashishi uchun rol oʻynagan. Mana shu koʻrinishdagi salbiy holatni *xunuk* soʻzi gap tarkibida umumlashtirib keluvchi boʻlak vazifasini oʻtagan.

Ilyustrativ misollarda semantikasi reallashtirilishi kerak boʻlgan soʻzga birikib kelgan soʻz ham muhim ahamiyatga ega boʻladi. Bunda birikuvchi soʻzlarning pragmatik mosligi, shuningdek, ular sememasidagi semalar mutanosibligi katta rol oʻynaydi: – *Oʻshanda, katta surmarang sallasi boshida xunuk qoʻnqayib turgan bu besoʻnaqay odam unga ham yoqmadi* (“*Koʻhna dunyo*”, 196-bet). Bu gapda avvalo, *xunuk* soʻzining *salla* soʻzi bilan birikishi ular semantikasidagi pragmatikaning nomutanosibligida salbiylik ifodasini keltirib chiqargan. Yana *xunuk* soʻzi *besoʻnaqay* soʻzining aniqlovchisi boʻlishi ham sememasi reallashishida katta ahamiyatga ega boʻlgan. Chunki oʻzbeklar *besoʻnaqay* deb nooʻxshov qaddi-qomatli odamni tushunadi¹. Bunday odam chiroydan xoli boʻladi.

Xunuk konsepti “didga mos emas, yoqimsiz” arxisemali sememaga ega sifatlar semantik maydoniga mansub boʻlgani holda, yuqorida tilga olingan integral semaga ham ega. Bunda *xunuk* leksemasi sememasi maʼlum obyekt yoki voqelikning holat belgisini bildirib keladi. Sifatning bu sememasi u birikib kelgan

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди, 1-жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. – Б. 81.

sifatlanmish vositasida reallashishi mumkin. O.Yoqubov lingvistik vositani e'tiborda tutadi: – *Uning nozik-nimjon bo'lsa ham novchagina bo'y-basti kamida bir qarich kichraygan, zaif ko'kragi bo'rtib chiqqan, yelkasida esa... kallaqantday xunuk, bedavo bir o'rkach paydo bo'lgandi!...* (“Ko'hna dunyo”, 426-bet)

Badbashara [bad. + bashara] Ko'rinishi yoqimsiz; xunuk, ko'rimsiz yuzli. Meliqul ota kun botish oldida Eralining hovlisiga qirq-ellik yoshlardagi badbashara bir odam bilan kirib keldi. “Yoshlik”. Soqchi mo'ylovdor, devdek ulkan gavdali, badbashara bir yigit ekan. X.To'xtaboyev, Yillar va yo'llar¹.

Badbashara sifati asosan, insonga qaratilgan belgi bo'lib, u *xunuk* so'zidan salbiylik bo'yog'i kuchliligi bilan farq qiladi. Uning sememasini reallashtirish uchun ham *xunuk* sifati sememasini reallashtirish uchun qo'llangan yo'ldan foydalanish mumkin. Masalan: – *Bir vaqt o'ttiz besh yoshga kirgan badbashara... yigitday sersoqol, o'z gazetasida oilaviy o'qishlar uchun bemaza hikoyalar bosib chiqaradigan noshir o'rnidan turib dedi...* (“Tengdoshlar”, 182-bet). Gapda badbashara sifatining ma'nosini ochish uchun yigitday sersoqol birikmasi ahamiyat kasb etgan. Soqoli o'siqlik va sersoqollik kishiga chiroy baxsh etmaydi. Bu badbashara so'zining ma'nosini ochish uchun xizmat qiladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida Oybekdan keltirilgan misol bo'yicha *badchehra* so'zi izohlab berilgan². Bu sifatni badbashara sifatiga sinonim deb ko'rsatish mumkin. Ammo bu sifat o'zbek tilida bo'lishi mumkin emas. U Oybekning “Nur qidirib” asaridan tashqari hech qayerda uchramaydi. Chunki *bad* affiksoidi bilan *chehra* so'zidan so'z yasash o'zbek tilining so'z yasash me'yoriga mos kelmaydi. *Bad* affiksoidi eroniy tillarga mansub bo'lsa ham, *badchehra* sifati ulardan o'zlashgan emas. Chunki *chehra* komponenti ijobiy pragmatik semaga ega. Eroniy tillardan o'zlashgan *bad* komponenti o'zbek tilida salbiy pragmatik semaga ega. Salbiy va ijobiy pragmatik semaga ega komponentlar birikib o'zbek tilida so'z yasashi mumkin emas³. Shunga ko'ra ham aytish mumkinki, o'zbek

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 227.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 2-жилд. – Тошкент: ЎЗМЕ, 2006. – Б. 72.

³ Кўчқортгов И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 26.

tilida bunday soʻz yasalgan emas. Shuning uchun ishimizda uning sememasini illyustrativ misol bilan reallashtirish haqida toʻxtab oʻtirmoqchi emasmiz.

Yapasqi Past boʻyli, pastak, pakana. Yapasqi odam. Yapasqi sigir. Yapasqi daraxtlar. – Ancha-muncha yurilgach, chap tarafdagi yassi togʻlar etagida yapasqi bitta oq uy koʻrindi. Gʻayraty, Uzoqdagi yor. Yapasqi olmalarning yomgʻirda choʻmilgan hoʻl barglari goʻyo “hoy uyatsiz” deb shivirlar va yuzlariga shappatilar edi. S.Anorboyev, Oqsoy. Yoʻldoshboyning yapasqisi ham hozir uncha qamchi talab qilmaydi, jiyrondan qolishmay odimlab boradi. H.Nuʻmon va A.Shorahmedov, Ota¹.

Yapasqi sifati sememasining semalar tarkibi ham *xunuk* sifati sememasining semalar tarkibiga oʻxshab ketadi. Shuning uchun *yapasqi* sifati sememasining differensial semasini reallashtirishda *xunuk* sememasi differensial semasini reallashtirishdagi yoʻldan foydalanish mumkin. Lekin bunda yuz tuzilishining enli va pachaq koʻrinishida ekanligini reallashtiruvchi vosita zarur. Buning uchun keltirilgan misolda ayrim tasviriy vositalardan foydalansa ham boʻladi. Shuningdek, unga berilgan sifatlanmish ham ahamiyat kasb etadi: – *Bogʻlar orasida pastak yapasqi uylar elas-elas koʻrinar, faqat qishloq oʻrtasidagi ulkan masjidning qubbador gumbazi charaqlab turar, u xuddi Afshona masjidini eslatar edi* (“*Koʻhna dunyo*”, 212-bet).

Puchuq 1 Yassi, yopishgan yoki shikastlangan (burun haqida). Rahimjon... juda xunuk edi: qip-qizil goʻsht, puchuq burnida dogʻlar, boshida tuk. A.Muxtor, Tugʻilish.

2 Qanshari past, burni yassi, yopishgan, kichik yoki shikastlangan. Puchuq bola. – Koʻsa va puchuq xonning boshidagi qimmatbaho toji xuddi sigirga urilgan egardek besoʻnaqay qoʻnqayib turardi. M.Osim, Elchilar. Puchuqning kelishdan maqsadi faqat shu yozib beriladigan xatgina edi. A.Qodiriy, Oʻtgan kunlar. Bizni haqorat qilib savayotgan kishi shu yerlarning egasi, mashhur Azim puchuq degan boy ekan. Gʻ.Gʻulom, Shum bola.

¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 6 jildlik, 3-jild. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 135-136.

3 Bolalarga nisbatan erkalash, suyish ma'nosida qo'llanadi. Puchuq qizim, muncha shirinsan. – Kichik Telman, sal puchuqqina, qoragina, o'zi sho'xgina. Mirtemir, Asarlar.

4 Jo'mragi singan yoki uchgan. Puchuq choynak. – Boyagi gapni ayt, deyapman! Sen puchuq obdasta o'lgurga kim qo'yibdi birovlarining ishiga aralashishni? S.Ahmad, Cho'l shamollari.

5 ko'chma Yapasqi, uchi kemtik (poyabzal haqida). Puchuq etik. — Oyoqlarida kavush o'rniga puchuq kalish. “Yoshlik”¹.

Puchuq sifatining integral semasi “burun” bo'lib, differensial semasi “yapasqi” ifodasini beradi. Uning integral semasini u bilan bir gapga kiritilgan *burun* so'zi namoyon etadi. Differensial semasini antiteza vositasida reallashtirish mumkin: – *Gulxan shu'lasida uning burni puchuq tund yuzi, qora telpakli katta boshi kora quzg'unday vahimali ko'rindi* (“Ulug'bek xazinasi”, 152-bet). Bu gapda *puchuq* so'zi *burun* organizmiga xos ekanligi, u “burun” integral semasiga ega sememali sifat ekanligi gapdagi *burun* so'zining mavjudligidan ma'lum. Uning differensial semasi *qirra* so'ziga qarama-qarshi qo'yilishidan namoyon bo'lgan: *Birodarim Ali! — dedi mavlono Muxiddin yig'lamsirab. — Ne qilay, men bir nogiron bandai ojiz bo'lsam...* (“Ulug'bek xazinasi”, 162-bet)

Bu leksemalar sememasining differensial semalari o'sha a'zolarining zararlangani patologiyasi kabilar bilan ifodalanuvchi mazmunga ega so'zlar bo'ladi. Masalan: *Shukurjonni yana uning butun vajohatidan yog'ilib turgan kuch-quvvat, ajin tegmagan cho'tir yuzining tiniq qizilligi hayron qoldirdi* (“Ota izidan”, 11-bet).

Cho'tir. Cho'tir bashara. — Sohib xunuk: chechak tufayli Yuzi cho'tir, so'qir bir ko'zi. Uyg'un, Tong qo'shig'i. Ayni suhbatda hozir bo'lgan cho'tir hisobchi masxaraomuz tirjaydiki, Yaxshiboyev bunda boshqacharoq bir sinoat borligini payqadi. M.M.Do'st, Lolazor.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik, 3-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 834.

2 G‘adir-budur, o‘nqir-cho‘nqir. Cho‘tir yong‘oq. — Cho‘lning cho‘tir betida chalakam-chatti o‘sgan yantoqlar qurib, sarg‘ayib yotibdi. H.G‘ulom, Zamin yulduzlari¹.

Xususan, ko‘rimsiz, chuvoq soqol, cho‘tir yuz, chag‘ir ko‘z kabi realiyalar badiiy matnda obrazning tashqi qiyofasiga ishora qilib keladi: *Shukurjonni yana uning butun vajohatidan yog‘ilib turgan kuch-quvvat, ajin tegmagan cho‘tir yuzining tiniq qizilligi hayron qoldirdi (“Ota izidan”, 11-bet).*

Olako‘z Oq qismi ko‘p, soqqasi birmuncha ko‘tarilgan katta ko‘z; shunday ko‘zli odam. Bir necha kundan keyin qo‘ng‘iz mo‘ylovli olako‘z kishi kelib, Mustafoni olib ketdi. S.Siyoyev, Yorug‘lik².

Masalan: ...chaqchaygan **olako‘zlar** bamisoli hujumga chog‘langan bo‘g‘ma ilonning o‘zginasi (*“Ota izidan”, 11-bet*). Bu misolda *olako‘z* sifatining ma‘nosini *chaqchaygan* so‘zi aniqlovchi sifatida berilgan so‘z reallashtirgan. Yana shu gapda *bamisoli hujumga chog‘langan bo‘g‘ma ilonning o‘zginasi* iborasi esa *olako‘z* otlashgan sifati ifodasiga qiyoslangan.

Shilqim Hol-joniga qo‘ymay xiralik qilaveradigan. Ming o‘rgilib, oldin sizga qaddin bukar, Oh-voh qilib, mug‘ambirlik yoshin to‘kar, Ertasiga unutadi sevgisini – Bilib qo‘ying shilqim oshiq belgisini. A.Po‘lat. U o‘zini rostlab olguncha bo‘lmay, boyagi shilqim yana paydo bo‘ldi va uning yelkasiga urib dedi: - Qoyilman, to‘ram. I.Rahim, Tinimsiz shahar. O‘taketgan shilqim, mahmadona Xol dallol, dehqonning qo‘lini siltayverib, jon-holiga qo‘ymadi. “Mushtum”³.

Shilqim sifatining differensial semasi qiyosiy vosita yoki uyushiq bo‘lak vositasida reallashtiriladi: – *Lekin bundan bir oy muqaddam, Sadafbibini ko‘rib, u bilan suhbatlashib qolgan birodari Abu Rayhon: “Joriyangni menga ber, mening uyimda xizmat qilsin, juda pok qiz ekan, bu shilqim mayxo‘rlar orasida unga jabr bo‘libdi”, deb qoldi (“Ko‘hna dunyo”, 14-bet).* Bu matnda ham *shilqim* so‘zining integral semasi aniqlovchisi orqali ifoda etilgan.

Ko‘r [f. كور – ko‘rmaydigan (odam)]

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 855.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 458.

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 632.

1 Ko‘rish qobiliyati yo‘q; so‘qir. Ko‘r odam. Bir ko‘zi ko‘r. Ko‘r hassasini bir marta yo‘qotadi. Maqol. Ko‘r ko‘rni qorong‘ida taniydi. Maqol. – Bektemir qorong‘ida, ko‘r singari tusmol bilan yurib, daraxtga boshini qattiq urib oldi. Oybek, Quyosh qoraymas.

2 ko‘chma Narsa, voqea, hodisa va sh.k. ning mohiyatiga tushuna olmaydigan; ongi yetilmagan, ongsiz, bilimsiz. Siyosiy ko‘r. – Ko‘zim ilgari ochilgan bo‘lsa edi, man o‘z yuragimni bo‘rilarga yedirarmidim? Qizim, kechir, bu adashgan, ko‘r dadangni kechir! Oybek, Tanlangan asarlar. ...osmondagi oylar ham, ko‘pchib yotgan yerlar ham – bari-bari seniki. T.Murod, Ot kishnagan oqshom¹.

Ko‘r sifatining differensial semasi uning biror belgisini ko‘rsatuvchi sifat u bilan uyushgan holda kelishi orqali yuzaga chiqadi: – *O‘zi cho‘pday oriq, bir ko‘zi ko‘r, puchak bo‘lsayam, yuragi otning kallasiday edi* (“*Ko‘hna dunyo*”, 96-bet). Bu gapda *ko‘r* so‘zi bilan uyushgan holda kelgan *puchak* so‘zi *ko‘r* so‘zining differensial semasining ochilishida ahamiyat kasb etgan.

Kal 1 Terining zamburug‘ kasalligi; ko‘pincha boshning sochli qismi va tirnoq zararlanadi; sochni to‘kib yuboradigan yuqumli teri kasalligi. Kal yuqtirmoq. Kalni davolamoq.

2 Shunday kasalga uchragan kishi. Kallar maxsus shifoxonada davolanadilar.

3 Boshning sochi to‘kilgan yeri. Boshning kalini bekitib yurmoq. – Xayr, mayli, – dedi boshqa bir ishchi, – ularning kal boshlarini miltiq dorisi bilan davolaymiz. S.Ayniy, Qullar.

4 Sochi butunlay yoki qisman to‘kilib ketgan kishi. Qalinroq o‘rtog‘im A‘zam kal hamma kallar singari gapga chechan, qochiriq gaplarni gapirib, mullavachchalarni va hattoki peshqadamlarni kuldirar edi. M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari. Odamlar meni kal deydi bo‘ldi! Ziyodulla kal emish! E, tavba-e, tavba-e! T.Murod, Ot kishnagan oqshom.

Kalning nimasi bor? – Temir tarog‘i bor! Bor (odatda, arziyas) narsani qizg‘anadigan xasis odam haqida aytiladigan matal.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 996.

5 ko‘chma Yerning o‘t-o‘lan chiqmay qolgan bo‘lagi; taqir. Yerning kali.

6 ko‘chma Jun-pati to‘kilib, taqir bo‘lib qolgan joy. Po‘stakning kali. Gilamning kali¹.

Kal so‘zining differensial semasi o‘xshatish qurilmasi yoki qiyos orqali reallashtiriladi: ...*ziyofatdan keyin uning yelkasiga beqasam to‘n yopib, bosvoldi qovunday taram-taram kal boshiga yangi chust do‘ppi kiygazdi...* (“*Ulug‘bek xazinasi*”, 214-bet). Ushbu matnda *kal* sifati sememasining differensial semasi o‘xshatish orqali reallashtirilgan.

Nogiron [f. ناگیرا – ta’sir qilmaydigan, ta’sir o‘tkazish qobiliyati yo‘q]

1 Ishga yaroqsiz bo‘lib qolgan, ojiz (odam yoki uning a‘zolari haqida). Nogiron bola. Uning bir qo‘li nogiron. – Po‘latjon... nogiron oyog‘iga qarab xo‘rsinib qo‘ydi. S.Ahmad, Qadrdon dalalar. O‘shanda u poliomiyelit kasalligiga qarshi emlash jarayonida shifokorning qo‘pol xatosi tufayli nogiron bo‘lib qolgandi. Gazetadan.

2 ko‘chma Noto‘g‘ri fikr yuritadigan, to‘g‘ri fikrga ega bo‘lmagan. Yoshlar o‘rtasida tanballar, ma’naviy nogironlar, noshukurlar hali ham bor. Gazetadan.

3 ko‘chma Yaroqsiz bo‘lib qolgan, kamchiligi bo‘lgan. Eskirgan va yoshini yashab bo‘lgan nogiron uskunalar g‘isht zavodlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatiga ham ta’sir qilayotganligiga chidab bo‘lmaydi. Gazetadan.

4 ko‘chma Yumuq, ojiz. Nogiron g‘unchalar ham birin-sirin ochila boshladilar. Sh.Rashidov, Bo‘rondan kuchli².

Nogiron so‘zining differensial semasi uyushgan aniqlovchilar tarkibida berish orqali reallashtiriladi: – *Umri bino bo‘lib, xastalikdan chiqmagan, qizday nimjon va nogiron farzandi bu zax hibsxonalarga, kana va burgalarga to‘la mash‘um zindonlarga tushsa... ne bo‘ladi?* (“*Ulug‘bek xazinasi*”, 102-bet). Bu gapda *xastalikdan chiqmagan, qizday nimjon* belgi ifodalovchi aniqlovchi, ular bilan uyushgan aniqlovchi vazifasida *nogiron* sifati berilgan. Uyushgan bo‘laklar o‘z qatoridagi *nogiron* sifatining differensial semasini ochish uchun xizmat qilgan.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 716.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 386.

Chunki *nogiron* belgisiga ega odam xastalikdan chiqmagan va qizday nimjon bo'ladi.

“Didga mos emas, yoqimsiz” arxisemali sifatlarning integral semasi “organ yoki organlar” bo'lgan guruhi aniqroq nomlansa, integral sema “organ yoki organlar” deb olinmay, shu organlar nomi bilan qayd etiladi. Uning differensial semasi shu organning nuqsonini ko'rsatishdan iboratdir. “Didga nomos, yoqimsiz” arxisemali va integral semasi “organ yoki organlar”ni bildiruvchi semali sememaga ega leksemalar *ramaqijon*, *beso'naqay* kabilardan iboratdir. Bu “didga nomos, yoqimsiz” arxisemali integral semasi “organ yoki organlar” ifodasidan iborat sememali leksemalarning *cho'ltoq*, *cho'loq*, *oqsoq*, *chinoq*, *puchuq* sifatlardan iborat guruhi shikastlanganlik ifodasini beruvchi differensial semaga egadir.

Cho'loq 1 Oyog'i mayib; oqsoq. Cho'loq kishi. Cho'loq qush. Cho'loq bo'lsang ham, no'noq bo'lma. – Ibroyim cho'loqning so'zlaridan so'ng uzunquloq mahobatlar urchigani muqarrar. M.M.Do'st, Lolazor. [Juvonning eri]

Cho'loq bo'lsa, devor oshib, o'g'rilik qilib [cho'loq] bo'lmagandir. O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi. Odamlar ahmoq emas, bo'lar-bo'lmasga gapiraverishmaydi, – dedi Jo'ra cho'loq. T.Malik, Shaytanat. Bir oyog'i cho'loqligi, ko'zi yaxshi ko'rmasligi biz uchun ikkinchi daraja bo'lib qoldi. Gazetadan

2 Qo'li yoki oyog'i yo'q; nogiron. Qo'li cho'loq odam.

3 s.t. Oyog'i siniq, singan (stol, stul va sh.k. haqida). Cho'loq stul. – Besh-olti odam baravar bostirib kirib avval cho'loq divanni, so'ng stol-stullarni, so'ng xira televizorni olib chiqib ketishdi. T.Malik, Shaytanat. Cho'loq ketmon Dastasi kalta yoki singan ketmon¹.

Cho'loq sifati “oyog'i shikastlangan, kalta yoki yo'q”ligi “yoqimsiz” semalariga ega. Shulardan “shikastlangan, kalta yoki yo'q” semasi differensial sema hisoblanadi. Uning shu semasini illyustrativ misol orqali reallashtirish zarur: – **Cho'loqni kelishini qarang...** (“*Tengdoshlar*”, 107-bet). Yog'och oyoq taqib yurish cho'loqlikdan nishondir. Bu sifatdan anglashilgan belgi faqat insonlargagina

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 847.

emas, hayvonlarga, mebellarga nisbatan ham qo‘llanadi. Ya’ni illyustrativ misolni ulardan ham tanlash mumkin.

Oqsoq 1 Oqsab yuradigan; bir oyog‘i kalta yoki cho‘loq. Oqsoq qorovul undan ko‘zini olmay, qo‘ltiqtayog‘ini to‘qillatganicha, zinadan tushdi-yu, anhor ko‘prigidan berida to‘xtab qoldi. A.Qahhor, Kartina. Jangchilar haligi kichkina, oriq, yupun oqsoqqa “o‘rtoq mayor” deb murojaat qilardilar. Oybek, Quyosh qoraymas.

2 ko‘chma Orqada qolayotgan, qoniqarsiz, past daraja yoki saviyadagi. Oqsoq soha. Ishning oqsoq tomonlari¹.

Oqsoq sifati “oyog‘i kalta”ligi bilan yoqimsiz” semalariga ega sememalidir. Shulardan “kalta” differensial semasi, “oyoq” integral semasi hisoblanadi. Uning integral semasini reallashtirish uchun *oyoq* so‘zi bilan bir predikativ qo‘shilmada yoki aniqlovchili birikmada berilishi kerak. Differensial semasi gap davomida berilgan tasvir bilan namoyon etiladi: – *Bir oyog‘i oqsoq chol qiyshanglaganicha chopqillab kelib, panjara eshigini ochdi (“Pyesalar”, 225-bet)*. Bu gapdagi *oyog‘i oqsoq* predikativ qo‘shilmasida *oqsoq* so‘zi sememasining integral semasi namoyon etilgan. Gapdagi chol harakatiga bag‘ishlangan qismida oyoqning kaltaligini ifodalovchi differensial sema yuzaga chiqarilgan. Bu sifat faqat odamga nisbatan qo‘llaniladi.

Cho‘ltoq 1 Yulingan, kesilgan, kalta, to‘mtoq. Cho‘ltoq dum. – [Normat:] Sharif otolmaydi – qo‘li cho‘ltoq. “Yoshlik”. Yo‘l yoqasidagi yalang‘och daraxtlar cho‘ltoq supurgiday qaqqayib turibdi. S.Nurov, Narvon. Cho‘pon bola yaylovda zerikib o‘tirganida, urushda ko‘rganlarini cho‘ltoq qalam bilan bir parcha qog‘ozga tushira boshlaydi. M.M.Do‘st, Lolazor.

2 ko‘chma To‘la bo‘lmagan, to‘mtoq. Cho‘ltoq javob. Inshoni cho‘ltoq qilib qo‘yibsiz. Javob cho‘ltoq bo‘lib qoldi. – “Badiiy tomoni” haqida esa, shunchaki, haligiday kamchiliklardan xoli emas, ma’nosida cho‘ltoq gaplar qilinardi, xolos. Sh.Xolmirzayev, Saylanma².


¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 510.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 848.

Cho'ltoq sifatining sememasidagi semalar tarkibi *oqsoq* sifatidagi semalar tarkibidan deyarli farq qilmaydi. Faqat *cho'ltoq* so'zi buyumlarga nisbatan ham qo'llanishi bilan undan farq qiladi: – *Oyog'i cho'ltoq supurgini endi ko'ryapman* (“*Pyesalar*”, 18-bet). Bu gapda *cho'ltoq* sifatining differensial semasi *cho'ltoq supurgini endi ko'ryapman* birikmasi orqali ochib berilgan.

– *To'ng'ich o'g'il amir Mas'ud qolib, kichik o'g'il, aqli noraso Muhammadni taxtga ko'tarmoq rejasini tuzadurlar!* (“*Ko'hna dunyo*”, 33-bet)

2.2.1-jadval.



Jismoniy nuqson bilan bog'liq holat sifatlarining ma'nosini misollar orqali reallashtirishni tadqiq etar ekanmiz, quyidagicha xulosaga keldik:

1. Jismoniy nuqson bilan bog'liq holat sifatlar semantik maydoniga kiruvchi barcha sifatlar sememasi “didga mos emaslik” semasiga ko'ra umumlashadi, ya'ni bu sema uning arxisemasi bo'lib qoladi hamda bir paytning o'zida bir necha lingvokulturologik fonni yaratadi.

2. Jismoniy nuqson bilan bog'liq holat sifatlar sememasi salbiy ifodani bildiradi. Ba'zan disfemizm sifatida qo'llanilib, kishining ruhiyatiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Ba'zida jismoniy nuqson an bog'liq sifatleri qo'llash kishilik jamiyatida shaxsni boshqalardan ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi.

3. Sememasi “didga mos emaslik, yoqimsiz” arxisemali sifatlar “ko‘rinish”, “organlar” hamda “tashqi holat” integral semalari bo‘yicha uch semantik guruhni tashkil etadi.

4. Sifatlar ma’lum integral semasi bo‘yicha guruhchalarga bo‘linar ekan, bu guruhga kiruvchi har bir sifat sememasi differensial sema bo‘yicha o‘ziga xos ifodalandi. Ilyustrativ misollar keltirishda mana shu differensial semalarni reallashtirishga harakat qilindi. Odil Yoqubov asarlaridagi nuqson bilan bog‘liq holat sifatlarining lingvokulturologik tomonlari tahlilga tortilganda yana quyidagilarga e’tibor berish lozim:

a) Odil Yoqubov asarlari matnida sifat aniqlanmish bilan birikma tarkibida, subyekt bilan predikativ qo‘shilma tarkibida berilib, bu sintaktik butunliklar o‘z klassemasiga ega ekanligi aniqlandi. Bu klassema sifatning differensial semasi asosiga qurildi;

b) holat bildiruvchi sifat gap tarkibiga kiritilar ekan, shu gap tarkibida uning ma’nosini tavsiflovchi qurilma ham berilishi kuzatildi;

d) holat sifatlarining semantik strukturasini reallashtirish uchun uning o‘xshatish qurilmasi tarkibiga kiritilib, o‘xshatish asosi sifatida qayd etildi. Bunda uning differensial semasini o‘xshatish etaloni reallashtirdi hamda konsept sifatida namoyon bo‘lishi matnlar asosida dalillandi;

e) holat bildiruvchi sifatlar uyushgan sifatlovchilardan biri sifatida gapda tanlanishi ham uning semantik tarkibini ochishda rol o‘ynaydi;

f) holat bildiruvchi sifatlar gap tarkibida berilar ekan, shu gapda uning antitezasi keltirilishi ham realizatorlik vazifasini o‘taydi;

g) holat bildiruvchi sifatarning differensial semalarini reallashtirish uchun, u ifodalangan gap bo‘lagiga majoziy ma’noda ajratilgan bo‘lak ilova qilinganini aniqladik;

h) holat bildiruvchi sifatarning semantikasini reallashtirishga uni uyushgan bo‘laklarning umumlashtiruvchi bo‘lagi sifatida berish orqali ham erishildi.

2.3-§. Yosh bilan bog‘liq sifatlarning lingvomadaniy xususiyatlari

Tildagi har bir so‘z boshqa so‘zlardan ajralgan holda mavjud bo‘lmaydi, balki ular bilan turli ma‘naviy aloqalarga kiradi. So‘zlararo ma‘naviy (mazmuniy) munosabatlar ularning leksik-semantik variantlari negizida qaror topadi. Leksik-semantik variantlar tilga xos leksik-semantik tizimning sodda birliklari tarzida namoyon bo‘ladi. O‘z navbatida, leksik-semantik variantlar so‘zlarning yirik birlashmalari-leksik-semantik guruhlar hamda semantik maydonlar tarkibiga kiradi.

Hozirgi tilshunoslikda sifat turkumi doirasida, asosan, quyidagi LSG ko‘rsatiladi:

- 1) temporal “vaqt ma‘noli” sifatlari;
- 2) makon sifatlari (hajm, masofa, ko‘lam semasiga ega so‘zlar);
- 3) yosh sifatlari;
- 4) maza-ta‘m sifatlari;
- 5) insonning ichki dunyosi, xususiyatini ifodalovchi sifatlari;
- 6) rang-tus sifatlari;
- 7) tashqi fizik yoki qiyofaviy xususiyatni ifodalovchi sifatlari va h.k.¹

O.Yoqubov asarlarida qayd etilgan sifat leksemalarning semantik guruhlar ham ta‘kidlangan mustaqil LSGdan deyarli farqlanmaydi. Mumtoz adabiyot namoyondalari, xususan, Alisher Navoiy asarlarida inson umri to‘rt qismga – bolalik, yoshlik (navqironlik), o‘rta yoshlik va keksalikka taqsimlangan holda kuylangan. O.Yoqubov asarlarida ham odam umrini mana shunday davrlarga ajratib, ularni anglatuvchi sifat leksemalarni qo‘llaydi:

– *Tashakkur, azizim! – Malik ul-sharob mast-alast mayxo‘rlarni sira xushlamas edi, biroq bu yosh sayyohning sarmast qiliqlari yosh bolaning*

¹ Қаранг: Кононов А.И. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л., 1960. – С. 144 - 145; Сравнительно — историческая грамматика тюркских языков I. – М., 1988; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1985. – Б 12; Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974; Ҳамдамова И. Ўзбек тилида сифатларнинг маъно турлари ва уларнинг “Ўзбек тили изоҳли луғати”да берилиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1984; Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Тожиматов Ҳ. Сифат семемасининг реаллашувида контекст: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007 ва б.

erkalanishlariday samimiy va yoqimtoy edi. (“Ko‘hna dunyo”, 20-bet) // – O, mirzam, mirzam? – deb oppoq boshini sarak-sarak qildi. – Qo‘ying shu may-u sharbatxonangizni! Payg‘ambar yoshiga bordingiz mana!.. (“Ko‘hna dunyo”, 19-bet)

To‘ng‘ich. Eng katta farzandga nisbatan ishlatilgan. Tegirmonchi hali o‘g‘lining qo‘lini halollamagan edi. Bir kuni qarasaki, to‘ng‘ichi bu yoqda tursin, kenjatoy o‘g‘lining-da bo‘yi cho‘zilib qolibdi. Z.Qurolboy qizi, Qadimiy qo‘shiq.

“To‘ng‘ich, farzandlarning kattasi”, “kichik, farzandlarning kichigi”, “kenja, farzandlarning kichigi” ma‘nosi **to‘ng‘ich o‘g‘il, kichik o‘g‘il, kenja qiz** sifatлари orqali ifodalanadi: – **To‘ng‘ich o‘g‘il** *amir Mas‘ud qolib, kichik o‘g‘il, aqli noraso Muhammadni taxtga ko‘tarmoq rejasini tuzadurlar!* (“Ko‘hna dunyo”, 33-bet) –*Generalning hovlisi etagida xo‘jalik uyi va ombori ham bo‘lib, barcha unvonlaridan va imtiyozlaridan ayrilgan general ikki qizi, biri 22—23 yashar Chiko san va kenja qizi Moriko bilan hovli etagidagi torgina xo‘jalik uyida turishar ekan.* (“Qaydasan, Moriko?”, 3-bet)

Umrning to‘rtinchi davrida hayot kechiruvchi insonlar, ya‘ni “qari, keksalar” ijodkor asarlarida ma‘nodoshlik qatorini shakllantiruvchi “oq soch”, “oq sochli”, “soch-soqoli oppoq” leksemalari ishtirokida ochib berilgan: – **Soch-soqoli oppoq, mittigina, lekin zuvalasi pishiq Abu Nasr Mishkon janoblari ham uni ko‘rib, yaqinroq keldi.** (“Ko‘hna dunyo”, 68-bet)

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keksa va qari leksemalari quyidagicha izohlangan:

Keksa 1 sft. Uzoq yashab katta yoshga yetgan, umrining oxirgi bosqichini yashayotgan; qari. Keksa odam. Keksa ayol. Keksa chinor. – Quyosh endi tig‘ yoya boshlagan salqin sabohda Qorabuloq qishlog‘idan biri keksa, biri yosh – ikki otliq chiqib kelaverdi. M.Ismoiliy, Farg‘ona t.o. Ana, keksa qayrag‘och, uning tunuka tom ustiga engashgan azamat shoxi qurib qolibdi. S.Ahmad, Qadrdon dalalar. ...keksa tol o‘z bag‘rida tin olishni xush ko‘radigan jonivorlarni tashqi nigohdan saqlash va ihotalash uchun uzun novdalarini yerga egib, o‘ziga xos “o‘tov” hosil qilgandi. N.Norqobilov, Tog‘dagi yolg‘iz odam. Uning [sharpaning]

tovushi xuddi lahaddan chiqayotgandek chiyillab chiqdi, oyoq tovushlari deyarli eshitilmaganiga qaraganda, u oyoqlarida madori qolmagan keksa kishi edi. N.Eshonqul, Go‘r o‘g‘li yoxud Hayot suvi.

2 ot Keksalar yoshdagi shaxs; qariya. Keksalar choyxonasi. Keksalar o‘giti. – Keksalar bo‘lsa, bunday issiq o‘ttiz yil burun bo‘lganini, o‘shanda ham shahar tovaday qizib, odamlar atrof chorbog‘larda jon saqlashganini eslashardi. Mirmuhsin, Umid. Keksalarining aytishicha, bunday paytlarda bironbir tepalikning ustiga chiqib, jimgina quloq solib yotsangiz, yerning nafasini eshitarmishsiz. O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol.

3 ko‘chma Uzoq yillardan beri mavjud, ko‘p yillarni ko‘rgan; qadimiy, eski. Keksalar bilim dargohlaridan biri. – Har bir xalqning og‘zaki badiiy ijodiyoti u xalqning tarixi qadar keksadir. “O‘TA”. Ey keksalar buloqlar, eski qadrdon, O‘ynoqi umrimday jo‘shib oqdingiz. G‘ayratiy. Shunday yorqin, shunday oydin zamoni ham bo‘larmikin bu jafokash keksalar dunyoning?! M.Ismoilov, Farg‘ona t.o. Keksalar tortmoq Keksalar boshlamoq, keksalarning belgilari bilinmoq. Lekin kunlar o‘tib, To‘ti xola rangi siniqib, ko‘zlari kirtayayotganday, keksalar tortib qolayotganday bo‘ldi. “Guldasta”. Keksalar-yu yosh Hamma, barcha. Xayol surish yaxshi bolaga o‘xshab, Orzu yarashadi keksalar-yu yoshga. A.Oripov, Everest va ummon¹.

Qari I 1 Ancha yoshga borgan, qartaygan; keksalar. Qari kishi. Qari ot. Qari tol. Yosh-u qari(lar). Qari bilganini pari bilmas. Maqol. – Qari ham, yosh ham uning oldida odob saqlayotgandek, askiyaga ortiq og‘iz ochmadi. M.Ismoilov, Farg‘ona t.o. Keksalar qari Katta odamlardek fikr yurituvchi bola, mahmadona. Qari qiz q. qariqiz I. Juvon shuning uchun erdan qolgan qari qiz bo‘lsa kerak, degan xayolga bordi. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

2 ko‘chma Uzoq o‘tmishga ega. Yetib kelar muzday shabada... Qari tog‘ ning xo‘rsiniqlari. Sh.Rahmon, Yurak qirralari. Yozdi qari tarix sahifasiga Tarixni titratgan bir so‘z – larzakor. Mirtemir.

Qari II tar. O‘rta Osiyoning turli hududlarida turlicha miqdorni ifodalagan, ip, ipakdan tayyorlangan gazlamalarni, ba‘zan masofani o‘lchash uchun qo‘llangan

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 797-798.

uzunlik o'lchovi birligi: Xorazmda 149 sm ga, Toshkentda 189 sm ga, Farg'onada 164 sm ga, Buxoroda 320 sm ga teng bo'lgan. Ishtonsizning tushiga ikki qari bo'z kiribdi. Matal. – To'qson qari bo'zdan bo'lgan kissasi, Shundoq qalmoq aylanadi maydonda. "Alpomish"¹.

O.Yoqubov asarlari matnlarida, umuman, "qariyalar, keksalar" semasi **qari**, **keksa** leksemalari bilan anglashilgan. – *Xo'p, u yog'i-ku shunday bo'ldi, endi bu yog'i ne bo'ladi? Taqdiri ne kechadi? O, qarib quyulmagan nodon! Bir oyog'ing yerda bo'lsa, bir oyog'ing go'rda turganida hazrat Ibn Sino bo'lishni orzu qilgan miyasiz eshshak!. ("Ko'hna dunyo", 110-111-bet) // – Yo, tavba! Soch-soqoli o'sib ketgan bu **keksa** meshkobchi kimgadir o'xshar, juda-juda o'xshardi! ("Ko'hna dunyo", 219-bet) **Qari** leksemasi XIII-XIV asr turkiy til yodgorliklarida, Xorazm obidalarida nisbatan faol qo'llangan, u shaxs yoshini anglatuvchi ma'nosini saqlab qolgan.*

Muallif "keksa, qari" ma'nosini ifodalashda asarning badiiyligini oshirishga xizmat qiluvchi "oqsoch" so'zini iste'molga kiritadi va uni **ko'kchin** leksemasining mutlaq ma'nodoshi tarzida qo'llaydi: – *Kechalari esa yoniga yo'latmaydi, na uning ohu faryodlariga quloq soladi, na keksa **oqsoch**ning pand-u nasihatlari-yu do'q-pisandalariga!.. ("Ko'hna dunyo", 423-bet)*

Ulug' (< ul = "yuqorilamoq; yuqori bo'lmoq" + (u)g') derivati qadimgi va eski turkiy tilda yetti: 1) "katta, hashamatli (hajman)"; 2) "katta (yosh jihatdan)"; 3) "ulug', buyuk"; 4) "kuchli, baland (ovoz)"; 5) "baland, katta (tog')"; 6) "og'ir, qiyin"; 7) "o'ta, juda" semani bildirgan. Xususan, "Irq bitig"da "ulkan", To'nyuquq bitigtoshida "katta", "Oltun yoruq"da "kuchli, og'ir", Turfon tekstlarida "juda, o'ta", "Devonu lug'otit turk"da "buyuk", moniy yodgorliklarida "kuchli, baland, tovush" semalarini bildirgan. O.Yoqubov mazkur polisemantik so'zni shaxsga nisbatan ham ishlatgan: – *Siz Abu Sahl Masihini aytasiz! **Ulug'** alloma ul, momojon! ("Ko'hna dunyo", 149-bet)*

Shu niyatda telba hokimga har kuni huqna qilar, og'ziga doru quysa, suyulgan miyasiga ezgu istaklar, adolatli shohlar haqidagi ertak va rivoyatlar,

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik, 4-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 63-64.

buyuk allomalarning **buyuk** orzularini “quyishga” tutinardi. (“Ko‘hna dunyo”, 329-bet)

– Bilmam, ustod!.. Faqir aqlim kirdimi, yo‘qmi – buni ayto olmaymen. Ammo... **buyuk** alloma Suqrot aytganidek, shuni bildimki, hanuz hech narsani bilmas ekanmen, ustod! (“Ko‘hna dunyo”, 415-bet)

Sohibqiron. Nechun O‘tror-u Samarqand, Buxoroga, Urganchday **muazzam** shaharlarimga o‘t qo‘yib, shaqallar makoniga aylantirding? (“Avlodlarga vasiyat”, 125-bet)

Kechagina bahor giyohlarining o‘tkir va xushbo‘y atrini sochib esgan iliq shabada bugun tanani junjiktiruvchi sovuq shamolga aylangan, bu shamol ostida yo‘l bo‘yidagi daraxtlar – **azim** chinorlar, quloch yetmas oq teraklar, sadalar, arg‘uvonlar asov daryoday shovullar, go‘yo ko‘kka talpingan ulkan qora qushlarday talpinar, yulqinar edi!.. (“Ko‘hna dunyo”, 59-60-bet)

Bepoyon dasht artilgan tilladay tiniq **yirik** yulduzdarga to‘la, go‘yo osmon bilan dasht qo‘shilib ketgan-u oppoq **yirik** yulduzlar bahorgi giyohlar orasiga tariqday sochilib ketgan, go‘yo ularni hovuchlab terib olsa, hovuchlab sochib yuborsa bo‘ladi. (“Ko‘hna dunyo”, 200-201-bet)

Bu vohaning yana bir g‘alati tomoni shundakim, daryoning ikki yonidagi xarsangtoshlarga Budda degan hindlar ma‘budining ikki **bahaybat** haykali o‘yib yasalgan. (“Ko‘hna dunyo”, 364-bet)

Yopiray! **Ulkan** boshini horg‘in osiltirib kursida uxlab yotgan bu mo‘ysafid... nahot o‘sha Abu Ali ibn Sino bo‘lsa? Beruniy bilgan Abu Aliga ham o‘xshar, ham o‘xshamas edi! (“Ko‘hna dunyo”, 413-bet)

Keksa sayyohning allaqanday ichki dard bilan aytgan bu so‘zlarida, xushsurat chehrasida, serviqor nigohida kishini o‘ziga rom qiluvchi shunday **zo‘r** bir iqtidor bor ediki, Malik ul-sharob beixtiyor qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, unga ta‘zim qildi. (“Ko‘hna dunyo”, 21-bet)

Kichik [f. کوچک – kichik, mayda; uncha katta bo‘lmagan] 1 Tuzilish, hajm, o‘lcham jihatdan nisbatan katta bo‘lmagan. Kichik o‘rmon. Kichik shahar. Kichik bino. Kichik tosh. Kichik arava. Kichik xo‘jalik. Kichik gavda. – [Otabek]

Ayvonning narigi yoni bilan... bir bog‘chagami, maydongami chiqilishini bilib, shu yoqqa yurdi va kichikroq bir mevazorga chiqdi. A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. Qumda talanib, boryo‘g‘idan ajralgan kichik karvon sochilgan narsalarni yig‘ib, otlarni egarlab, aravalarga qo‘shishga hozirlik ko‘rdi. Mirmuhsin, Me‘mor. Yo‘q, bunday bo‘lishi mumkin emas. Anavi kichik jangchicha ham yo‘qmanmi? Shuhrat, Shinelli yillar.

2 Sig‘imi, sath o‘lchami katta bo‘lmagan; tor. Kichik hovli. To‘n unga kichik keldi. – Aksar shahar uylaridek, usta Bahromniki ham ikki xona, bir ayvondan va kichik sahndan iborat, tashqisiz eshik edi. M.Ismoil, Farg‘ona t.o.

3 Yoshi o‘rta darajadan past, o‘rta darajaga yetmagan; keksaning aksi, yosh. Kichiklarga muruvvat qil, kattalarni hurmat qil. Maqol. Bir kattaning gapiga kir, bir – kichikning. Maqol.

4 Nisbatan yoshi past (kam) bo‘lgan. Kichik o‘g‘il. Kichik amaki. Ikki yosh kichik. O‘zidan kichik do‘sti. – Bolalardan kichikroqlari chopqillashib, Saodatxondan o‘zib ketishdi. S.Zunnunova, Yangi direktor. Sidiqjon unga murojaat qilganida, o‘zidan kichik bo‘lsa ham, “Ziyodaxon opa” der edi. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

5 Vazifa, lavozim darajasi past, quyi. Men o‘n bir yil shu idorada kichik bir lavozimda ishladim. “Guldasta”. Buxoroda ustoz Najmiddin Buxoriy kabi katta me‘mor bo‘lmasa ham, kichiklari bor. Mirmuhsin, Me‘mor.

6 O‘zi birikib kelgan so‘z bildirgan amal, kasb va sh.k. ning quyi, past, boshlang‘ich darajasini bildiradi. Kichik ilmiy xodim. – Yaxshi yigitlar – armiyaning husni. Kuzga borib, bularni kichik komandir qilib chiqaramiz-a? Shuhrat, Shinelli yillar. Kichik bir master bo‘lib chiqardi otin... G‘ayraty.

7 Ahamiyat, mohiyat jihatdan katta bo‘lmagan; arziyas, muhim bo‘lmagan. Kichik xato. Kichik bir mulohaza. – Hanifa... o‘z zvenosining kichik bir muvaffaqiyati shunday katta majlisda og‘izga tushadigan bir voqeaga aylanib ketishini sira kutmagani uchun... qattiq xijolat tortdi. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. Katta boshini kichik qilib O‘zini past olib, kamtar tutib, kamtarlik bilan (o‘z martabasi, mavqeyi va sh.k. holatiga nisbatan olinadi). Rais ham katta boshini

kichik qilib, ko‘pchilikning oldida: -Gapirgan adashadi, yurgan qoqiladi, – dedi. S.Nurov, Narvon. Sorokinning polkidagi g‘alayonlarni yashirish uchun Vladimir Yakovlevich katta boshini kichik qilib, praporshikni o‘z himoyasiga olishga majbur bo‘ldi. A.Muxtor, Chinor. Kichik tortmoq Kichik holga kelmoq; ozmoq (gavda, tana haqida). Bir vaqtlardagi gavdali pahlavon Qobil endi kichik tortib ketgan, kesakrang yuzini, nursiz ko‘zlarini hadeb eldan yashirar edi. H.G‘ulom, Mash‘al¹.

– Qochamiz. Pinhona qochamiz, ustod... Kamina **kichik** bir karvon bilan ahdlashib qo‘yganmen. Mavlono Masihiy ham ketmoqqa bel bog‘lagandur, ustod. (“Ko‘hna dunyo”, 157-bet)

Kichik so‘zining qadimda uch ma’noda ishlatilgan. Bir ma’nosi “kichik, kichik bo‘yli”, ikkinchi semasi yosh jihatdan “kichik”, uchinchi mavhum “kichik (mavqeyiga ko‘ra)” ma’nolarini anglatgan. Demak, VII asrdayoq **kichik** leksik birligi ijtimoiy ma’noda qo‘llangan. Oddiy xalq vakiliga nisbatan “past nasl-nasabli” ma’nosini ifodalagan, “olijanob, aslzoda, zodagon; oqsuyak” ma’nosidagi **ulug‘** so‘ziga qarama-qarshi qo‘yilgan. Shuningdek, **kichik** leksemasi Turfon matnlarida “kichkina, mo‘jaz”, Kultegin bitiktoshida “bir oz” ma’nosida aks etgan. “Oltun yoruq”da “kenja, kichik” semasini ifodalagan. Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida so‘zning ayni yuqorida keltirilgan baytdagi singari “kichik (jamiyatdagi o‘rniga ko‘ra)” ma’nosi qayd etiladi. Aytilganlardan, **kichik** leksemasining qadimgi turkiy til davridan ijtimoiy (sotsial) tushunchaga ega bo‘lganligi haqida xulosaga kelsa bo‘ladi.

*Bu bog‘lar ichida oq, qizg‘ish, nafis havorang marmardan qurilgan ko‘rkam binolar, ko‘shklar, **kichik-kichik** saroylar ko‘zga chalinadi.* (“Ko‘hna dunyo”, 65-66-bet)

*Durust, sultonning o‘zi allaqachon **kenja** o‘g‘li shahzoda Muhammadni valiahd deb fatvo bergan.* (“Ko‘hna dunyo”, 81-bet) // *To‘ng‘ich farzandi amir Mas‘udni G‘azna taxtidan mosuvo qilib, erkatoyni **kenjatoyi** shahzoda Muhammadni taxtga o‘tqazishmi?* (“Ko‘hna dunyo”, 189-bet) // **Kichkina** Abu Ali onasi

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 864-865.

Sitorabonuning iliq kaftini tutib, cho‘lp-cho‘lp o‘padi, yuziga, ko‘zlariga surtadi.
(“Ko‘hna dunyo”, 201-bet)

O‘zbek mentalitetida hurmat shaxslararo munosabatda muhim omil sanaladi. Hurmat munosabat subyektlarining yoshidan, mavqeidan qat’iy nazar, ikki yoqlama bo‘lishi talab etiladi. Ya’ni kattaga kichik hurmati yarashgani singari, katta ham kichikdan hurmatini darig‘ tutmasligi lozim. O.Yoqubov asarlarida “katta yoshli, ulug‘” semasi **ulug‘**, uning ziddi “kichkina, yoshi kichik” ma’nosi **kichik** leksemalari bilan ifodalanadi: – *Beruniy **ulug‘** donishmandlarda chuqur ilm va o‘tkir zakovatdan tashqari qandaydir nozik, ilohiy bir tuyg‘u bo‘lishini bilardi.* (“Ko‘hna dunyo”, 431-bet) // *Perronning oxiriga borib qolganimizda, orqadan: – Mayor! – degan qat’iy, dag‘al ovoz eshitildi. Baland bo‘yli podpolkovnik bilan ikki **kichik** ofitser shitob bilan yaqinlashib kelardi. Ular yonimizga kelib, bizni qurshab olishdi.* (Qaydasan, Moriko?, 10-bet)

Baobro‘ [ba.. + obro‘] ayn. obro‘li. To‘yni boshqarib borish – nozik masala. Raislikni olib borish baobro‘, madaniyatli, so‘zga chechan odamga topshirilsa, shodiyona maromida o‘tadi. Y.Rajabiy, To‘ylar haqida o‘ylar¹.

Duogo‘y. O‘tirganlar dast turib, xon duogo‘yiga qulluq qiladilar. S.Siyoyev, Avaz.

2 ko‘chma Kimsaga yaxshiliklar tilovchi; mehribon. Sen bo‘lgaysan duogo‘yim, Jonim ena, xush qol endi. “Murodxon”. Aftidan, kampirim qazo qilganga o‘xshaydi. Duogo‘yimdan ayrildim, elat! Oybek, Quyosh qoraymas.

3 bemorlarni davolovchi shaxs. Uning [professorning] otasini tanirdim, katta duogo‘y, qaytarma qiladigan kishi edi. N.Eshonqul, Go‘r o‘g‘li yoxud Hayot suvi.

4 Issiq-sovuqchi, azayimxon. -Men shu vaqtgacha duogo‘ydan hech shifo topmaganman... – dedi Qalandar degan bandi. S.Ayniy, Doxunda².

Hoy, ahli mo‘min, yaxshilar,

Eshitmadik demanglar!

*Luqmon hakim **duogo‘y**,*

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 275.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 937-938.

Pirlaridan **baobro'y**,
Ibn Sino nomi bor,
Yetti iqlim dong'i bor!
Dard yo'qdir ul bilmagan,
Chorasini qilmagan!
Baloni daf etadi,
Qazoni daf qiladi.
Ahli iymon, yaxshilar,
Eshitmadik demanglar!.. ("Ko'hna dunyo", 103-bet)

Duoxon [a.+ f. دعاخوان – yaxshi tilak tilovchi] ayn. duogo'y 4. Bolani ko'rsatmagan... duoxon, azayimxon, qasidaxon... qolmadi. "Oltin olma". Ko'hna arkning ichkari, tashqarisi duoxonlar, ko'chiriqchilar, romchilar, azayimxonlar, qalandar-u munajjimlar bilan to'la. S.Siyoyev, Avaz¹.

Ushbu arxitepning O.Yoqubov asarlarida uchramasligini aniqladik.

Donishmand [f. دانشمند – olim, bilimli, dono] Mavjud ilm-u hikmatlarni egallagan, ba'zi voqea-hodisalar haqida oldindan bashorat qila oladigan; bilimdon; olim; dono. Donishmand odam. Jasurni – jangda, donishmandni – g'azablanganda, do'stni muhtojlikda sina. Maqol. – Tiriklikning belgilaridan biri – muhabbat, deb bekor aytmagan donishmandlar. Shukrullo, Saylanma. Bir donishmand: "Soli nek az bahor ma'lum ast", ya'ni "yilning yaxshi kelishi bahordan ma'lum", deb aytgan ekan. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. ...ne-ne donishmandlar quyosh va oyning, behisob yulduzlarning go'zalligiga mahliyo bo'lmaganlar! Qiziq, osmon yoritqichlarining jozibasi nimada? X.Do'stmuhammad, Yolg'izim – Siz².

O.Yoqubov asarlarida ham donishmand steriotepining faol qo'llanganligiga guvoh bo'ldik: *Nechun hamma davri davron, hamma davlat va hamma shox va fotihlarning tarixini besh qo'liday biladigan bu zukko **donishmand** toj va hokimiyat hech bir kimsaga vafo qilmaganini tushunmadi yoxud tushunsa-da, uni tark etishga irodasi yetmadi?* ("Ulug'bek xazinasi", 9-bet)

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 938

² O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 899.

Beruniy **ulug‘ donishmandlarda chuqur** ilm va **o‘tkir** zakovatdan tashqari qandaydir **nozik, ilohiy** bir tuyg‘u bo‘lishini bilardi. Ibn Sinoda bu **ilohiy** va **noyob** tuyg‘u, ayniqsa, **kuchli** ekanini Beruniy birinchi daqiqalardan oq sezdi. (“Ko‘hna dunyo”, 431-bet)

Qo‘rqoq Har narsadan qo‘rqaveradigan, yuragi yo‘q, yuraksiz. Zilzila uni yanada qo‘rqoq, bo‘lar-bo‘lmasga cho‘chiydigan qilib qo‘ygan edi. N.Aminov, Qahqaha. Qo‘rqoq o‘lmasdan burun o‘ladi, o‘likdan nima kutib bo‘ladi? Uyg‘un, Hayot qo‘shig‘i. Qo‘rqoqqa ko‘lanka azroil, deyдилar. A.Qahhor, To‘yda aza¹.

– Hikmatillo juda tortinchoq bo‘lsayam, **qo‘rqoqlardan emas**. Tortinchoqlik boshqa, qo‘rqoqlik boshqa. (“Billur qandillar”, 41-bet)

Ushbu konseptdan anglashiladiki, qo‘rqoqlik inson hayotining ajralmas qismidir. Bu hissiyot biror bir ko‘ngilsiz voqea kuzatilganda sodir bo‘ladi.

Yovvoyi 1 Xonakilashmagan, tabiat quchog‘ida erkin hayot kechiruvchi (hayvon, parrandalar haqida). Yovvoyi mushuk. Yovvoyi kaptar. Yovvoyi echki.

2 Madaniylashtirilmagan, o‘z holicha, tabiiy holatda o‘sadigan; zararli, ziyon keltiruvchi. Yovvoyi olma. – Sidiqjon kattakon yovvoyi jiyda tagida to‘xtab, Sharofatni kutdi. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. Darhaqiqat, salgina xotirjam bo‘ldingmi, yovvoyi o‘tlar o‘sib ketadi-yu, g‘o‘zalarni siqib tashlaydi. Sh.Rashidov, Bo‘rondan kuchli. Odamlar yovvoyi o‘t deb uzib tashlaydigan o‘simliklar, aslida tuproqning ko‘z yoshlaridan unib chiqqan nolalar ekan. M.Yo‘ldoshev, Hayotbaxsh hodisa.

3 O‘zlashtirilmagan, ishlanmagan (yer-joy haqida). Ilgari bu yerlar ham jarliklar, yovvoyi sayhonliklardan iborat edi. Gazetadan. Yovvoyi cho‘l buyuk kenglikda Menga borin ochib tashladi. Sh.Rahmon, Yurak qirralari.

4 Qo‘rqinchli, vahimali, dahshatli. Yovvoyi ovoz. — Bo‘ron yovvoyi bir kuch bilan o‘kirardi. S.Anorboyev, Oqsoy. Sharif tarroning yovvoyi chinqirig‘ini eshitgandek bo‘ldi. S.Siyoyev, Yorug‘lik.

5 Madaniyatning ibtidoiy bosqichiga xos; qoloq. Sahroda arablarning badaviy degan yovvoyi toifasi bor ekan. M.Ismoiluy, Farg‘ona t.o.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 342.

6 ko‘chma Odamga aralashmaydigan; begona, odamovi, yot. Odamlardan qochaman, Yovvoyi bir holim bor! Mirtemir.

Yovvoyi qarash qilmoq Jahl bilan qaramoq. To‘raning nihoyatda kayfi qochdi, jahl otiga minib, oqsoqol bilan imomni yeb qo‘ygudek, yovvoyi qarash qildi. J.Sharipov, Xorazm. [Umayder] Umidaga olayib, yovvoyi qarash qiladi-da, teskari o‘girilib oladi, termometrni barmoq orasida sindirib, qo‘liga beradi. A.Muxtor, Chinor¹.

Birda uni ko‘kdan kutsa, birda ilm va aql-u idrokdan qidirdi, yana birda Qo-bus ibn Vushmagir, Ma’mur ibn Ma’mun va sulton Mahmud kabi hokimlarni yo‘lga solib, haqiqatni qaror toptiraman, deb o‘yladi, biroq, e voh, ustoz aytgan adl-u haqiqat hamon undan qochmoqda, shamol kabi, yovvoyi ohu kabi tutqich bermay qochmoqda. (“Ko‘hna dunyo”, 118-bet)

Odamovi Odamlardan o‘zini chetga olib yuradigan, hech kimga qo‘shilmaydigan, el-xalqqa aralashmaydigan. Rajab bolalikdan kamgap, odamovi chiqdi. H.Nazir, Indamas. Yigitlardan kimdir Huri haqida gap ochib, uni odamovi debdi. F.Musajonov, Huri. U [Anzirat] odamovi va har bir gapdan hadiksiraydigan bo‘lib qoldi. N.Eshonqul, Yalpiz hidi. Dilshod anchayin odamovi bo‘lib o‘sdi, uning biron davraga, ayniqsa, notanish odamlar guruhiga kirishib ketishi qiyin edi. A.Yo‘ldoshev, Daryo².

Yuqoridagi qo‘rqoq, odamovi, yovvoyi kabi konspetlar asosan, bolalarga nisbatan ishlatilib, salbiy konseptosferalarda qo‘llanilgan: *Bola haddan ortiq qo‘rqoq va juda yovvoyi edi. (“Ota izidan”, 78-bet)* Ushbu matnda haddan ortiq qo‘rqoq, juda yovvoyi kulturologik birikma orqali konseptning ma’nosi yanada reallashgan.

Dono [f. دانا – biluvchi, bilimdon, donishmand]

1 ot. Aql-zakovatli, donishmand, oqil. Dono qiz. Dono rahbar. Aytguvchi ahmoq bo‘lsa, tinglovchi dono kerak. Maqol. Nodon so‘zlar – dono ibrat olar. Maqol. – Dononing alami tez tarqaydi. “Yoshlik”. Ahmoqlar bilan kulishgandan

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 246.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 436-437.

ko'ra, donolar bilan yig'lashgan afzal. Gazetadan. Eng katta yovni ham yengmoqlik oson, Bitta sotqinini qo'lga olsang, bas. Donoga aylanar hattoki nodon, Faqat hasadgo'yni daf qilib bo'lmas. A.Oripov, Yangi she'rlar.

Dono *poshsho donolarga loyiqdur! Nodonlarga nodon poshsho yarashur!*
(*"Ko'hna dunyo"*, 13-bet)

2 sft. Aql-zakovat bilan aytilgan, qilingan; aql-zakovatdan dalolat beradigan; oqilona. Dono maslahat. Ona tilim – dono tilim. Maqol. – Juda dono gaplarni aytdingiz. S.Ahmad, Yulduzlar¹.

*Allomalarga telba-teskari masalalar berib, ulardan **dono** javoblar kutguvchi bu telba hokim!..* (*"Ko'hna dunyo"*, 218-bet)

Zakiy [a. ذكى – ziyrak; aqlli, qobiliyatli] kt. Zehni, aqli o'tkir; zakovatli, dono, aqlli. Hofiz Ko'ykiy qalbini chulg'agan va o'zi ham anglab yetmagan bu g'alati hislarni faqat shu zakiy zotgina tushuna olishiga chin yurakdan ishondi. X.Sultonov, Bir oqshom ertagi. Qirq yil zahmat chekdi qay bir zakiy zot, Bir kun etmoq uchun fikrin ifoda. A.Oripov, Hayrat. Aytilish mumkinki, san'at bir hovuch zakiy, ya'ni zehni va didi o'tkir odamlar uchun ekani tan olingan. N.Eshonqul, Mendan "men" gacha².

*Ikkinchi g'ulom sershovqin bozorning boshqa bir joyida atrofiga bir guruh bekorchilarni yig'ib, Alloh onasining qornidayoq tengsiz salohiyat va cheksiz zakovat ato qilgan **zakiy** allomayi zamon to'g'risida va'z aytardi.* (*"Ko'hna dunyo"*, 103-bet)

Oqil [a. عاقل – aqlli, farosatli, es-hushli; bama'ni]

1 O'tkir aql sohibi; aqlli, dono. Oqil odam. Semiz qo'zining go'shti yaxshi, Oqil onaning – qizi. Maqol. — Sen oliyjanob, oqila bir qiz muhabbatini oyog'osti qilding, sen bu alamni o'lguningcha tortasan. Mirmuhsin, Umid. Oqillar ko'payib ketsa ham agar, Baribir yashaydi bitta devona. A.Oripov, Yangi she'rlar.

2 Aql bilan aytilgan, qilingan; bama'ni.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 900.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 332.

3 Oqil (erkaklar ismi)¹.

Biri-biridan “odil”, biri biridan “oqil” inson deding! (“Ko‘hna dunyo”, 413-bet)

U padari buzrukvori shayxulislom Isomiddinday dono va zakiy murshidlardan bo‘lmasa-da, har qalay, Mirzo Ulug‘bekka yon bosib, uni mutaassib shayxlarning fisqi fasodlaridan muhofaza qilib kelardi. (“Ulug‘bek xazinasi”, 52-bet)

O.Yoqubov asarlarida qayd etilgan sifat leksemalar misolida ilk eski turkiy tilda shaxs yoshini ifodalovchi so‘zlar guruhi mavjud bo‘lganligi, ular ma’no nozikliklariga ko‘ra o‘zaro zidlangani, ushbu zidlanish inson hayoti fasllari bilan bog‘liq holatni aks ettirishini bilib olish mumkin.

Ikkinchi bob bo‘yicha qisqacha xulosalar

1. Xalq tarixi milliy qadriyatlar, madaniyat tarixi bilan uzviy bog‘liqdir. O‘ziga xos tarixiy taraqqiyoti, madaniy rivoji, etnografik xususiyatlariga ega bo‘lgan har bir xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, madaniyati va etnik qatlamiga doir ma’lumotlar xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, maqollarda o‘z ifodasini topadi. Maqollar eng qadimgi davrlardan hozirga qadar yashab kelayotgan og‘zaki ijod namunalari bo‘lib, milliy qadriyatlarga doir muhim ma’lumotlarni, xalq dunyoqarashi, urf-odat, an’analarini, turmush tarziga doir ma’lumotlarni o‘zida mujassamlantiradi.

2. Lingvokulturologiyaning tadqiq manbai madaniyat elementlarini aks ettirgan birliklardan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos urf-odat, an’ana, qadriyat, dunyoqarash hamda milliy-madaniy qonuniyatlarni turli darajada ifoda etadi. Holat sifatleri lingvokulturologiya birligi sifatida til va madaniyat munosabatini, madaniy qarashlarni ifodalashga xizmat qiladi.

3. Jismoniy nuqson bilan bog‘liq holat sifatlar semantik maydoniga kiruvchi barcha sifatlar sememasi “didga mos emaslik” semasiga ko‘ra umumlashadi, ya’ni

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 503.

bu sema uning arxisemasi bo'lib qoladi. Jismoniy nuqson bilan bog'liq holat sifatlar sememasi salbiy ifodani bildiradi.

4. Sememasi “didga mos emaslik, yoqimsiz” arxisemali sifatlar “ko'rinish”, “organlar” hamda “tashqi holat” integral semalari bo'yicha uch semantik guruhga bo'linadi.

5. Sifatlar ma'lum integral semasi bo'yicha guruhchalarga bo'linar ekan, bu guruhchaga kiruvchi har bir sifat sememasi differensial sema bo'yicha o'ziga xoslanadi. Illyustrativ misollar keltirishda mana shu differensial semalarni reallashtirishga harakat qilinadi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

a) misolda sifat aniqlanmish bilan birikma tarkibida, subyekt bilan predikativ qo'shilma tarkibida berilib, bu sintaktik butunliklar o'z klassemasiga ega bo'ladi. Bu klassema sifatning differensial semasi asosiga quriladi;

b) holat bildiruvchi sifat gap tarkibiga kiritilar ekan, shu gap tarkibida uning ma'nosini tavsiflovchi qurilma ham berilishi kuzatiladi;

d) holat sifatining semantik strukturasini reallashtirish uchun uning o'xshatish qurilmasi tarkibiga kiritilib, o'xshatish asosi sifatida qayd etiladi. Bunda uning differensial semasini o'xshatish etaloni reallashtiradi;

e) holat bildiruvchi sifatlar uyushgan sifatlovchilardan biri sifatida gapda tanlanishi ham uning semantik tarkibini ochishda rol o'ynaydi;

f) holat bildiruvchi sifatlar gap tarkibida berilar ekan, shu gapda uning antitezasi keltirilishi ham realizatorlik vazifasini o'taydi;

g) holat bildiruvchi sifatarning differensial semalarini reallashtirish uchun, u ifodalangan gap bo'lagiga majoziy ma'noda ajratilgan bo'lak ilova qilinadi;

h) holat bildiruvchi sifatarning semantikasini reallashtirishga uni uyushgan bo'laklarning umumlashtiruvchi bo'lagi sifatida berish orqali ham erishiladi.

III BOB. RUHIY HOLATNI IFODALOVCHI SIFATLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

3.1-§. Quvnoqlik holatini ifodalovchi sifatlarning lingvomadaniy xususiyatlari

Kishi ruhiyati nihoyatda serqirra va turfa boʻlib, u oʻzida xursandlik, dargʻazablik, xafalik, loqaydlik kabi har xil holatlarni mujassamlashtiradi. Shundan kelib chiqib, tilimizda bu holatlarni ifodalovchi leksemalarga ehtiyoj tugʻiladi. Natijada *xushhol, xushnud, xurram, quvnoq, shodmon, shod, xushchaqchaq, gʻamgin, dilgir, xafa, xomush, maʼyus, giryon, xunibiyron, diltang, gʻazabnok, kinli, dargʻazab, gʻazabli, sogʻ, sergak, hushyor, lol, mudroq, loqayd* kabi leksemalarni nutqimizda qoʻllaymiz. Bu leksemalarni birlashtiruvchi guruh holat bildiruvchi sifatlar guruhi deb ataladi.

Ruhiy holat sifatlarini ham ifodalovchi holatiga koʻra quyidagicha guruhlarga ajratishimiz mumkin.

Ruhiy holat	Misollar
Muhabbat	sevimli, ehtirosli, joʻshqin.
Quvonch	xushchaqchaq, quvnoq, baxtli, omadli, shod, xursand, moʻjizali, maftunkor, mamnun.
Gʻazab	gʻazabli, achchiqchi, tajovuzkor, dargʻazab, jahldor, jizzaki.
Nafrat	qahrli, kekchi, xusumatchi, adovatli, yoqimsiz, jirkanch.
Qoʻrquv	qoʻrqoq, yuraksiz, qoʻrqinchli, dahshatli, sarosimali, vahimali, jonsarak, tashvishli, xavotirli, iztirobli, gʻamgin, hayajonli.
Hayrat, ajablanish	hayratli, hayron, lol, qoʻpol, tashvishlantiruvchi, shoshtiruvchi, taʼsirli.

G‘amginlik	mahzun, ojiz, baxtsiz, qayg‘uli, ma’yus, g‘amgin, xo‘mraygan, dili vayron, ruhan ezilgan, hafsalasi pir bo‘lgan, ruhi tushgan, kelajakka ishonchsiz, xafa.
Tortinchoqlik	uyatchang, tortinchoq.
Istak va xohish	ishtiyoqmand, shahvatparastlarcha, orzu-havasli.
Rashk va hasad	rashkchi, qizg‘anchiq, shubhali, ishonchsiz, odamovi, murosasiz.

Tilimizdagi ruhiy holat ifodalovchi sifatlar bir qator turlarga ajraladi:

- 1) Xursandlik holatini ifodalovchi sifatlar;
- 2) Xafalik holatini ifodalovchi sifatlar;
- 3) G‘azabli holatni ifodalovchi sifatlar;
- 4) Turli ruhiy holatni ifodalovchi sifatlar.

Dunyo tilshunosligida quvnoqlikni ifodalovchi sifatlar yetarli darajada lingvokulturologik birlik sifatida o‘rganilgan¹.

Xushchaqchaq, quvnoq, xursand, vaqti chog‘, shod-xurram konseptlari sinonimik qatorni tashkil etsa-da, konseptosfera sifatida bir qancha tushunchalarni ifodalab keladi: *Kechqurun shofyor bilan Po‘lat daryochaga borib, mashinani yuvdilar, keyin o‘zlari ham cho‘milib oldilar, qishloqqa yana ham **shod-xurram** bo‘lib qaytdilar.* (“Tengdoshlar”, 43-bet)

“Xursand” holat sifati quyidagi konseptosferalarni ifodalydi: *Uning yuzidagi boyagi charchoqlik yo‘qolgan, peshonasidagi ajinlar ham go‘yo kamaygandi, lekin uning chehrasida ham o‘z muvaffaqiyatlaridan **xursand** odamlarda bo‘ladigan allaqanday sovuq, yoqimsiz bir mamnunlik bordek tuyuldi menga.* (“Muqaddas”, 42-bet)

¹ Сергеева Д.В. Концепт “радость” в русском и английском языках: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –М., 2004.

His-tuyg‘ular inson hayotining ajralmas va muhim qismidir. So‘nggi yillarda kishining psixikasi bilan bog‘liq tadqiqotlar ko‘lami tilshunoslikda ham ortib bormoqda. His-tuyg‘ularni “qaytarish” haqida gapirib, ularni zamonaviy ilm-fandagi “qora tuynuklar”, “sirli”, “boshqarib bo‘lmaydigan”, “vaqtinchalik”, “o‘tkinchi”, “transcendental” va “noaniq” holatini ifodalashini ta’kidlaydi¹.



3.1.1-rasm. “Quvnoq” konseptining lingvokulturologik talqini

“Quvonch” tushunchasi rus va g‘arbiy Yevropa (xususan, ingliz) til onigini tashuvchilarning dunyoqarashi asosida yotadigan eng muhim “hissiy”

¹ https://openlibrary.org/authors/OL1336565A/Frederic_Vester

tushunchalardan biridir. Biroq, Y.S.Stepanov ta'kidlaganidek, ushbu konsepsiya hali ham mahalliy va xorijiy tilshunoslarning asarlarida yetarlicha o'rganilmagan¹.

Sultonning xayolini Ali G'aribning:

– Taxtiravonni keltiring! – degan o'ktam ovozi bo'ldi. Unga Abul Hasanakning allaqanday **quvnoq, xurram** tovushi qo'shildi:

– Shoshmang, hazratim, men, men o'zim... (“Ko'hna dunyo”, 269-bet)

Hushyor ziyrak, zakovatli, tez fahmlaydigan. Hakimboyvachchadek hushyor yigit qayda?.. Boylarimizning bari hushyor. Aqli bo'lgani uchun boy bo'lganda. Oybek, Tanlangan asarlar.

*Bir kun sog' bo'lsa, o'n kun xasta, bir kun hushyor bo'lsa, o'n kun sarmast – Shamsuddavla meshday qornini mayga to'lg'azib, telba-teskari ishlar qilar, junbushga kelgan chog'larida o'zini **hushyor** sarkarda deb his etar, faqat qo'shni shahar va qo'shni davlatlar emas, mashriqda sulton G'aznaviy, mag'rib da Rumgacha zabt etish haqida aql bovar qilmas rejalar tuzardi. (“Ko'hna dunyo”, 328-329-bet)*

2 sergak. Chegarada hushyor turadi posbon, Begona biror xas uchib o'tolmas. R.Bobojon. Hushyor turib, adashmay, Har sharpani sezaman. Uyg'un. Qamariddin uch-to'rt aylangach, yigitni o'ziga tortdi. Yigit hushyor edi. Beli bukilmadi. T.Malik, Falak.

Hushyor Malik ul-sharob jahl ustida bu gaplarni aytishga aytdi-yu, birdan sergak tortib, sultonga o'g'rincha nazar tashladi. (“Ko'hna dunyo”, 145-bet)

3 Es-hushi joyida, hushini yo'qotmagan (asosan, ichkilik, kayf ta'sirida emaslikni bildiradi). Alimardon qancha may ichganining... hisobiga yetmadi... Hushyor paytlarida u o'zining ahvolini o'ylab ko'rar, nazarida, dahshatli tush ko'rayotganga o'xshab ketar edi. O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. Abdishukurning kayfi baland bo'lsa-da, hushi hali o'zida, mumkin qadar o'zini hushyor tutishga tirishadi. Oybek, Tanlangan asarlar. Hushyor tortmoq Es-hushini yig'ib olmoq, es-hushi joyiga kelmoq; sergaklanmoq (hushyor – har uchala ma'nosida).

¹ Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры: Изд. 2-е, испр. и доп. – Москва: Академический Проект, 2001. – С. 419-429.

Muhammadiyev hushyor tortdi-da, tavba-tazarruga o'tdi. I.Rahim, Qadriabad odamlar. Shirakayf o'tirgan yigit militsiya xodimini ko'rib, hushyor tortdi. Gazetadan. To'ng'ich botir hushyor tortib, yaroqlarini tayyor qilibdi. "Chalpak yog'gan kun"¹.

*Begijon uning afti-angorini ko'rib, sal **hushyorroq** turmasa, uyni shilib ketishdan ham toymaydi, deb o'ylardi. ("Ko'hna dunyo", 58-b.)*

Xursand – bu ijobiy tuyg'uni ifodalovchi sifat, o'nta asosiy hissiyotlardan biri; u biror-bir muhim yaxshilikka ega bo'lish yoki uni kutish paytida paydo bo'ladi². Xursand – bu to'satdan ijobiy o'zgarishlarga reaksiya sifatida qo'zg'alishning namoyon bo'lishi, bu salbiy stimullarni "tiklash" holatini keltirib chiqaradi; xursand holatida odam insonparvar, mehribon, sezgir bo'ladi; hissiy darajada xursand yuz va tovush reaksiyalari, imo-ishoralar va harakatlar orqali ifodalanadi³.

Xursand tushunchasi o'yin-kulgu, zavq, qoniqish, g'alaba, shodlik tushunchalari bilan o'zaro bog'liqlikda tan olinadi; ularning talqinlari yopiq sinonimik qatorda birlashadi⁴. Diniy sohada xursand degani yuqori ruhiy holat; qarang. Xursand so'zi hayotni maqtashda to'qilgan: Yosh yigit, yoshligingizda xursand bo'ling va yoshligingizda quvonchingizning yuragini tatib ko'ring. Ichki ma'nolarni yetkazish: ...yolg'ondan **xursand** emas, balki haqiqatdan **xursand** bo'ladi. ("Ota izidan", 112-b.)

Quvnoqlik holatini ifodalovchi konseptlar quyidagi leksik-semantik guruhga birlashadi: *xursand, mamnun, xushhol, xushnud, xurram, quvnoq, shodmon, shod, xushchaqchaq, masrur* kabilar. Xursandlik ifodalovchi bunday sifat leksemalar orasida xursand uslubiy jihatdan betaraf bo'lib, dominant leksema hisoblanadi. Bu so'z og'zaki va yozma nutqda, adabiy tilning turli vazifaviy uslublarida keng qo'llaniladi. Shuningdek, to'plangan misollar, *xushhol, xushnud, xurram, quvnoq, shodmon, shod, xushchaqchaq* kabi ko'pgina sifat leksemalarning xursandlik ruhiy

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik, 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 456-457.

² Изард К.Е. Психология эмоций. – Санкт-Петербург, 2003. – С. 62.

³ Рейковский Я. Экспериментальная психология эмоций. – Москва, 1979. – С. 87.

⁴ Пеньковский А.Б. Радость и удовольствие в представлении русского языка // А.Б.Пеньковский. Очерки по русской семантике. – Москва, 2004. – С. 61–72.

holatini turli darajada ifodalashga xizmat qilishini ko'rsatadi: *Barcha xushnud, hammaning kayfiyati chog' edi. ("Ota izidan", 59-b.)*

Shod va **xurram** so'zlarining yonma-yon kelishi ma'noni yana ham kuchaytirishga xizmat qiladi. **Shod** so'ziga nisbatan **quvnoq** so'zida ijobiy holat semasi ancha kuchli: **quvnoq** so'zining ma'no ko'lami xursandlikni ifodalovchi boshqa sifat leksemalarga nisbatan ancha kengdir.

Xursand. f. خرسند – mamnun, qanoatlangan: *Judayam xursandman. ("Diyonat", 43-b.) // Ikkinchidan Polikarnov domlaga xursand bo'lib gapirdi, katta yordam va'da qildi. (49-b.) // Bu gaplardan qat'iy nazar, u xotinni chaqirib gaplashinglar, xursand qilinglar.*

Mamnun [a. ممنون – o'ta minnatdor, qarzdor; burchli] Ko'ngli to'lgan, qanoatlangan, xursand, minnatdor. Qutidor har kuni Yusufbek hojining muxlislaridan birining uyida mehmon va hojining suhbatidan mamnun edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Ergash mamnun jilmayib, Sottining yelkasiga qo'lini tashladi. I.Rahim, Chin muhabbat¹. *Uning aytishicha, otasi bu ajoyib oila bilan yaqinlashayotganidan benihoya mamnun emish. ("Diyonat", 37-b.) // U hozir o'zidan ham, kuyoviga aytgan gaplaridan ham, hammasidan mamnun, chunki bugungi suhbat kuyovida yaxshi taassurot qoldirganini sezardi. ("Diyonat", 51-b.) // Ha, Vohid Mirobidov hayotdan mamnun bo'lsa arziydi. Otaqo'zi o'g'lidan mamnun edi. ("Diyonat", 72-b.) // Bugun Otaqo'zi nihoyatda mamnun. ("Diyonat", 184-b.) // Ha, ota yanglishmagan – bu odamlarning hammasi tog'a-jiyanlarining gaplashib qolganidan mamnun. ("Diyonat", 277-b.)*

Quvnoq 1 Doim, tabiatan xush kayfiyatli; xushchaqchaq. ...bu oiladagilarning hammasi ham samimiy, quvnoq va oqko'ngil ekanligiga ishongan sayin, bu o'ng'aysizlik o'rtadan ko'tarilib borardi. S.Zunnunova, Olov. Mahdi tabiatan quvnoq, kuydi-pishdi edi. S.Siyoyev, Yorug'lik. 2 Shod, xursand kayfiyatli; quvonchga to'la. Hammalari quvnoq, eginlari bashang. S.Zunnunova, Ko'k chiroqlar. U bugun juda quvnoq. T.Ashurov, Oq ot. Bari o'tib ketdi bir tush misoli, Eslayman goh mahzun, gohida quvnoq. A.Oripov, Yillar armoni. 3 Shod-xurramlik

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik, 3-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 93.

aks ettiruvchi, ifodalovchi. Men sahnalashtirgan quvnoq komediya ham shu haqda... Gazetadan. Toshkent o'zbekning san'ati, tovushi, Quvnoq muzikasi, kuyi, obro'si. G'.G'ulom. O'sha quvnoq kulgi, hazil endi qandaydir jiddiyat, o'y va g'azab bilan aralashib ketgan edi. S.Zunnunova, Olov. *Mohiraning ovozi dadasining ovozidan quvnoqroq edi. ("Diyonat", 35-b.) // Bu quvnoq qahqaha Shukurovga yana domla Shomurodovning uyida bo'lib o'tgan gaplarni eslatdi. Agar u sal shaddod, sal sho'xroq, sal quvnoqroq bo'lsa, Haydar sevinar edi. ("Diyonat", 52-b.) // Abror Shukurovich xotining xiyol erka va qandaydir juda quvnoq ovozini eshitib ajablanadi. ("Diyonat", 249-b.)*

Xurram. Shod, xursand, quvnoq, baxtiyor, baxtli kishiga nisbatan qo'llaniladigan konsept sanaladi.

Shundoq deraza yonidagi tut shoxlarida ikkita qizcha arg'imchoq uchmoqda, ular ko'ylaklarining etaklarini hilpiratib, goh uchinchi qavat balkonigacha ko'tarilar, goh xurram qiyqiriq bilan pastga otilar, yerda, ariq bo'yida esa o'n uch-o'n to'rt yashar bir o'spirin hayrat to'la ko'zlarini qizchalardan uzolmay tamshanib turardi. ("Diyonat", 33-b.)

Uning xayolini Otaqo'zining: — Tohir — deb qichqirgan xurram ovozi bo'ldi. ("Diyonat", 35-b.) // "U odam nima yomonlik qildi sizga"-deb so'ramoqchi bo'ldi, biroq shu payt oshxona tomonda onabolaning xurram qahqahasi yangradi. ("Diyonat", 45-b.)

Ularning g'amgin ruhiyasi bilan hozirgina yangragan xurram qahqaha o'rtasida, qaynotasining mamnun ko'rinishi, umuman bu serfayz, serzavq baxtiyor o'rtasida qandaydir...pinhoni adolatsizliklardan dalolat beruvchi katta bir tafovut bor edi. ("Diyonat", 45-b.)

Xushnud [f. خوشنود – mamnun, qoniqqan: O'sha kuni biz tog' yonbag'ridagi archazorda serkani so'yib dam oldik-da, xushnud kayfiyatda Boysunga qaytib keldik. O.Yoqubov, Xotiralar.

Ikkovi ham xushnud, bir-biriga xushmuomala edilar. ("Diyonat", 31-b.)

Rost, ular Haydarni bu xushnud ishdan ozod qilishdi, dokladingni yana bir ko'rib chiq, deb ichkariga qamab qo'yishdi. ("Diyonat", 34-b.)

Vohid Mirobidov...xushnud jilmaydi: -Kechirasiz, rais. (“Diyonat”, 35-b.)

Shukurov qaynota-qaynonasi ko‘targan **xushnud** shovqin-suron ostida kulimsirab hovliga kirdi. (“Diyonat”, 42-b.)

Katta ziyofat hidini sezgan **xushnud** izdihom, betinim kulgu ostida kafega yaqinlashganda, ichkaridan ...Jamol Bo‘riboyevning rafiqasi chiqdi. (“Diyonat”, 54-b.)

Sochlarining oqligi va sal to‘lisha boshlagani bo‘lmasa, burungiday basavlat, oppoq yuzlari sipsilliq, burunguday **xushnud**, burungiday bekamu-ko‘st kiyingan Bo‘riyev avval Otaqo‘zi bilan, so‘ngra qizlar bilan qo‘l berib ko‘rishdi. (“Diyonat”, 64-b.)

Haydar **xushnud** kayfiyatda Qodirjonni chetga chaqirib, Latofatning gaplarini unga aytdi. (“Diyonat”, 198-b.)

Xoy, ...Mo‘ylov: “Gapingizga endi tushundim” deganday **xushnud** jilmaydi. (“Diyonat”, 245-b.)

Otaqo‘zi bu gaplarni kutmagani uchunmi yo nihoyatda **xushnud** bir kayfiyatda kirib kelgani uchunmi, xo‘plagan mastavasi tomog‘iga tiqilib bir zum sarosima og‘ushida qoldi. (“Diyonat”, 227-b.)

Xushchaqchaq. Ushbu holat sifati lingvokulturologik jihatdan hayotdan mamnun, doimo kayfiyati chog‘, xursand bo‘lib yuradigan shaxslarga nisbatan ijobiy ma’noda ishlatiladi: *Jiyanining gapi to‘g‘ri bo‘lsa to‘g‘ridir, biroq u Vohid Mirobidovni o‘ylaganda, og‘zi to‘la tilla tishlarini doim yarqiratib, doim kulib turadigan bu xushchaqchaq, xushsurat, baxtiyor odamni o‘ylaganda, urushdan oldin gazetada bosilib chiqqan, to‘g‘rirog‘i, bu maqolaning yirik harflar bilan terilgan sarlavhasi “lop” etib ko‘z oldiga keladi.* (“Diyonat”, 26-b.)

Otaqo‘zi bu shirinsuxan, **xushchaqchaq** odam bilan ilk bor tanishgandayoq, u ham o‘ziga o‘xshagan “tanti” yigit ekaniga amin bo‘ldi. (“Diyonat”, 73-b.)

Hammomdan chiqqanday qizarib ketgan, lekin **xushchaqchaq** mamnun Vohid Mirobidov minbardan tushib, joyiga borib o‘tirdi. (“Diyonat”, 74-b.)

U aft-angorigina emas, gap-so‘zlari, xulqatvori, qiliqlari bilan ham xuddi otasining o‘zginasi, **xushchaqchaq**, shirinsuxan, ochiq-yorug‘ juvon edi. Mahbuba

ham bir necha kungacha qovog‘ini uyib yurdi, biroq tabiatan dadasiga o‘xshash xushchaqchaq juvon, keyinroq orada hech narsa bo‘lmaganday bo‘lib ketdi. (“Diyonat”, 176-b.)

*...o‘yin-kulgudan boshqani bilmaydigan sho‘x, **xushchaqchaq** Tohira, endi qandaydir o‘zgarib, cho‘kib, qisilib, qimtinib qolganday tuyuldi unga. (“Diyonat”, 184-b.)*

Shod [f. شادی – shodlik, xursandlik; quvnoqlik] 1: og‘zidan bodi kirib, shodi chiqmoq Behayo so‘zlar bilan so‘kmoq, so‘kinmoq. Kuyovi G‘iyosiddin tilmoch, tokchalari mehrobnuksa mehmonxonada burma bolishni bag‘riga bosib, aroq ichar, og‘zidan bodi kirib, shodi chiqib, oqsoqolni so‘kar edi. S.Ahmad, *Hukm. Nazoratsiz qolgan og‘izdan ham bodi kirib, shodi chiqishi mumkin. M.Ismoil, Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l. 2 Shodi (erkaklar ismi)*¹.

*Ilgari Haydarni ko‘rganda sevinchdan porlab ketadigan jodu ko‘zlarida endi kishini tahqirlovchi sovuq bir ifoda paydo bo‘ladi, ilgari hayajondan entikib, goh **shod**, goh g‘amgin kulimsirab turadigan qiz, endi ichimdagini top qabilida ish qiladi. (“Diyonat”, 134-b.)*

*Qizi Tohira behad **shod**, ... Oyiining yuziday uzunchoq, yoqimtoy yuzi lov-lov yonib, yelkasiga tushgan timqora sochlarini tez-tez to‘g‘rilab atrofga betinim alanglar, ko‘zlari charaqlab hammaga kulib boqardi. (“Diyonat”, 148-b.)*

3.1.1-jadval.

Quvnoqlikni ifodalovchi holat sifatleri	Ma‘nosi	Matnlardan misollar
Shod-xurram	personajlarning xush kayfiyati	<i>Kechqurun shofyor bilan Po‘lat daryochaga borib, mashinani yuvdilar, keyin o‘zlari ham cho‘milib oldilar, qishloqqa yana ham shod-xurram bo‘lib</i>

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 657.

		qaytdilar. (“Tengdoshlar”, 43-bet)
Xursand	1. Mamnun, hayotdan qanoatlangan; 2. Shod, quvnoq, kayfiyati juda yaxshi, xurram, xushchaqchaq. 3. Biror narsadan yoki kimsadan qanoat hosil qilgan, mamnun, rozi, minnatdor	Uning yuzidagi boyagi charchoqlik yo‘qolgan, peshonasidagi ajinlar ham go‘yo kamaygandi, lekin uning chehrasida ham o‘z muvaffaqiyatlaridan xursand odamlarda bo‘ladigan allaqanday sovuq, yoqimsiz bir mamnunlik bordek tuyuldi menga. (“Muqaddas”, 42-bet)
Hushyor	sharoit, holatni, narsa-hodisaning mohiyatini tez anglash qobiliyatiga ega; shunday qobiliyat, idrok bilan ish tutadigan; ziyrak; aqlli, idrokli, farosatli, es-hushli; zehni o‘tkir, ziyrak; sergak, sezgir.	Begijon uning afti-angorini ko‘rib, sal hushyorroq turmasa, uyni shilib ketishdan ham toymaydi, deb o‘ylardi. (“Ko‘hna dunyo”, 58-b.)
Mamnun	o‘ta minnatdor, qarzdor; burchli	U hozir o‘zidan ham, kuyoviga aytgan gaplaridan ham, hammasidan mamnun, chunki bugungi suhbat kuyovida yaxshi taassurot qoldirganini sezardi.

		(“Diyonat”, 51-b.)
Quvnoq	Doim, tabiatan xush kayfiyatli; xushchaqchaq	Bu quvnoq qahqaha Shukurovga yana domla Shomurodovning uyida bo‘lib o‘tgan gaplarni eslatdi. Agar u sal shaddod, sal sho‘xroq, sal quvnoqroq bo‘lsa, Haydar sevinar edi. (“Diyonat”, 52-b.)
Xurram	shod, quvnoq, xushchaqchaq; mamnun	Ularning g‘amgin ruhiyasi bilan hozirgina yangragan xurram qahqaha o‘rtasida, qaynotasining mamnun ko‘rinishi, umuman bu serfayz, serzavq baxtiyor o‘rtasida qandaydir...pinhoniylar adolatsizliklardan dalolat beruvchi katta bir tafovut bor edi. (“Diyonat”, 45-b.)
Xushnud	mamnun, qoniqqan; shod, xursand	Haydar xushnud kayfiyatda Qodirjonni chetga chaqirib, Latofatning gaplarini unga aytdi. (“Diyonat”, 198-b.) Xoy, ...Mo‘ylov: “Gapingizga endi tushundim” deganday xushnud jilmaydi. (“Diyonat”, 245-b.) Otaqo‘zi bu gaplarni kutmagani uchunmi yo nihoyatda xushnud bir kayfiyatda kirib kelgani uchunmi, xo‘plagan mastavasi

		<i>tomog‘iga tiqilib bir zum sarosima og‘ushida qoldi. (“Diyonat”, 227-b.)</i>
Xushchaqchaq	Hayotdan mamnun; doimo xursand bo‘lib yuradigan	<i>Jiyanining gapi to‘g‘ri bo‘lsa to‘g‘ridir, biroq u Vohid Mirobidovni o‘ylaganda, og‘zi to‘la tilla tishlarini doim yarqiratib, doim kulib turadigan bu xushchaqchaq, xushsurat, baxtiyor odamni o‘ylaganda, urushdan oldin gazetada bosilib chiqqan, to‘g‘rirog‘i, bu maqolaning yirik harflar bilan terilgan sarlavhasi “lop” etib ko‘z oldiga keladi. (“Diyonat”, 26-b.)</i>
Shod	shodlik, xursandlik; quvnoqlik	<i>Qizi Tohira behad shod, ... Oyiining yuziday uzunchoq, yoqimtoy yuzi lov-lov yonib, yelkasiga tushgan timqora sochlarini tez-tez to‘g‘rilab atrofga betinim alanglar, ko‘zlari charaqlab hammaga kulib boqardi. (“Diyonat”, 148-b.)</i>

3.2.-§. G‘amginlik holatini ifodalovchi sifatlarning lingvomadaniy xususiyatlari

Voqelikni idrok etishning eng yorqin namunalaridan biri badiiy matndir. Bu matn orqali kishining xarakter-xususiyatlari, ruhiy olami, tabiatni idrok etishga

bo'lgan munosabati yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, unda tasviriylik, emotsional-ekspressivlik bo'yog'i aks etib turadi. Ijodkorlar badiiy matnni yaratish bilan bir qatorda o'zlari ixtiro qilgan so'z va iboralarni kitobxonning yoshi, imkoniyat darajasini inobatga olgan holda qo'llashadi.

“Badiiy nutq asar ichida muallif tomonidan qay tarzda hikoyalanishiga qarab yozuvchining fikrlash doirasi, yozish uslubi, falsafiy mushohadasi haqida tasavvur hosil qilamiz. Muallif bayon jilovini badiiy-estetik niyatga ko'ra goh o'z qo'lida ushlab turadi, goh personajlar qo'lga tutqazadi, goh o'zga hikoyachiga topshiradi. Natijada kitobxonni zeriktirmaydigan, realizmning mundarijasini kengaytira oladigan ko'p qirrali tasvir-hikoya nutqi – polifonik nutq paydo bo'ladi”¹.

Badiiy adabiyotda nutq stillari o'ziga xos shaklda birlashib va uyg'unlashib, muallif uslubida, hikoya qilish uslubining o'ziga xosligida adabiy asar personajlari uslubida aks etadi va ifodalanadi.

G'amginlik deganda hayotning turli jabhalarida norozilikni his qilganda yuzaga keladigan salbiy tuyg'u tushuniladi. Ya'ni, biror kishi ish joyida muammolarga duch kelganida yoki qarindoshlaridan biri bilan janjallasha, ehtimol u xafa bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, klinik jihatdan e'tiborsiz bo'lgan holatda qayg'u tushkunlikka aylanishi mumkin, garchi lug'atlarda shunday deyilgan: G'amginlik – bu melanxolik yoki tiniq tushkunlikka o'xshash holat. Aytish mumkinki, bu to'plangan salbiy his-tuyg'ular – tirnash xususiyati, mayda xafagarchilik – chiqish yo'lini topa olmaydigan bosqichdir.

G'amginlik holatini ifodalovchi sifat leksemalar ham tilimizda keng tarqalgan.

G'amginlik ko'pincha lirik yoki badiiy asarlarning asosiga aylanadi. G'amginlik inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, u har qanday hodisa kabi ijobiy va salbiy funksiyalarni bajarishi mumkin: *Shukurjon bir vaqtning o'zida yuragida mavj urgan ham g'amgin, ham chuqur farzandlik tuyg'usidan butun vujudi jimirlab ketganini his etdi (“Ota izidan”, 131-bet)*

¹ Rahimov Z. “Ko'hna dunyo” romani poetikasi. – Farg'ona, 2005. – B. 51.

Odil Yoqubov asarlarida ruhiy holatni ifodalovchi lisoniy vositalar orasida g'amginlik holatini bildiruvchi sifatlar ham alohida o'rin tutadi. G'amginlik holatini bildiruvchi sifatlar alohida leksik-semantik guruhni tashkil etadi. Bunday LSG tarkibiga kiruvchi birliklar ma'nosining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bildiradigan g'amginlik holati odamning qiynalish, azoblanishi natijasida oh-faryod chekish, nola qilish singari ruhiy kechinmalar bilan chambarchas bog'langan bo'ladi.

Holat sifatlari ma'nosida reallashuvchi holat muayyan logik subyekt doirasidagina sodir bo'lishi, undan tashqariga chiqmasligi, unda qolishi bilan xarakterlanadi. Holat sifatlari holat ifodalaydi, kimdir (nimadir) muayyan holatda bo'ladi.

Holatning realligi, obyektivligi, uning muayyan shaxs yoki predmetda "to'planish", unda "moddiylashishi" bilan bog'liq ekan, demak logik subyektning mavjudligi faqat uning absalyut harakati bilan emas, balki, uning "absalyut" holati bilan ham o'lchanadi.

Aniqrog'i, holat ham materiyaning yashash formasidir. Ammo holat nisbiyligi bilan, harakat esa, absalyutligi bilan ajralib turadi. Fe'l sememasidagi logik subyekt holati qanchalik davom etmasin, qanchalik real turlicha, "prespektivali" bo'lmasin u nisbiydir. Uning nisbiyligi absalyutdir. Chunki, har qanday holat asosida harakat mavjuddir. Ammo bu harakat ko'zga real tashlanmasligi hamda yashirinligi bilan xarakterlanadi. Demak, holat sifatlarida ifodalangan holat, holat akti, holat o'zgarishi logik subyektning ichki holat yuz bergan holat akti, holat o'zgarishi logik subyekt harakat natijasi sanaladi. Holat bir tomondan bevosita harakat ketidan ergashuvchi sifatida idrok qilinadi. Aytilganlardan kelib chiqib, holat sifati reallashgan holat harakatga nisbatan passiv akt bo'lsa-da, uni ham protses sifatida tushunish logik filosofik to'g'ri bo'ladi.

Obyektiv borliqdagi narsa-predmetlarga shaxsga, hayvonga xos turlicha holatlarni ifodalovchi holat sifatlari nutqda aktiv ishlatilishi va murakkab semantik strukturasi bilan ajralib turadi. Holat sifatlari sememasining arxisemasi holat olib holat fe'llarini bir makrosistemaga biriktiradi. Chunki, arxisema xarakteridagi

holat sifatlarining semantik maydoni yuzaga keladi. Demak, arxisema leksemasining mohiyatini ifodalaydi.

O'zbek tilidagi holat sifatlari arxisemadan boshqa differensial semalari bilan ham xarakterlanadi. Bu tabiiy chunki, holat sifatlari muayyan differensial semalarga ko'ra nutqda konkret denotativ ma'noga umumiyliklar, nisbiy ajratishga ega bo'ladi.

G'amgin [a. + f. غمگين – g'amli, qayg'uli; xafa, ma'yus] 1 Ruhini g'am egallagan holatli; qayg'uli. Oyqiz g'amgin Lolaning yelkasiga qo'lini qo'yib, alohida mehribonlik bilan gapirdi. Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli. Kampir chap yonida oyog'ining uchi bilan yer chizib turgan g'amgin Adolatga boqdi. I.Rahim, Chin muhabbat. 2 G'am, qayg'u ifodali. Birozdan keyin o'ychan, g'amgin qiyofada Kimyoxon kirdi. N.Aminov, Qahqaha. U o'z taqdirini bilib olmoqchi bo'lgandek, yigitga tik boqdi va g'amgin nigohga duch keldi. "Yoshlik"¹.

Odil Yoqubov tabiat voqea-hodisalari tasvirini keltirish bilan bir qatorda personajlar ruhiy holati, ko'rinishi, tafakkur doirasi hamda ularning tashqi muhit omillariga ta'sirini yoritishda xolisona yondashadi. Badiiy asar tilining jozibador va shirali, serma'no va bo'yoqdor, kishi diqqat-e'tiborini jalb qiladigan bo'lishi, albatta, muallif nutqiga bog'liq. Hikoyachi til birliklaridan unumli va samarali foydalana olsagina ko'zlagan maqsadiga erishadi. Shuningdek, yozuvchi o'z asarlarida muallif nutqi vositasida voqelikni idrok etish, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini ochiq-oydin, ba'zi o'rinlarda yashirin tarzda ifodalashi kuzatiladi: *U mana endi, har bir so'zi, ovozi **g'amgin**, nigohidan mehr yog'ilib turgan mittigina kampirining ko'ngil faryodini eshitgandagina, bu to'ytomosha chol-kampirda qanchalik og'ir botishini his etdi. ("Diyonat", 18-b.)*

*U Latofatni ilgari ham ko'rgan, hatto maktabda singlisi Tohira bilan o'qiydigan ko'zlari **g'amgin** bu qoracha qizchani ko'z ostiga olib qo'ygan, lekin so'nggi bir yil ichida uni bunchalik ochilib ketadi deb o'ylamagan edi. ("Diyonat", 34-b.)*

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 506.

Odil Yoqubov bu manzarani keltirish orqali beixtiyor kishi qalbida go‘zal qiz tasvirini izohlar ekan, “ko‘zlari **g‘amgin** bu qoracha qizchani ko‘z ostiga olib qo‘ygan” poetik tasvirini beradi. Kichik bo‘lishiga qaramay ko‘z ostiga olib qo‘ygan, chiroyli, pok dil qiz ruhiyatini anglab yetadi kishi.


Latofat uyda bo‘lar, kechayu-kunduz boshini kitobdan ko‘tarmas, qandaydir g‘amgin, pinhoniylar xayollar og‘ushidan chiqmas edi. (“Diyonat”, 112-b.)

– *Ha, g‘irt mastman Otaqo‘zi boshini silkitib, g‘amgin kulimsiradi. (“Diyonat”, 235-b.)*

Domla g‘amgin kulimsiradi. (“Diyonat”, 274-b.)

U sochlarini silkitib, g‘amgin kuldi. (“Qaydasan, Moriko”, 10-b.)

Xomush [f. خاموش / خامش – kamgap, indamas]. Ushbu holat sifati g‘amginlik ma’nosini ifodalab, quyidagi konseptosferalarni o‘zida birlashtiradi:



Odil Yoqubov asarlarida voqealar rivojiga shu qadar berilib ketadiki, go‘yo voqeaning ishtirokchisiga aylanadi. Qaysidir qahramoniga nisbatan mehr-muhabbat bilan qarasa, qaysi birinidir nafrat bilan tasvir etadi. Muallif Mirzo Ulug‘bek shaxsiga nisbatan ba‘zan ijobiy, ba‘zan salbiy munosabatda bo‘ladi hamda uning tasvirini berishda ijodkorning xayrixohligi aks etib turadi: *Lekin*

ertalabdan qovog'i ochilmay xomush yurgan Mirzo Ulug'bek tokka chiqqach, peshanasidagi ajinlari yozilib, labiga kulgu yugurdi ("Mirzo Ulug'bek", 112-bet).

Sulton boshda xiyol xomush edi. O'qilgan qasidalar, chalingan kuylar, dunyo turguncha turishini tilab aytilgan hamd-u sanolarga jimgina quloq solib, birda kinoyali kulimsirab, birda go'yo tinimsiz o'qilayotgan bu madhiyalarni xushlamaganday allaqanday mahzun xayollarga cho'mib o'tirdi. ("Ko'hna dunyo", 395-396-b.)

Bu o'rinda yozuvchi o'zi tasvirlayotgan qahramonining tashqi ko'rinishi, fe'l-atvori, ruhiy holati, boshqalardan ajralib turadigan o'ziga xos jihatlarini o'sha davr nuqtayi nazaridan umumlashtirib, tipiklashtirib yoritgan.

Bu safar Moriko mening gapimga xomush holatda javob berdi ("Qaydasan, Moriko", 5-b.)

Qayg'uli 1 Qayg'u-alam chekayotgan. Qayg'uli kishi. – Unsin sevikli va qayg'uli yagona do'sti... bo'lgan akasini quchoqlab, qonli yarasiga yuzini, ko'zini surib yota berdi. Oybek, Tanlangan asarlar.

2 Qayg'uli kunlar. – Nega qayg'uli ko'rinasan, Oftob? A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Bugungi qayg'uli hodisa uni bu uyga ertaroq keltirib qo'ydi. H.G'ulom, Mash'al. San'atkorni yaqindan bilgan yoki tomoshalarini ko'rgan kishi bu qayg'uli xabarga aslo ishongisi kelmasdi. T.Obidov, Yusufjon qiziq¹.

– Siz ko'p **qayg'uli** bo'lmang, ustod, – dedi. (*"Ko'hna dunyo"*, 453-b.)

“Chunki har bir inson dunyoni o'z ko'zi bilan ko'radi, fikrlaydi, tahlil qiladi, baholaydi. Yozuvchi uchun esa o'z qahramoni haqida uning qanday ekanligini aytishdan ko'ra, qandayligini ko'rsata olish, ko'rsatganda ham personajning xatti-harakati, o'z xayollari, dunyoqarashi, atrofdagilarga bo'lgan munosabatida namoyon qila olish, ya'ni uni to'laligicha aks ettira olish katta yutuqdir. Shu bilan birga kitobxon uchun ham o'zinikiga aylanib qolgan personajning ruhiy holatlarini, ichki kechinmalarini “eshitgandan” ko'ra “ko'rish” maroqliroq, tushunarliroq bo'ladi”².

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik, 4-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 120.

² Rahimov Z. Ko'rsatilgan asar. – B. 53.

Ma'yus [a. – umidsizlangan, ruhi tushgan] kt.

1 Noumid, tushkun holatli; tush kun. [Otabek:] *Bu yerda so'zimni eshituvchi birov ham bo'lmadi, bo'lsalar xam, «sening arzingni shu xonlar ijro qiladimi?» deb, meni ma'yus qildilar. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Umid bilan ko'targan boshchasini yana yostiqa qo'ydi. Non ilinjida chaqnagan yirik ko'zlari ma'yus yumildi. M.Ismoil, Farg'ona t.o.*

2 Ezilgan, g'amgin holatli; xomush. *Uning ma'yus chehrasiga qarab turib, Javlon badtar ezilib ketdi. L.Tojiev, Mehrim sizga, odamlar. Katta-kichik, yoshlari erkak-ayollar oxiri ko'ngildan yig'lar, ularning ko'z yoshlarini ma'yus egilgan boshlari ifoda qilar edi. P.Tursun. O'ylarimda tolgan o'ychan tol Ma'yusgina egmish boshini. Abdunazar, Anjir guli. Qishloq chollari murdalar qoshiga asta qadam tashlab kelishdida, tiz cho'kib, ma'yus holda ancha sukut qilishdi. T.Rustamov, Mangu jasorat¹.*

O.Yoqubov asarlarida quyidagi konseptosferalarni ifodalab kelgan: *Kampirning ma'yus ko'zlari yana jiqqa yoshga to'ldi. Bo'lg'usi kelini Latofat esa, uning tamom aksi, tirnoqlariga xina qo'yilgan oppoq nozik qo'llarini tizzasidagi guldastaga xorg'in tashlab, katta-katta **ma'yus** ko'zlarini boqqa tikib, o'yga tolgan, o'ylari ham ko'zlariday g'amgin, go'yo u bu yerga bo'lg'usi hayot yo'ldoshining quvonchiga sherik bo'lish uchun emas, o'zi istamagan bir marosimga majbur bo'lib, birovlar qistovi bilan kelgan. ("Diyonat", 168-b.)*

*Otaqo'zi to'ydan so'z ochgani uchun o'zidan ham xafa bo'lib ketdi, **ma'yus** tortdi. ("Diyonat", 18-b.)*

Tasvir bayonining personaj tilidan berilishi ham hikoyachining imkoniyati, bilim darajasi, saviyasiga qarab shakllanib boradi. Shu bois asardagi voqea-hodisalar, ishlatilgan so'zlar qahramonning tasavvur doirasiga sig'adigan darajada namoyon bo'ladi, gaplar esa sodda tilda ifodalanib, g'amginlik holatini berganligi bilan ajralib turadi: – *Siz xafa bo'lmang, **ma'yus** tortmang otaxon dedi u qo'l qovushtirib. ("Diyonat", 298-b.)*

Xafagazak [f.1 Yallig'lanish, gazak olish (yara haqida).]

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik, 3-jild. – Toshkent: O'zMU, 2008. – B. 386.

2 Xafa bo'lgan, arazlagan holda. Ushbu so'z bevosita kasallik nomi sifatida qo'llanilmasa-da, insonda sodir bo'layotgan jarayonni, teri butunligi buzilishini ifodalaydi. Ushbu holatda yaraning yiring bog'lashi, kattalashishi, undan suv ajralishi kabi holatlar kuzatiladi. Xafagazak so'zi insonga nisbatan qo'llanilganda, ikki xil ma'noni aks ettiradi. Birinchi ma'nosi, insonda yuz beradigan oniy, o'tkinchi jarayon, ya'ni ma'lum bir holatda ma'lum bir insondan xafa bo'lish, arazlash ma'nosini aks ettiradi. Ushbu jihat so'z izohining ikkinchi bandida keltirib o'tilgan. Shuning bilan birga xafagazak so'zi inson holatiga ham ishora qiladi. Ushbu so'z orqali tabiatida doimiy arazchilik, kek saqlash xususiyati bor insonlar nazarda tutiladi.

“Xafaqon (a. yurak urishi, dukillashi) mungli, g'amgin, xafahol. 2. Dilsiyohlik bilan o'tadigan. 3 tib. Yurakning tez yoki notekis urishini sezish holati. 4 tib. Qon bosimining ortishi tufayli yuz beradigan kasallik, gipertoniya”.

Xafaqon so'zi insonda qon bosimining oshishi bilan kechadigan holat va surunkali tus olganda kasallik nomini ifodalaydi. Insonga nisbatan qo'llanilganda ham o'tkinchi holat – bezovtalik, xafalik holatini, inson xarakter-xususiyatlariga ishora qilib kelganda inson tabiatidagi ma'yuslik, g'amginlik holatini aks ettiradi.

Darg'azab. Ushbu holat sifati konsept sifatida “haddan tashqari qattiq achchiqlanish”, “g'azablanish”, “achchig'i kelgan”, “ortiq darajada g'azablangan” konseptosferalarini ifodalaydi.

Soqijon Obidov qandaydir darg'azab bir alfozda polni gursillatib, eshiklarni sharaq-shuruq ochib kirib keldi. (“Diyonat”, 283-b.)

Yozuvchi o'z qahramonlarining nutqini individuallashtirish orqali ularning xatti-harakatlari, ma'naviy qiyofasi, ichki his-tuyg'ulari, fikrlash doirasi, tafakkur olami hamda atrofidagi voqea-hodisalarga munosabatini namoyon qiladi. Qahramonlar nutqi orqali uning qanday muhitda yoki qaysi hududda yashayotganligi, qanday shevada muloqot qilishi, yosh va gender xususiyatlari, kim bilan nima maqsadda suhbatlashayotganligi, uning suhbatdoshlariga munosabati aks etib turadi.

*Soqijon Obidov shunday o'ksib gapirdiki, ota boya qanday **darg'azab** bo'lgan bo'lsa, endi shunday dovdirab, bir zum gap topolmay qoldi. ("Diyonat", 243-b.)*

*Buni ko'rib **darg'azab** bo'lgan Normurod: - Bas-dedi. ("Diyonat", 237-b.)*

G'azabli. Ushbu arxitep "g'azabga to'lgan", "g'azab ifodalovchi" LSGlarni ifodalab keladi.

Personajlar ma'naviy qiyofasi, ruhiy olami, fe'l-atvori, voqealarga munosabati, ichki dunyosi, intilishlari, xarakterlarini uning o'z nutqi orqali ifodalash, ochish asar badiiyligini oshiruvchi vosita sanaladi. Personajlar nutqini individuallashtirish yozuvchiga bir qancha imkoniyatlar beradi hamda qahramonlar ruhiy holatini namoyon qiladi: *Otaqo'zi yuragining tagidan daf'atan vulqonday qaynab kelgan **g'azabli** vaziyatini zo'r-bazo'r to'xtatib qoldi. ("Diyonat", 20-b.)*

*Zum o'tmay bu **g'azabli** turishi, tog'asiga qarshi dilida jo'sh urgan bu isyon, qandaydir alamli bir tuyg'u bilan almashdiyu, uzoq mum tishlab qoldi. ("Diyonat", 20-b.)*

G'amli. Ushbu sifat qayg'uli, g'am-anduhli kishilarga nisbatan qo'llaniladi:

Shuningdek, voqealarni aks ettirishda muallif nutqi orqali o'sha davr tiliga xos bo'lgan til birliklari va holat sifatlaridan unumli foydalanib, qahramon shaxsiga xos bo'lgan ruhiy kechinmani aks ettirgan: *Ha, yuragini allaqanday intihoniy dard kemirgan bu **g'amli** juvon u bilgan va negadir yengiltak deb o'ylagan Nilufar emas, bu tamom boshqa, unsiz iztirob chekayotgan pok, samimiy, go'zal bir ayol edi. ("Billur qandillar", 29-30-b.)*

*Muqaddas indamasdan o'ychanlik cho'kkan allaqanday **g'amli** ko'zlarini yana derazaga tikdi. ("Muqaddas", 22-b.)*

Oyim gulzorning o'rtasidagi supada ikki qo'lini tizzasiga qo'yib, allaqanday o'ychan, g'amli bir vaziyatda o'tirar, oq shoyi ko'ylagining ustidan popukli ipak kamar taqib olgan Salim Karimovich esa supa bilan gulzor o'rtasidagi bir parcha yerda u yoqdan-bu yoqqa borib-kelib turari. U kamarining bir uchini o'ng qo'lga ushlab olgan va uning popugi bilan chap qo'lini hadeb savalar, bu esa uning nimadandir bezovta bo'layotganini ko'rsatardi. ("Muqaddas", 30-b.)

Hasratli. Ushbu konsept sifatida o‘zida bir nechta konseptosferalarni birlashtiradi.

*Go‘yo bu mayin oftob, bu tiniq niliy osmon, qorli tog‘lar uzra asta suzib yurgan bu burgutlar uning qalbidagi allaqanday **hasratli** torlarni chertib, xayolini qayoqqadir olib qochgan, sultonning hazin nigohida unga yot bo‘lgan tizginsiz bir g‘am muhrlangan edi. (“Ko‘hna dunyo”, 125-126-b.)*

*Qattiq uyquga ketibmen, bir mahal qulog‘imga hazin bir ovoz kirganday bo‘ldi. Kimdir yurakni ezib, suv qilib yuborguvchi bir tovushda nola qilar, **hasratli** ovozda yig‘lar edi. (“Ko‘hna dunyo”, 321-b.)*

Norozi. Qanoat hosil qilmagan, ko‘ngli to‘lmagan, xursand bo‘lmagan, mamnun emas shaxslarga nisbatan qo‘llanilib, salbiy baho ottenkasini ifodalab keladi.

*Durust, sultonning o‘zi allaqachon kenja o‘g‘li shahzoda Muhammadni valiahd deb fatvo bergan. Lekin, avvalambor, bu fatvo hali xutbaga qo‘shib o‘qilgan emas, tor doirada, vazir-u vuzaro davrasidagina ma‘lum, qolaversa, amir al-mo‘mininning bu qaroridan ko‘plar **norozi**. (“Ko‘hna dunyo”, 81-b.)*

Ellipsisning bir ko‘rinishi sifatida e‘tirof etiluvchi jim qolish usuli orqali qahramonlar o‘rtasidagi psixologik aloqa ko‘rsatiladi. Tilshunos olim S.Karimov bu xususida to‘xtalar ekan, “Badiiy uslubda muallifning yoki qahramonning ruhiy iztiroblarini, psixologik holatini ifodalaydigan jim qolishlar birmuncha faol” ekanligini ta’kidlaydi¹. Jim qolish vositasida tilda ko‘plab ma’nolar berilishi mumkin. Ularning badiiy uslub uchun qimmatli tomoni muallifning va ba’zan u orqali asar qahramonining ruhiy holatini, kayfiyatini ifodalay olishdadir: *Imomning xiyol bo‘g‘iq ovozi allaqanday **norozi** va tahdidli ohanglar yangradi.*

– Ne chora, – dedi Ibn Sino chuqur xo‘rsinib.

– Biz hakimlar uchun shoh-u gado barobardur.

Xasta borki, xoh shoh bo‘lsin, xoh gado – uni davolamoq biz uchun ham farz, ham qarzdur, taqsir!.. (“Ko‘hna dunyo”, 385-b.)


¹ Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарканд, 1994. – Б. 53.

Tushkun. So‘niq, ruhi past, so‘niq his-tuyg‘uli insonlarni ifodalab keladi hamda shunday holatdagi shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

Odil Yoqubov asarlarida shakl va mazmun birligi tamoyili asosida holat sifatlarining matn tabiatiga mos ekanligiga ham alohida e‘tibor qaratadi. Jumladan, qahramon ruhiyatidagi holsizlik, hech narsaga xushi yo‘q holatini ifodalashda siqiq jumlalarning ishlatilishi mazkur tamoyilning asosiy xususiyatlaridan birini ifodalab keladi: *Oyisi bir mahallar tuppa-tuzuk tashkilotlarda rahbarlik qilgan, lekin bir-ikki yil oldin nimadandir qoqilib, popugi pasayib qolgan, shu-shu o‘ziyam qiynalib, oddiy muzika o‘qituvchisi bo‘lib ishlaydigan dadasini ham qiynab qo‘ygan edi. Shuning uchunmi, yo boshqa sababdanmi, eshiklariga qo‘sh “Volga”lik sovchilar kelishi oyisining **tushkun** ruhiga boshqacha ta’sir etdi. (“Billur qandillar”, 24-b.)*

Ezgin. Ushbu holat sifati ezilgan, ruhiy ezilgan, tushkun ifodali shaxsni ifodalab keladi. Ushbu holat sifati Odil Yoqubov asarlarining birortasida kuzatilmadi.

Odil Yoqubov asarlari tilida personajlar orqali obrazlarga xos pafosni berish, ularning ruhiy holatini yorqin ifodalash, qahramonlar ruhiyatidagi o‘zgarishlarni lingvistik jihatdan asoslash, mavjud vaziyatning aniq tasvirini berish, personaj nutqiga ohangdorlik, ta’sirchanlik bag‘ishlash, xarakterlar ichki dunyosini ko‘rsatish, yozuvchi g‘oyaviy maqsadini ifodalash, davr manzarasini yorqin, kishilarni jonli tasvirlash, asarning milliy mentalitetini ta’minlash asos qilib olingan.



3.2.2-rasm. “G’amgin” konseptining lingvokulturologik talqini

So‘lg‘in. So‘liq, so‘ligan, o‘zini oldirgan, siniqqan, rangi ketgan, quti o‘chgan, so‘niqqan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Iztirob va alam hissini matnda yana ham kuchliroq, bo‘rttirib ifodalash maqsadida Odil Yoqubov ushbu sifatlardan foydalanadi: *Tuynukdan quyilgan qizg‘ish shu‘lada uning otasining yuziday dag‘al keng yuzi niqobday so‘lg‘in, siyrak qoshlari qattiq chimirilgan, taqasimon murti tagidagi yupqa lablari allanimalarni pichirlar, u go‘yo o‘zo‘zi bilan gaplashar edi.*

G'amginlikni ifodalovchi holat sifatleri	Ma'nosi	Matnlardan misollar
G'amgin	g'amli, qayg'uli; xafa, ma'yus	<i>U Latofatni ilgari ham ko'rgan, hatto maktabda singlisi Tohira bilan o'qiydigan ko'zlari g'amgin bu qoracha qizchani ko'z ostiga olib qo'ygan, lekin so'nggi bir yil ichida uni bunchalik ochilib ketadi deb o'ylamagan edi. ("Diyonat", 34-b.)</i>
Xomush	kamgap, indamas, shov-shuvsiz; o'chgan, so'ngan	<i>Lekin ertalabdan qovog'i ochilmay xomush yurgan Mirzo Ulug'bek tokka chiqqach, peshanasidagi ajinlari yozilib, labiga kulgu yugurdi ("Mirzo Ulug'bek", 112-bet).</i>
Qayg'uli	Qayg'u-alam chekayotgan	<i>Agar yanglishmasam, siz ham biroz qayg'uliroq ko'rinasiz... ("Diyonat", 79-b.)</i>
Ma'yus	umidsizlangan, ruhi tushgan	<i>Kampirning ma'yus ko'zlari yana jiqqa yoshga to'ldi. Bo'lg'usi kelini Latofat esa, uning tamom aksi, tirnoqlariga xina qo'yilgan oppoq nozik qo'llarini tizzasidagi guldastaga xorg'in tashlab, katta-katta</i>

		<i>ma'yus ko'zlarini boqqa tikib, o'ygatolgan, o'ylari ham ko'zlariday g'amgin, go'yo u bu yerga bo'lg'usi hayot yo'ldoshining quvonchiga sherik bo'lish uchun emas, o'zi istamagan bir marosimga majbur bo'lib, birovlar qistovi bilan kelgan. ("Diyonat", 168-b.)</i>
Xafa	ranjigan, ozor topgan, norozi; arazlagan kabi ma'nolarda izohlangan	<i>Barcha bo'lib o'tkan voqealardan xabar topgan otasi endi unga nasihat qildi, qaynotasidan xafa bo'lmay, ularni kutib olishga chiqishni taklif qildi. Otaqo'zi to'ydan so'z ochgani uchun o'zidan ham xafa bo'lib ketdi. ("Diyonat", 18-b.) –Siz xafa bo'lmang, otaxon dedi u qo'l qovushtirib. ("Diyonat", 298-b.)</i>
Xafagazak	Xafa bo'lgan, arazlagan holda	-
Darg'azab	G'azabga mingan	<i>Soqijon Obidov qandaydir darg'azab bir alfozda polni gursillatib, eshiklarni sharaqshuruq ochib kirib keldi. ("Diyonat", 283-b.) Soqijon Obidov shunday o'ksib gapirdiki,</i>

		<i>ota boya qanday darg‘azab bo‘lgan bo‘lsa, endi shunday dovdirab, bir zum gap topolmay qoldi. (“Diyonat”, 243-b.) // Buni ko‘rib darg‘azab bo‘lgan Normurod: -Bas-dedi. (“Diyonat”, 237-b.)</i>
G‘azabli	Xafa holatda	<i>Zum o‘tmay bu g‘azabli, tog‘asiga qarshi dilida jo‘shurgan bu isyon, qandaydir alamli bir tuyg‘u bilan almashdiyu, uzoq mum tishlab qoldi. (“Diyonat”, 20-b.)</i>

Insonning ruhiy holati g‘oyat murakkab hodisa. Uni til bilan izohlash undanda murakkabligi har bir kitobxonga ma‘lum. Biroq Odil Yoqubov insonning ichki kechinmalari, ruhiy holatini shu qadar aniq tasvirlaydiki, go‘yoki shu inson ruhiyati bilan yashay boshlaysan kishi. Inson ruhiy holatini ifodalashda turli xil birliklardan foydalanadi. ...**ma’yus** nigoh bilan qarab turibdi. (“Ko‘hna dunyo”, 252-b.) Ushbu matnda so‘zlovchi kishining ruhiy holatini ifodalash uchun ma’yus sifatini qo‘llaydi. Bu o‘rinda ushbu so‘z orqali ayol dardi bilan birga uning nafosati ham ko‘z o‘ngingizga keladi. Agar so‘zlovchi bu o‘rinda xafa, norozi, qayg‘uli sifatlarini qo‘llaganida edi, u o‘zining asl maqsadi so‘zlovchi ruhiyatidagi andisha, nazokat kabi xususiyatlarni chiqara olmagan bo‘lar edi.

“Ustod keksa bo‘lsalar ham, bo‘y-bastlari kelishgan, **oppoq** soqollari ko‘ksiga tushgan, tiyrak ko‘zlari-yu, o‘tkir so‘zlariga hech kim dosh berolmaydigan, tili achchiq, qaysar odam edilar” (“Ko‘hna dunyo”, 8-b.). Ushbu gapda oppoq sifati qahramonning tashqi qiyofasiga tavsif bergan bo‘lsa-da, yozuvchi ana shu tavsif orqali qahramon ruhiyatini yanada oydinroq ifodalashga intilgan. Inson soqollarining rangi oqarib ketishi qarilik alomati, o‘ta hayajonli

yoki qo'rqinchli ruhiy holatda yuzaga chiqadi. So'zlovchi buni insonlarning umumiy bilish fondi, hayot tajribalarining xulosasi sifatida oson qabul qilishini bilgani holda ushbu sifatni tanlaydi.

*“Bir necha oy **sovuq** tahlika qo'ynida yotgan shahar kechagi tantanalardan keyin sal iliganga o'xshar, tun yarmidan oshib qolgan bo'lsa ham, karvonsaroylardan musiqa ovozlari eshitilar, guzarlarda gulxan yoqib o'tirgan qorovullar ko'zga chalinardi”.* (*“Ko'hna dunyo”*, 409-b.).

Aslida, sovuq leksemasi narsa buyumning holatini, ko'chma ma'noda qo'llanganda esa, qo'rquv va hadikni, dushmanlikni anglatadi. Ushbu gapda ko'chma ma'noda qo'llanib, tahlikaga, tashvishga tushdi degan presuppozitsiyaga ishora qilyapti. Ushbu gapdagi sifatlar tushkunlikni yanada bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu bilan shaharning, balki butun xalqning tashvishi katta ekanligiga ishora qiladi.

G'amginlik konseptiga ishora qiluvchi holat sifatlarining aniqlovchilari sifatida matnda qo'llanadigan verbal va noverbal vositalarni quyidagi kabi bir nechta ma'noviy guruhlarga ajratib o'rgandik:

1. G'amginlik holatining baland ovoz bila kechishini bildiruvchi sifatlar.
2. G'amginlik holatini ovozsiz kechishini bildiruvchi vositalar.
3. G'amginlik holatini kuchli g'am-hasrat bilan kechishini bildiruvchi sifatlar.
4. G'amginlik holatining baland ovoz bilan kechishini bildiruvchi holat sifatlarining funksional-semantik xususiyatlari.

Umuman olganda, Odil Yoqubov asarlarida ifodalangan g'amginlik holatini bildiruvchi sifatlarining quyidagi semantik modelini kuzatish mumkin: tushuncha+baho semasi+madaniy sema.

Uchinchi bob bo'yicha qisqacha xulosalar

1. Odil Yoqubov asarlarida personajlar orqali obrazlarga xos pafosni berish, ularning xarakter-xususiyatlarini yorqin ifodalash, bolalar va kattalar ruhiyatidagi o'zgarishlarni lingvistik jihatdan asoslash, mavjud vaziyatning aniq tasvirini

berish, personaj nutqiga ohangdorlik, ta'sirchanlik bag'ishlash, xarakterlar ichki dunyosini ko'rsatish, yozuvchi g'oyaviy maqsadini ifodalash, davr manzarasini yorqin, kishilarni jonli tasvirlash, asarning milliy mentalitetini ta'minlash asos qilib olingan.

Odil Yoqubov asarlaridagi obrazlar nutqida konseptlarning holat bildiruvchi sifatlar orqali ro'yobga chiqishi ijodkorning individual uslubini namoyon etgan.

2. Ijodkor badiiy matnlarni yaratishda qahramonning xarakter-xususiyati, fe'l-atvori hamda tashqi ko'rinishiga mos muvofiqlikni ta'minlash maqsadida, voqealar rivojini bo'rttirib ko'rsatishga harakat qiladilar. Obrazning nutqiy faoliyati badiiy matnda yaqqol yuzaga chiqadi, kattalar kabi bolaning nutqiy saviyasi, fikrlash ko'lamini va ruhiy dunyosini namoyon etishning ham eng maqbul yo'li badiiy matnda ular nutqini xoslashtirish, individuallashtirishdan iborat.

3. Odil Yoqubov asarlarida qo'llanilgan lingvokulteremalar badiiy asarning shakliy o'ziga xosligini ta'minlash bilan bir qatorda qahramonlar nutqining badiiyatini oshirish, ifodaviy ta'sirchanlikni kuchaytirish, ular nutqiga xos bo'lgan soddalik va ravonlikni ko'rsatishga xizmat qilgan.

4. Odil Yoqubov asarlaridagi lakunalarining tahlillari natijasiga ko'ra 10 dan ortiq mavzuiy guruhga ajratildi hamda ularning inson tafakkuri va dunyoqarashining ko'lamini belgilashdagi, obrazli fikrlash darajasini ko'rsatishdagi, milliy-madaniyligini ifodalashdagi o'rni belgilandi.

XULOSA

1. Sifatlar shaxsning tashqi ko‘rinishi, fe‘l-atvori, ruhiy holatini, predmetlarning rang-tusini, maza-ta‘mini aks ettirishga xizmat qiladi. Belgi termini tor ma’noda shaxs, narsa-buyum, voqea-hodisaning ko‘rinishiga, holatiga, tabiatiga ko‘ra xususiyatlarini ifodalaydi. Sifatlar narsa-hodisalar haqida mukammal tasavvurga ega bo‘lishda, tilning emotsional-ekspressivligini oshirishda, olam manzarasini turli semantik ko‘lamda, lisoniy-madaniy munosabatlar orqali aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Madaniyatlararo munosabatlarni o‘rganish leksemalarning mos variantini topish, tillar o‘rtasida realiya, lakunar birliklarni ajratish lingvokulturologiya yo‘nalishidagi tadqiqotlarning muhim vazifasidir. Sifatlar ko‘chma ma’noda nutqning jozibadorligini, ta’sirchanligini oshirishga, voqea-hodisalar mohiyatini yoritishga, badiiy tasvirga xizmat qiladi. Holat sifatlarining lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinishi til va madaniyat munosabati, belgi bildiruvchi leksemalarning xalq dunyoqarashi, tafakkuri, qadriyatlarini to‘plash hamda ifodalash funksiyasini yoritishda, olamning lisoniy manzarasi milliy modellarini aniqlashda ahamiyatlidir.

3. O‘zbek tilshunosligida sifat va uning leksik-morfologik xususiyatlarini o‘rganish asosida tahlil qilingan, xarakter-xususiyat bildiruvchi sifat leksemalarning matn bilan bog‘liq holdagi konnotatsiyalari o‘rganilgan. O‘zbek tilidagi sifatning lingvokulturologik xususiyatlari, belgi ifodalashning umumiy plandagi parametrlari chog‘ishtirma aspektda tadqiq etilmagan.

4. Tabiiy holat bilan bog‘liq belgi bildiruvchi differensial semali sifatlar ma’nosini ochish uchun turli vositalardan foydalanilgan misollar keltirildi. Bu vosita faqat o‘sha sifatning differensial semasini namoyon etish uchun mos deb bo‘lmaydi. Keltirilgan vositalarning har biridan ma’nosi tahlil qilinayotgan har bir sifat differensial semasini ochishda foydalanish mumkin.

5. “Qiyofa” semasini ifodalashda har ikki tilning o‘ziga xos lingvokulturologik modellari mavjudligi ma’lum bo‘ldi: shaxs harakati+shaxs

modeli rus tiliga xos; zoonim+shaxs a'zosi; predmet+shaxs a'zosi modellari o'zbek tiliga xos milliy-madaniy model hisoblanadi.

6. Belgi bildiruvchi leksemalarning lisoniy madaniy xususiyatlari nomlashda, denotat belgisiga bo'lgan munosabatda, jonzotlar, narsa-buyum, voqea-hodisadagi qaysi ko'rinish yoki belgilarning ajratib olinishida namoyon bo'ladi.

7. "Ruhiyat" semali leksemalarda ham shaxs duyoqarashi, madaniy bilimlari o'z ifodasini topgan. "Ruhiyat" semali leksemalardagi o'xshash jihatlar shaxs psixik holatidagi umumiy belgilar bilan izohlanadi. Farqli xususiyatlar shaxs dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya elementlari bilan bog'liqdir. "Ruhiyat" semali belgi leksemalari har ikki tilda kontrast ma'no asosida paradigma hosil qiladi.

8. Holat ifodalovchi sifatlar sifatning ma'no jihatdan salmoqli turini tashkil etadi. Holat sifatlarining uslubiy vazifalari ham juda keng, qo'llanish doirasi keng, holat sifatlarining tarkibida ham o'z, ham o'zlashma qatlamga oid so'zlarni kuzatish mumkin. Ular nasr bilan birga nazmda ham ko'p qo'llanadi. Nazmda qo'llanganda nasrdan ko'ra ko'proq ko'chim ifodalab keladi. Shaxs ruhiy holatini ifodalovchi leksemalar matnda shaxs ruhiy holati, voqea-hodisa belgisini ta'sirchan yetkazib berishga xizmat qiladi.

9. Konkret belgini bildiruvchi leksemalar konnotatsiya hosil qilib, shaxs belgi-xususiyatini ifodalashga xizmat qiladi, abstrakt belgi sifatida shakllanadi. Bu xususiyat belgi bildiruvchi leksemalarning ekspressiv-emotsional semalarini namoyon qilishning muhim omili hisoblanadi. Har ikki til konnotatsiya belgilari, etalonlar xilma-xilligi bilan farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabr PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabr PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabr PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqiyeni tubdan oshirish s'hora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish s'hora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

6. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 259 b.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar

8. Абдуазизов. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент, 1992. – 136 б.

9. Amanlikova N.R. O'zbek tilida sifatga oid leksemalarning lingvokulturologik tadqiqi masalalari. – Toshkent: Transport, 2021. – 136 b.

10. Аскарова М., Абдурахмонов Х. Ўзбек тили грамматикасининг практикуми. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 248 б.
11. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1985. – 199 б.
12. Фазылов Э.И., Чичулина Л.Г. Русские тюркологи и узбекское языкознание. – Ташкент: Фан, 1979. – 216 с.
13. Ҳамитова А. Туркий тилларда сўз маъносининг аналитик йўл билан кучайтирилиши. – Тошкент: Фан, 1984. – 104 б.
14. Ҳожиёв А. Сифат // Шоабдурахмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1-қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 448 б.
15. Hoshimov A. Leksemalarni maydonlarga bo‘lish tamoyili. – Toshkent, 1998. – 292 b.
16. Иноятова Р. Словообразование и лексико-семантика прилагательных соотносительных тематических групп узбекских и русских языков. – Ташкент, 1998. – 25 с.
17. Искандарова Ш. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Самарқанд, 1993. – 63 б.
18. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. – 140 б.
19. Каримов С. Зулфия поэзияси тилида эпитетлар. – Самарқанд, 1978. – Б. 58–66.
20. Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти. – Тошкент, 1999. – 109 б.
21. Муҳаммадимин Г. Особенности качественно-характеризующих значений прилагательных в современном русском языке. – Ташкент, 1998. – 40 с.
22. Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Tanlangan asarlar. 2-jildlik, 2-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 184 b.

23. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jildlik, 2-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 184 b.
24. Пардаев З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. – Самарқанд, 2004. – 47 б.
25. Pardayev Z. Ruhiiy holat ifodalovchi sifatlar semantikasiga doir. – Toshkent, 2002. – 65 b.
26. Курбонниёзов Т. Ҳозирги ўзбек ва қорақалпоқ тилларидаги ҳолат билдирувчи сифатларда кўпмаънолилик. – Тошкент, 1996. – 156 б.
27. Курбонова М. Фитрат – тилшунос. – Тошкент: Университет, 1996. – 32 б.
28. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 26.
29. Sayfullayeva R.R, Mengliyev B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M., Abuzalova M.Q., Yoʻldosheva D.N. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: ZEBO PRINT, 2021. – B. 456.
30. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974. – 128 б.
31. Тожиев Ё, Ҳасанова Н., Тожиматов Ҳ., Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Тошкент, 1994. – 83 б.
32. Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан, 1983. – 82 б.
33. Xudayberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2013. – 136 b.
34. Юсубова Р.Н. Тежамлилик ва ортиқчаликнинг лингвопоэтик хусусиятлари. – Самарқанд, 2021. – Б. 246.
35. Ғуломов А.Ғ. Содда гап. – Тошкент: Фан, 1955. – 97 с.

2) Xorijiy nashrlar

36. Акопян К.В. Прилагательные со значением ментальности в системе английского и русского языков. – Москва, 2005. – 195 с.

37. Изард К.Е. Психология эмоций. – Санкт-Петербург, 2003. – 464 с.
38. Катанов Н.Ф. Опыт исследования урянхайского языка. – Казань, 1903. – 488 с.
39. Казембек М.А. Грамматика турецко-татарского языка. – Казань, 1839. Гл. В. – 122 с.
40. Кононов А.Н. О семантике слов «кара» и «ак» в тюркской географической терминологии / Изв. АН Тадж.ССР. Отделение общественных наук. Вып. В. – Душанбе, 1954. – 88 с.
41. Кононов А.Н. Семантика цветообозначений в тюркских языках /Тюркологический сборник. – Москва, 1978. – 178 с.
42. Лёвушкина О.Н. Лингвокультурологический анализ обпазов-символов художественного текста. Теория и история вопроса: монография. – Ульяновск: УИПК ПРО, 2008. – 48 с.
43. Лечицкая Ж.В. Прилагательные вкуса в современном русском языке. – Москва, 1985. – 132 с.
44. Колшанский Г.В. Контекстная семантика. – Москва, 1980. – 148 с.
45. Кононов А.И. Грамматика современного узбекского литературного языка. – Москва, 1960. – 178 с.
46. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – Москва, 1987. – 198 с.
47. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие. – Москва: Асадемия, 2001. – 198 с.
48. Мелиоранский М.А. Краткая грамматика казахско-киргизского языка. Ч. II. – СПб, 1894. – С. 37–38.
49. Пеньковский А.Б. Радость и удовольствие в представлении русского языка // А.Б.Пеньковский. Очерки по русской семантике. – Москва, 2004. – С. 61–72.
50. Петровский А.В. (пед.). Общая психология. 2-е изд. – Москва: Ппосвещение, 1976. – 479 с.

51. Поливанов Е.Д. Краткая грамматика узбекского языка. – Ташкент, 1926. – 132 с.
52. Пейковский Я. Экспериментальная психология эмоций. – Москва, 1979. – 87 с.
53. Сепир Э. Отношение норм. Поведения и мышления к языку в кн.: НЛ.в.1. – Москва, 1960. – 36 с.
54. Сравнительно — историческая грамматика тюркских языков И. – Москва, 1988. – 102 с.
55. Szszerba L.V. Selected Works of the Russian Language. – Mossow: Uchpedgiz, 1959. – 67 p.
56. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры: Изд. 2-е, испр. и дор. – Москва: Академический Проект, 2001. – 482 с.
57. Чалей О.В. Концептуализация вкусовых ощущений в естественном языке. – Москва, 2017. – 78 с.

III. Lug‘atlar

58. Алишер Навоий асарлари тилининг изохли лугати. I. – Тошкент: Фан, 1983. – 656 б.
59. Американа. Англо-русский лингвострановедческий словарь / Под ред. Н.В.Чернова. – Смоленск, 1996. – 92 с.
60. Франция: Лингвострановедческий словарь / Под ред. Л.Г.Ведениной. – Москва, 1997. – 122 с.
61. Мальцева Д.Г. Германия: страна и язык: Лингвострановедческий словарь. – Москва, 1998. – 248 с.
62. Муравлева Н.В. Австрия: Лингвострановедческий словарь. – Москва, 1997. – 78 с.
63. Николау Н.Г. Греция: Лингвострановедческий словарь. – Москва, 1995. – 74 с.
64. Рума Р.У. Великобритания: Лингвострановедческий словарь. – Москва, 1999. – 124 с.

65. Страны Соединенного Королевства: Лингвострановедческий справочник / Сост. Г.Д.Томахин. – Москва, 1999. – 128 с.
66. Томахин Т.Д. США: Лингвострановедческий словарь. – Москва, 1999. – 92 с.
67. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 1-жилд. – Тошкент: ЎзМЕ, 2006. – 680 б.
68. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 2-жилд. – Тошкент: ЎзМЕ. – Тошкент: ЎзМЕ, 2006. – 672 б.
69. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 3-жилд. – Тошкент: ЎзМЕ. – Тошкент: ЎзМЕ, 2006. – 688 б.
70. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 4-жилд. – Тошкент: ЎзМЕ. – Тошкент: ЎзМЕ, 2008. – 688 б.
71. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 5-жилд. – Тошкент: ЎзМЕ. – Тошкент: ЎзМЕ, 2008. – 592 б.
72. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli, 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 964 b.
73. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli, 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 1036 b.
74. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli, 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 844 b.
75. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli, 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 824 b.
76. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli, 5-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 720 b.
77. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli, 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 864 b.

IV. Badiiy adabiyotlar

78. Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. Нозик иборалар. У.Уватов таржимаси. – Тошкент: Камалак, 1992. – 80 б.

79. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. – Тошкент, 2023. – 145 б.
80. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. /Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. Том. I. – Тошкент, 1960–1963. – 464 б.
81. Одил Ёқубов. Муқаддас. – Тошкент, 1963. – 48 б.
82. Одил Ёқубов. Биллур қандиллар. – Тошкент, 1975. – 48 б.
83. Одил Ёқубов. Улуғбек хазинаси. – Тошкент, 1994. – 438 б.
84. Odil Yoqubov. Qaydasan, Moriko. – Toshkent: Sharq, 2002. – 120 b.
85. Odil Yoqubov. Ko‘hna dunyo. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 480 b.
87. Одил Ёқубов. Сўз. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 496 б.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar

86. Аймупзаева А.А. Субстантивация имен прилагательных и причастий в современном каракалпакском языке // Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 24 с.
87. Ганиходжаева Н.Г. Сравнительно-историческое исследование прилагательных цвета в узбекском языке // Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент: 1986. – 24 с.
88. Гиясов С. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка, Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент: 1983. – 27 с.
89. Ҳамдамова И. Ўзбек тилида сифатларнинг маъно тўплами ва уларнинг “Ўзбек тили изоҳли луғати”да берилиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1964. – 24 с.
90. Ивахницкая А.Э. Основные прилагательные цвета в истории развития русского и английского языков: Дисс. ...канд. филол. наук. – Саратов, 2002. – 52 с.
91. Копачева А.Р. Концепт “белый цвет” в художественной картине мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2003. – 24 с.

92. Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия простом предложении в узбекском языке: Автореф. дисс... д-ра филол. наук. – Тошкент, 1984. – 54 с.
93. Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари. Филол. фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 2004. – 24 б.
94. Матчанова С.И. Русско-узбекские параллели цветообозначений // Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987. – 21 с.
95. Мишенькина Е.В. Национально-специфическая характеристика концепта «свет – цвет» в русской и английской лингвокультурной картине мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ярославль, 2006. – 22 с.
96. Нажмиддинов Ф. Адъектив лексемаларда семалар таснифи ва семалараро муносабатнинг турлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 21 с.
97. Садыкова М. Слова, обозначающие цвет и окраску в узбекском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1963. – 21 с.
98. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2010. – 25 с.
99. Сергеева Д.В. Концепт «радость» в русском и английском языках (сопоставительный анализ на материале произведений Ф.М.Достоевского и Ч. Диккенса): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2004. – 24 с.
100. Талапина А.Б. Сопоставительное исследование русских и английских прилагательных «белый / чёрный» и “white / black” в когнитивно-дискурсивном аспекте: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург. 2008. – 24 с.
101. Тожиматов Ҳ. Сифат семемасининг реаллашувида контекст: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 24 б.
102. Утанова С. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 24 б.

103. Худайберганава Д. Семантический и стилический анализ конструкций уподобления в узбекском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 1989. – 24 с.

104. Чистякова Г.В. Концепт “желтый” в лингвокультуре (на материале русской и английской лингвокультур): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Кемерово, 2009. – 22 с.

VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

105. Абдурахмонов А. Қизил, оқ ва қора сўзларининг лексик-семантик хусусиятлари // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами). – Самарқанд, 1978. – Б. 27–31.

106. Мадрахимов О. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига доир // ЎзРФА Ахбороти, ижтимоий фанлар серияси. – Тошкент, 1957, № 1. – Б. 41–47.

107. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3–16.

108. Маматов М.Ш. Сифат ва отларнинг айрим стилистик хусусиятлари ҳақида // Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар (илмий мақолалар тўплами). – Самарқанд, 1983. – Б. 59–61.

109. Маъруфов З. Сифат // Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент, 1957. – Б. 343–357.

110. Нурмонов А. Сепир-Уорфнинг лингвистик нисбийлик назарияси ҳақида мулоҳазалар / Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Тошкент, 2011. – №5. – Б. 78.

111. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари материали асосида). – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 168.

112. Тожиматов Ҳ. Сифат семемасининг реаллашувида контекст. ЎТА. – Тошкент, 2007. – Б. 70.

113. Ходжаев Т. К некоторым спорным вопросам категории имен прилагательных в современных тюркских языках // Материалы конференции

«Актуальные вопросы современного языкознания и лингвистическое наследие Е.Д.Поливанова», том 1, – Самарканд, 1964. – С. 216–218.

114. Холиёров М. Ясама сифатларнинг отлашиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973, № 2. – Б. 81–82.

115. Хўжаев Т., Муллажонова Ҳ. Янги ясалган сифатлар таҳлиliga танқидий обзор // Ўзбек тили грамматик қурилиши, лексикологияси ва диалектологияси масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1976. – Б. 89–99.

116. Қўнғуров Р. Сўз туркумлари назарияси масалаларига доир // Ўзбек тили грамматик қурилиши ва диалектологияси масалалари (илмий мақолалар тўплами). – Самарқанд: 1969. – Б. 189–201.

117. Ёриев Б. Сифатларнинг стилистик хусусиятлари (М.Шайхзода шеърляти мисолида) // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами). – Самарқанд: СамДУ, 1980. – Б. 56–59.

118. Ғиёсов С. Ўзбек тилида аслий сифатларнинг кўчма баҳолаш маъноси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1982. № 4. – Б. 51–54.

119. Ғиёсов С. Ўзбек тилида субъектив баҳо сифатларининг семик таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. № 2. – Б. 28–32.

120. Шарипова К. -лик аффиксининг сифат ясовчи вазифасида қўлланилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972, № 5. – Б. 69–71.

VIII. Internet saytlari

121. https://openlibrary.org/authors/OL1336565A/Frederis_Vester

122. <http://urss.ru/sgi-bin/db.pl?page=Book&lang=Ru..>